

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

**I. A. AXMEDOV, I. U. NEMATOV,
A. A. SALIMOV, H. T. MUHITDINOV**

INVESTITSIYA VA LIZING ASOSLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Ikkinchi nashri

TOSHKENT
2013

UO‘K: 330.3+331.8(575.1)

KBK 65.262

A 98

***O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi
markazi ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.***

Taqrizchilar:

I. Alimardonov–Toshkent iqtisodiyot kolleji o‘quv ishlari bo‘yicha
direktor o‘rinbosari, i.f.n., dotsent;

Sh.E. Mustafakulov–Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
«Sanoat iqtisodiyoti» kafedrası mudiri, i.f.n., dotsent.

Axmedov I. A. va boshq.

Investitsiya va lizing asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv
qo‘llanma./Axmedov I.A., Nematov I.U., Salimov A.A., Muhitdinov H.T. –
T.: «VORIS-NASHRIYOT», 2013. – 184 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada investitsiyalar haqida tushuncha va uning
mohiyati, shakl va turlari, iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning
ahamiyati, investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari va usullari
investitsiyalar samaradorligini baholash asoslari, korxonaga asosiy fondlariga
investitsiyalarni jalb qilish, investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish, inves-
titsiya loyihalarini moliyalashtirishda tavakkalchiliklar va ularni baholash,
lizingning mohiyati va lizing operatsiyalari turlari, lizing operatsiyalarini
huquqiy tartibga solish, lizing operatsiyalari ishtirokchilari uchun kafolatlar,
lizing kelishuvlarining iqtisodiy-huquqiy tayyorgarligi va ularni asoslash, lizing
operatsiyalari bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalar to‘g‘risida talabalarga bilim
berish maqsadida asosiy masalalar atroflicha yoritib berilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun tav-
siya etiladi. Shu bilan birga qo‘llanmadan o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar,
tadqiqotchilar, investitsiya va lizing asoslarini o‘rganishga qiziquvchilar
foydalanishlari mumkin.

UO‘K: 330.3+331.8(575.1)

KBK 65.262

© «VORIS-NASHRIYOT», 2012

© «VNESHINVESTPROM», 2013

KIRISH

Bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt yaxshi anglaydi. Shunga ko'ra, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas. Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarning, jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati katta. Ma'lumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda, jahon tajribalarini o'rganmay, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmay rivojlanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» nomli ma'ruzasida quyidagi fikrlarni ta'kidladi: «Iqtisodiyotimizning real sektoriga qariyb 2 milliard 900 million dollar hajmida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, ularning 78,8 foizi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan—korxonalar va aholi mablag'lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan shakllantirilmogda. Jami investitsiyalarning 73,5 foizidan ortig'i ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirilmogda. Investitsiyalarning qariyb 45,3 foizi zamonaviy, yuksak samarali asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltirilgani ayniqsa muhimdir. Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida hisobot davrida o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, «Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston» qo'shma korxonasida yuqori

texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish yo'lgga qo'yildi. Shuningdek, avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi.»¹.

Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish nechog'liq katta hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu avvalambor, aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyatini beradi. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag'batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lgga qo'yish mumkin emas. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi, uning iqtisodiy imkoniyatlari kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyat va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiyani, eksportbop tovarlarni o'zlashtirishga, ularni ishlab chiqarishni yo'lgga qo'yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Markaziy banki va boshqa qator vazirlik va idoralarning ma'lumotlaridan, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlari, manaviy-marifiy ishlar bo'yicha yordamchilari, tuman va shahar hokimlarining 2011-yil yanvar-fevral oylarida bo'lib o'tgan mintaqaviy seminarlari materiallaridan keng foydalanilgan.

¹ 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2012- yil 19-yanvar.

1-bob. INVESTITSIYA, UNING MOHIYATI, IQTISODIY MAZMUNI VA TURLARI

1.1. INVESTITSIYA TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991-yildan boshlab qabul qilingan bo‘lib, ular o‘tgan vaqt ichida ancha takomillashtirildi. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya to‘g‘risida»gi Qonunida ko‘rsatilishicha, «investitsiya bu–iqtisodiy samara (foйда, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir»². Bu iqtisodiy ta‘rif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelishini to‘laligicha tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsiyaning o‘ziga va investitsiya faoliyatining obyektlariga keng ta‘rif berilgan. Ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog‘liqligi ta‘kidlab o‘tilgan. Demak, investitsiyaga bozor munosabatlaridan kelib chiqib berilgan ta‘rifning o‘zidayoq investitsiya jarayonning hajmi, asosiy bosqichlari, ya‘ni jamg‘armalar (resurslar), qo‘yilma mablag‘lar (sarf-xarajatlar), samara (daromad, foйда) aniq va ravshan ko‘rsatib o‘tilgan. Xuddi shu kabi yondashuv investitsiya faoliyatning bozor munosabatlariga o‘tishi uchun zamin yaratadi, bu esa, moliyaviy moddiy va aqliy boyliklarni qayta taqsimlashning vertikal va gorizontaal usullaridan bir xilda foydalanishni ta‘minlab beradi.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «qo‘yish», «mablag‘ni safarbar etish», «kapital

² O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi Qonuni, 30.04.1998-y.

qo'yilmasi» ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib, daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiya kiritishda, avvalo:

– investitsiya faoliyati subyektlarining mustaqilligi va tashabbuskorligining ta'minlanishi;

– kiritilayotgan moddiy ne'matlarga investitsiya maqomini berish (fuqarolar o'z ehtiyojlarini qondirish uchun sotib olgan buyumlari investitsiya bo'la olmaydi);

– qonun bilan belgilangan investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur.


Investitsiya tushunchasiga yangi kapitalni barpo etish uchun sarflangan xarajat sifatida ham ta'rif berish o'rinli. Investitsiyalar yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni yangi kapitalni barpo etishga ketgan xarajatlardir. Investitsiya tushunchasining mazmunini to'liq ochib berish uchun unga berilgan ta'riflarni keltirish joiz. Investitsiyalar–bu hali mahsulot ko'rinishiga keltirilmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob-uskunalariga hamda shu bilan bog'liq aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatli qog'ozlarga (masalan, aksiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi

mumkin. Investitsiyaga ketgan xarajatning miqdori ikki omilga bogʻliq: birinchisi–sof foydaning kutilayotgan meʼyori, qaysiki uni tadbirkorlar investitsiyaga ketgan xarajatlardan olishni moʻljallaydi; ikkinchisi–foiz stavkasi. Agarda, kutilayotgan foyda meʼyori foiz stavkasidan yuqori boʻlsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda meʼyoridan yuqori boʻlsa, investitsiyalash foydali boʻlmay qoladi.

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavkasi narxlar darajasining oʻzgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasining ayirmasi koʻrinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16% ga teng boʻlsa, inflatsiya darajasi yiliga 12%ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4% (16–12%)ni tashkil etadi. Agar bu miqdor kutilayotgan sof foyda meʼyoridan past boʻlsa, investitsiya xarajatlari oʻsib boradi.

Investitsiya talabining egri chizigʻi istalgan investitsiya hajmi (I) va real foiz stavkasi miqdori (r) oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrnatadi. Real foiz stavkasi, yaʼni pul kapitalini qarzga olish narxi qanchalik yuqori boʻlsa, investitsiyalashni xohlovchilar shuncha kam boʻladi va, aksincha, real foiz stavkasi qanchalik past boʻlsa, foyda keltiradigan investitsiya loyihalari shuncha koʻp boʻladi. Shuning uchun ham investitsiya funksiyasi grafigi pasayuvchan koʻrinishda boʻladi (1-chizma).



1-chizma. Investitsiya funksiyasi grafigining pasayuvchan koʻrinishi.

Makroiqtisodiy siyosatda foiz stavkasi bilan investitsiya hajmi o'rtasidagi mavjud bog'liqlik hisobga olinadi va keng foydalaniladi. Foiz stavkasining miqdori pul-kredit siyosatining muhim quroli hisoblanadi. Davlat uni o'zgartirish orqali mamlakatdagi pul taklifini tartibga solib turadi. Foiz stavkasining ko'tarilishi pulning qimmatlashuvi va unga bo'lgan talabning qisqarayotganini bildiradi. Demak, investitsiya xarajatlari ham qisqarib boradi. O'z navbatida, investitsiya xarajatlarining qisqarishi, kelajakda milliy ishlab chiqarish hajmining pasayishini bildiradi.

Investitsiyalashda aylanma kapitalga ustuvorlik berilishini faqat kapitalning tarkibiy tuzilishi bilan tushuntirish yetarli emas. Gap shundaki, dastlabki kapital jamg'arish davrida pulni tez to'plash uchun uning kapital aylanishi tez sohalarga joylashtirilishi yuz beradi, chunki bunda yuqori foyda me'yori yuzaga keladi. Foyda me'yori yuqori joyda esa, uni kapitallashtirish imkoni katta bo'ladi. Bu omil ham xususiy sektorda pulni aylanma kapitaliga aylantirish uchun rag'bat yaratadi. Bozor talablariga binoan tejamli xo'jalik yurita bilmaslik tannarxning ortishiga olib keladi, bu narx o'zgar-magan sharoitda ham zararga olib keladi. Bu albatta, investitsiya-larni o'z mablag'i hisobidan ta'minlash imkonini cheklab qo'yadi.


1.2. INVESTITSION FAOLIYAT VA UNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Investitsiyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar hisoblansa, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmuyi investitsiya faoliyati deb yuritiladi. Investitsiya faoliyati tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning bir ko'rinishidir, shuning uchun ham tadbirkorlikka xos bo'lgan belgilar, ya'ni mulkiy mustaqillik, tashabbuskorlik va tavakkalchilik unga ham xos bo'lgan xususiyatdir.

Investitsiya faoliyatining obyekti moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish obyektlari hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatining subyektlaridan biri investor bo'lib, u o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni,

mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga jalb etishni amalga oshiradi. Bunday o'ziga xos faoliyat subyektlarining yana bir katta guruhi mavjud bo'lib, ular investitsiya faoliyati ishtirokchilari deb yuritiladi va ularning asosiy vazifasi investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlash hisoblanadi.



2-chizma. Investitsiya faoliyatining ishtirokchilari.

Investorlar buyurtmachi (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo'lishlari, shuningdek, investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi ham bo'lishlari mumkin.

Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar (investorlar) quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi.

1. Joriy faoliyatning yo'nalishlari bo'yicha institutsional va individual investorlar. Institutsional investorlar rovida sanoat, savdo, transport, aloqa va boshqa sohalardagi aksiyadorlik jamiyatlari namoyon bo'lsalar, individual investorlar rovida fuqarolar namoyon bo'ladilar.

2. Investitsiyalash maqsadlari bo'yicha strategik va bevosita investorlar. Ular o'z oldilariga kompaniyalarni boshqarish huquqini olishni maqsad qilib qo'yadilar. Buni ular boshqa kompaniyalar

aksiyalarining nazorat paketini sotib olish yoki ularning ustav kapitalining katta qismini egallash orqali amalga oshiradilar.

3. Rezidentlikka tegishliligi bo'yicha investorlar milliy va xorijiy investorlarga ajratiladi.

1.3. INVESTITSIYA MUNOSABATLARINING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat subyektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi. Investitsiya munosabatlarining mohiyati bu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o'z ifodasini topadi. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) Investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish.

2) Soliq to'lovchilari va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash.

3) Normalar, qoidalar, standartlarni belgilash.

4) Monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash.

5) Kredit siyosati va narx siyosatini o'tkazishga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash.

6) Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish, huquqiy nuqtayi nazardan, turli mulkdorlar o'rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o'ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish me'yorlarini nazarda tutadi. Investitsiya jarayonining barcha subyektlari—chet ellik investorlardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan, chet ellik shaxslar (rezidentlar va norezidentlar)gacha

bu munosabatlarning ishirokchilariga aylanadilar. Huquq nuqtayi nazaridan chet el investitsiyalari boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog'liq. Iqtisodiy nuqtayi nazardan esa ularning hududiy, zamon va makondagi harakati ko'pdan-ko'p qo'shimcha tavakkalchiliklar bilan to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi.

Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish birinchi navbatda davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko'zlaydi. Respublika qonun hujjatlariga muvofiq chet el investitsiyalari milliy lashtirilishi, davlat tasarrufiga olinishi mumkin emas. Chet el investitsiyalari tabiiy ofatlar, falokatlar, epidemiyalar hollarini mustasno qilganda, rikkvizitsiya qilinmaydi. Chet el investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olingan o'z foydasi va boshqa mablag'larini chet el valutasida chetga o'tkazish kafolatlanadi. Qonun hujjatlarida chet ellik investorlarga ularning davlat boshqaruvining vakolatli organlari bilan tuzadigan konsessiya shartnomalari asosida tabiiy resurslarni qidirish, foydalanishga tayyorlash va foydalanish hamda boshqa xo'jalik faoliyatini joriy qilish uchun konsessiyalar berish nazarda tutilgan. Respublika qonun hujjatlari bilan taqiq-lanmagan faoliyatning hamma sohalari va turlari bo'yicha konsessiya berilishi mumkin. Chet ellik investor qarori bilan investitsiyalarga hamda ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, tasarruf etish huquqi respublika qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga berilishi mumkin.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirishning muhim shartlaridan biri muomalada bo'lgan pul birligi qadrsizlanishining oldini olishdir. Investitsiya faoliyatidan olinadigan samarani ko'paytirish maqsadida investitsiyalar hajmi, yo'nalishlari va manbalarini aniq-lash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga yangi moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlash, bahoni tahlil qilish, soliqqa tortish tizimlarini takomillashtirish ham talab etiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, investitsiya faoliyatini tartibga solishda eng muhim va asosiy muammolardan biri chet el investitsiyalari ishtirokidagi


korxonalarni respublika mintaqalari bo'ylab bir tekis joylash-tirishdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bunda chet el investitsiyalar oqimini rag'batlantirish, shu bilan birga milliy iqtisodiyot subyektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi. Shunday qilib, davlat tomonidan investitsiya munosabatlarini tartibga solish vazifasi, bir tomondan, bevosita chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik subyektlarining qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

1.4. INVESTITSIYA TURLARI, ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Xorijiy mamlakatlar tajribasi va investitsiya to'g'risida mamla-katimizda qabul qilingan qonunlar tahlilidan kelib chiqib, investi-siyaning shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin (3-chizma).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'rni bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.



3-chizma. Investitsiya turlari.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning turlari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, «nou-xau», kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Tarkibiy tuzilishiga ko'ra investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. Yalpi investitsiyalar—bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularning qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya va sof investitsiyalarni oladi. Sof investitsiyalarni aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratmalari chiqarib tashlanadi. Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rtasidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni yuksalish, yo turg'unlik, yoki pasayish davrini boshidan kechirayotganligini aniqlash mumkin. Agarda, yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo'ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi. Yalpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo'lgan chog'da iqtisodiyotda turg'unlik holati vujudga kelishi mumkin. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nolga teng bo'lib, iqtisodiyotda shu yili qancha kapital iste'mol qilingan bo'lsa, uni qoplash uchun shuncha kapital qo'yilmalar kerak bo'ladi.

Iqtisodiy faollik pasayib borayotgan iqtisodiyot uchun yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan kam bo'lgan holdagi vaziyat xosdir, ya'ni iqtisodiyotda yil davomida kapital ishlab chiqarilganiga nisbatan ko'proq iste'mol qilinadi. Bunday holatda sof investitsiyalar ishorasi manfiy bo'lib, uning mutlaq qisqarishini bildiradi. Natijada, yil oxirida kapital hajmi yil boshidagiga

qaraganda kam bo'ladi. Investitsiyalarni xorijga chiqarish, ularning mamlakatlar o'rtasidagi faol harakati zamonaviy jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralib turuvchi xususiyatlariga aylandi. Investitsiyalarni chetga chiqarish jahon xo'jaligidagi tovarlarni chetga chiqarish monopoliyasini tugatdi.

Hozirgi vaqtda xalqaro investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 30% dan oshadi. Bu ko'rsatkich jahon savdosining o'sish sur'atlaridan deyarli 5 marotaba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o'zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamg'arilgan zaxiralarni mujasamlashtiradi. Ushbu investitsiyalar doimiy ravishda mamlakat ichida bir tarmoqdan boshqasiga hamda davlatlararo harakatda bo'ladi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi. Xorijiy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsia va ijtimoiy investitsiya.

Kapital investitsiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa shakllarini ishlab chiqarishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsia investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi. Xorijiy investitsiyalar ko'lamiga qarab xalqaro doiradagi, ya'ni xalqaro investitsiyalar ko'rinishiga ham ega bo'ladi. Qo'yilish obyektiga, yo'naltirilayotgan sohalar va ularni ishlatishdan olinadigan natijalarga qarab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi. Real investitsiyalar – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat. Moddiy investitsiyalar asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsiya loyihalari doirasida

amalga oshiriladi. Shuningdek, real investitsiyalar real kapitalning o'sishini, ya'ni ishlab chiqarish mablag'lari, moddiy boyliklarning o'sishini ta'minlashi zarur.

Moliyaviy investitsiyalar deb aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar uchun sarflangan qo'yilmalarga aytiladi. Bu qo'yilmalar buyum ko'rinishidagi kapitalning o'sishini o'zida mujassam etmasada, lekin foyda, shu jumladan, spekulativ foyda, ya'ni qimmatli qog'ozlar kursi o'zgarishi natijasida vujudga keladigan foyda keltiradi. Moliyaviy investitsiyalar ikki xil ko'rinishida bo'ladi. Aksiyalarni sotib olish real moddiy ko'rinishdagi kapitalni yaratmaydi. Lekin kelajakda spekulativ ko'rinishda foyda olish mumkin bo'ladi. Aksiyalarni sotishdan tushgan mablag'ni ishlab chiqarish uchun, asbob uskunalar sotib olish uchun sarflaganda, u real kapitalga aylanadi va real investitsiya ko'rinishini oladi. Shu sababdan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi operatsiyalari natijasida olinadigan spekulativ foyda keltiruvchi moliyaviy investitsiyalar va qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida pul ko'rinishidagi real moliyaviy investitsiyalarni farqlash lozim. Fan-texnika taraqqiyotining tezlashuvi bilan intellektual salohiyat ishlab chiqarishning eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy unsuri bo'lib qoldi.

Asosiy fondlarga sarflangan real investitsiyalar maqsadi sarflanish yo'nalishlari va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra hududlararo, tarmoqlararo, texnologik, qayta ishlab chiqarish tarkiblariga ega. Asosiy fondlarga sarflangan investitsiyalarni, ularning aktiv (mashinalar, asbob-uskunalar) va passiv (bino, inshootlar) qismlarini tashkil etish uchun sarflangan umumiy harajat yig'indisidagi ulushi texnologik tarkibini tashkil etadi. Investitsiyalarning qayta ishlab chiqarish tarkibi ularning qanday maqsadlarga yo'naltirilganligi, ya'ni qurilishga, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni kengaytirishga, rekonstruksiyaga va yangi texnika bilan qayta qurollantirishga jalb qilingan xarajatlarni umumiy xarajatlardagi har birining nisbiy jihatdan ulushini ko'rsatadi. Investitsiyalarning hududlararo va tarmoqlararo tarkibi esa ularning nisbiy jihatdan hududlar va tarmoqlar bo'yicha taqsimotini bildiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning asosiy qismini xususiy investitsiyalar tashkil etadi. Davlat sektorida real investitsiyalar sarfi muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy muvofiqlashtirish siyosati asosida kreditlar, subsidiyalar ajratiladi, davlat kapital qo'yilmalari muvozanatlashtiriladi va real investitsiyalar o'zlashtiriladi. Davlat tomonidan o'zlashtiriladigan investitsiyalar dastlabki bozor infratuzilmasini va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga sarflanadi. Investitsiyalarning samaradorligini oshirish asosiy kapitalning faol qismlarini vujudga keltirish va o'stirish hisobiga amalga oshiriladi.

Real investitsiyalarni tavsiflash ularning hajmi va daromad keltirishi asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy investitsiyalar kapitalni, to'lov va moliyaviy majburiyatlarning barcha turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, moliyaviy aktivlarga joylashtirilishini anglatadi. Ushbu moliyaviy vositalarning eng muhimlari qimmatli qog'ozlardir: ulushli (aksiyalar) va qarz (obligatsiyalar). Real investitsiyalardan farqli o'laroq moliyaviy investitsiyalarni ko'proq portfel investitsiyalar deb atashadi, chunki bu holda investorning asosiy maqsadi bo'lib moliyaviy aktivlarning mukammal yig'masini (investitsiyalar portfelini) shakllantirish va qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni boshqarish hisoblanadi. Moliyaviy investitsiyalar shaxsiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalarga, obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga va bank depozitlariga uzoq muddatga jalb qilinadigan qo'yilmalardir.

Moliyaviy investitsiyalarning asosiy qismi kapitalning noishlab chiqarish sohasiga sarflanishini bildiradi. Moliyaviy investitsiyalar aksariyat holatlarda real investitsiyalarning manbayi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Moliyaviy investitsiyalar erkin bozor infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda, qimmatli qog'ozlar bozori orqali kapitalni sohalar bo'yicha taqsimlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlatlarda ko'proq tarqalgan.

Investitsiya turlari investorning ishtirok etish shakliga, qayta ishlab chiqarish shakliga, mablag' qo'yish obyektiga, investi-

tsiya kiritiladigan davriga, investitsiya bilan ta'minlashda ishtirok etishning xususiyatiga va moliyaviy xavf darajasiga ko'ra tasniflanadi.

Investitsiyada qatnashish tavsifiga ko'ra, investitsiyalar bevosita va portfel (bilvosita) investitsiyalarga ajratiladi. Bevosita investitsiyalar investorning o'z moliyaviy mablag'larini joylashtirish obyektini barpo etish imkoniyatini beradi. Portfel investitsiyalar esa tijorat banklari, investitsion kompaniyalar, fondlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qisqa muddatli (bir yilgacha) va uzoq muddatli (bir yildan ortiq) bo'ladi. Masalan, oddiy aksiyalarning muomalada bo'lishi umuman biror bir muddat bilan cheklanmaydi.


Depozit sertifikati (olti oy muddatga berilishi mumkin) qisqa muddatli qo'yilma turi bo'lsa, obligatsiyalar (masalan, 20-yilda qaytarish muddati bilan) uzoq muddatli qo'yilma turiga kiradi. Lekin uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni sotib olish va qisqa muddatda, masalan, olti oy o'tgandan so'ng investor uzoq muddatli vositalardan qisqa muddatli maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Ko'pincha investorlar ana shunday vositalarni tanlaydilar va o'z pullarini qisqa muddatlarga qo'yishni xohlaydilar. Masalan, yaqin olti oy mobaynida investor kerak bo'lmaydigan mablag'iga olti oylik muddatga ega bo'lgan depozit sertifikati sotib olishi mumkin.

Qirq yoshga to'lgan investor pensiyaga chiqquncha pul yig'ish uchun biror-bir kompaniyaning obligatsiyasini 20-yilga sotib olish mumkin. Odatda, uzoq muddatli investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida namoyon bo'ladi.

Mulk shakllaridan kelib chiqib, investitsiyalar xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy shakllarga ajratiladi.

Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslarning va fuqarolarning mablag'larini tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qo'yilishini anglatadi.

Davlat investitsiyalari—bu davlat tomonidan milliy daromadning davlat budjeti mablag'lari ko'rinishida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun sarflayotgan mablag'laridir. Investitsiya munosabatlari shu darajada murakkab va ko'p qirraliki, ko'pincha



4-chizma. Investitsiyalarning tasniflashi.

davlatlar o'rtasidagi munosabatlar xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlar bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Bunday aloqa investor huquq va talablarni davlatga topshirganda yaqqol ko'rinadi. Xorijiy investitsiyalar ham davlat yoki xususiy investitsiyalar shaklida

bo'lishi mumkin. Birinchi shaklda davlat investitsiyalari ishtirok etib, bunda bir davlat boshqa davlatga kreditlar yoki boshqa shakldagi qarzlar berishi mumkin. Bunday munosabatlarga xalqaro huquq normalari qo'llaniladi. Ikkinchi shaklda esa, bir mamlakat xususiy firmalari, kompaniyalari yoki fuqarolari boshqa mamlakatning tegishli subyektlariga beradigan investitsiyalar tushuniladi.

Hududiy joylashtirilishi bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Hozirgi davrda bir qator davlatlarda moddiy ishlab chiqarish jarayonidagi investitsiyalashdan tashqari ijtimoiy-madaniy sohalar uchun, fan tarmoqlari uchun, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohalar uchun, informatika sohasi, tabiatni muhofaza qilish uchun investitsiya mablag'lari ajratilmoqda. Bu investitsiyalar xorijiy adabiyotlarda «inson investitsiyasi», «inson kapitaliga investitsiya qilish» deb atalmoqda. Bu investitsiyaning alohida bir ko'rinishi bo'lib, asosan, kishilarning sog'lig'ini saqlash, aqliy va manaviy rivojlanishi uchun, hayotini uzaytirish hamda kishilarning ish faoliyatida ijodiy qatnashishi va uning samaradorligini oshirish uchun sarflanadi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida investitsiyaning asosiy qismlari sog'liqni saqlash, maorif uchun sarflanmoqda. Bunga misol qilib, qishloq joylarda vrachlik ambulatoriya punktlari, kollej va litseylar qurish dasturlarini misol qilib keltirish mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Investitsiya tushunchasiga ta'rif bering.
2. «Investitsiya» atamasi qanday ma'noga ega?
3. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad nima?
4. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirib bering.
5. Investitsiya munosabatlari davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
6. Investitsiyalarning qanday turlari mavjud?

2-bob. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI

2.1. IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MOHIYATI

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yoʻnaltilgan har qanday shakldagi mulkni toʻlaqonli ravishda xorijiy investitsiya deyinimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixonaga chet davlat mulki hisoblanadi yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa, bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya boʻla olmaydi.

Xorijiy investitsiyalar chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida «Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qoʻshadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad Oʻzbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb eʼtirof etiladi»³. Xorijiy investitsiyalarning umumiy taʼrifi F. Xeniusning 1947-yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lugʻatining 2-nashrida quyidagicha berilgan: «Xorijiy investitsiyalar–bu bir mamlakat

³ Oʻzbekistonning yangi qonunlari. 19-son. – T.: Adolat, 1998. 532-bet.

hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar»⁴.

Chet el investitsiyalari deyilganda chet mamlakatlarning milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy ko'rinishdagi muddatli qo'yilmalarining barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarni tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyadorlarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarni barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog'ozlarni, shuningdek, zayom va kreditlar olish.

Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbayiga kiradi.

Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, xususiy-lashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lish, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

Xorijiy investitsiyalarga asosan ikki guruh omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) iqtisodiy omillar:

– ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi;

– jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);

– ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi;

– jahon iqtisodiyoti transmilliyashtirilishining o'sib borishi (masalan, AQSh transmilliy korporatsiya (TMK)lari xorijiy filiallarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi AQSh tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir);

⁴ Dictionary of Foreign Trade. by F.Henus Sec/ Ed. N4.,1947, P.387.

– ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;

– xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.

2) siyosiy omillar:

– kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (erkin iqtisodiy hududlar (EIX), offshor hududlari va boshqalar);

– rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;

– iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiy- lashtirish, xususiy sektorni va kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash);


– bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurolanish, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarni tiklashning asosiy vositasidir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarish zamonaviy, raqobatdosh tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boradi. Bu esa oʻz navbatida yangi ish oʻrinlarining tashkil etilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning hal boʻlishiga olib keladi.

2.2. XORIJIY INVESTITSİYALARNI MILLIY IQTISODIYOTGA JALB ETISH SHAKLLARI VA UNI TARTIBGA SOLISHNING JAHON TAJRIBASI

Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish siyosati mavjud mablagʻlardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib, boylklarni samarali joylashtirishga va shu yoʻl bilan respublika iqtisodiyotini koʻtarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qoʻshilishiga, ragʻbatlantirish yoʻli bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud. Ular quyidagi 7-chizmada aks ettirilgan.



7-chizma. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari.

Chizmada aks ettirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllarini quyida alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Qo'shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil etishdir. O'zbekiston Respublikasida qo'shma korxonalar deganda, nizom kapitalining kamida 30% xorijiy investorlarga tegishli bo'lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150 ming AQSh dollariga teng bo'lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalariga aytiladi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar nizom jamg'armasining 150 ming AQSh dollaridan kam bo'lmasligi sifatsiz mahsulotlarning oldi-sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan kichik qo'shma korxonalarining keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Xorijiy korxonalarini tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqda. O'zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli

sohalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o'z mol-mulklarining bir qismini ajratib, sho'ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday sho'ba korxonalarga ham qo'shma korxonalarga qo'yilgan talablar belgilangan.

Ikki yoki undan ortiq davlat yoki korxonalar o'z kapitallarini jamlagan holda xalqaro tashkilotlar tashkil etishi mumkin.

Konessiya shartnomalari—tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o'zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

Lizing shartnomasi—chet el investitsiyalari ishtirokida asbob-uskunalarni, texnika-texnologiyalarni uzoq muddatga ijaraga olishdir.

Tenderlar—tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir.

Erkin iqtisodiy hudud—ma'lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir. O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida»gi Qonunida erkin iqtisodiy hududga quyidagicha ta'rif berilgan: «Erkin iqtisodiy hududlar—mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir». Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida davlat qo'llab-quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh islohotchi bo'lishi lozim. Davlatning bosh islohotchi sifatida qatnashishi xorijiy tajribada aniq namoyon bo'ladi, masalan, Xitoy hukumati 1 dollar chet el investitsiyasini jalb etish uchun o'z mablag'ndan 4 dollar safarbar etgan. Natijada, milliy va asosan, xorijiy investorlar hududlarga investitsiyalar kirita boshlagan, bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Rossiyada yaratilgan erkin iqtisodiy hududlarga Naxodka, Kaliningrad viloyati, Sankt-Peterburg shahri va boshqalar kiradi. Qozog'istondagi birinchi erkin iqtisodiy hududlar 1991-yilda paydo bo'lgan. Bular: Jezqozg'on viloyatdagi «Jayren-Atasu»,

Kostanay viloyatdagi «Lisakov» va Olmaota shahridagi «Otakent» erkin iqtisodiy hududlaridir.

2009-yilda Navoiy viloyatida tashkil etilayotgan erkin industrial-iqtisodiy hududning asosiy obyektlaridan biri sifatida Navoiy shahri aeroporti bazasida xalqaro tashishlar bo'yicha intermodal markaz qurilishi yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi.

Navoiy erkin industrial-iqtisodiy hududi–jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 3-dekabrda «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi Qarori asosida tashkil etilgan. Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy yo'nalishi–zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovatsia texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishdan iborat.

Moliyaviy aktivlar–bu qimmatli qog'ozlar bo'lib, u chet el kapitalini jalb etish, xorijiy kreditlarni olish va xorij kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun nafaqat hududlar, balki tarmoqlarda, shuningdek, investitsiya faoliyatining subyekti va obyektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada rag'batlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzar, portfel investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklolarni bekor qilish maqsadida olib boriladi. Barcha xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat har qanday

cheklashlarni amalga oshirish huquqini o'z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq. Shunisi xarakterliki, kapitalni chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

2.3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

2011-yilda moliyalashtirishning turli manbalari hisobidan 14084 ish o'rniga ega bo'lgan jami 1006 ta ishlab chiqarish obyekti foydalanishga topshirildi. Bular:

№	Tarmoqlar va sohalari	Foydalanishga topshirilgan obyektlar soni	Yaratilgan ishchi o'rinini, kishi
1	Yog'ochni qayta ishlaydigan soha	41	221
2	Yengil va tekstil sanoati	235	6658
3	Mashinasozlik sanoati	17	409
4	Oziq-ovqat sanoati	352	2550
5	Qurilish mollari ishlab chiqarish sohasi	278	3234
6	Qishloq va suv xo'jaligi sohasi	2	7
7	Farmatsevtika sanoati	4	137
8	Kimyo sanoati	11	139
9	Boshqa tarmoqlar	66	729

Yurtboshimizning «2010-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» mavzusidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan – korxonalar va aholi mablag'lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan shakllantirilgan.

Olib borilgan tizimli ishlar va oqilona investitsiya siyosati tufayli o'tgan 2011-yilda o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushurildi. Xususan, «Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston» qo'shma

korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi.

Shular qatorida «Zenit elektroniks» qo'shma korxonasida «Samsung» kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ayni paytda maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr changyutgich va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

«Muborak gazni qayta ishlash zavodi» unitar sho'ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida propan-butan aralashmasi qurilmasining birinchi navbatini, Samarqand viloyatida «MAN» yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmuaning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazildi.

2011-yilda logistika markazlari faoliyati jadallashdi. Xususan, «Navoiy xalqaro intermodal logistika markazi» orqali 50 ming tonna yuk tashildi. «Angren logistika markazi» yopiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan Qamchiq dovoni orqali 4 million 200 ming tonna, ya'ni 2010-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p yuk tashildi⁵.

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda jahondagi eng yirik va mashhur AQShning «Jeneral Motors», «Teksako», Germaniyaning «MAN», «Daymler Bents», «Klaas», Buyuk Britaniyaning «BAT», Ispaniyaning «Maksam», Yaponiyaning «Isuzu», «Itochu», Malayziyaning «Petronas», Koreyaning «Korean Eyr», «CNOC», «LG», Xitoyning «CNPC», Rossiyaning «Lukoil», «Gazprom» kabi kompaniyalari, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki singari yirik xalqaro moliya tashkilotlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va bir qator arab davlatlarining investitsiya banklari mamlakatimizning asosiy hamkorlari bo'lmoqda.

⁵ 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2012-yil 19-yanvar.

Amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar natijasi o'laroq, 2011-yilda va undan keyingi yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, ularning iste'molchilarga talofatsiz yetib borilishini ta'minlash borasida xo'jalik yurituvchi subyektlarga tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar, turli xildagi imtiyoz va preferentsiyalar taqdim etildi. Xususan:

1. Navoiy viloyati «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida 3 ming tonna sig'imga ega bo'lgan, zamonaviy usulda gaz muhitini boshqarib boradigan (RGS) sovitish kameralari tashkil etildi va buning uchun loyiha qiymati 8,3 milliard so'mga teng bo'lgan mablag' o'zlashtirildi. Loyihaga asosan, «Markazsanoateksport» DATSK va «Kefayat General Trading Co. LLC» (BAA) kompaniyasi mablag'lari sarflandi.

2. Toshkent viloyati Parkent tumanidagi «Parkent-Greyp» MCHJ negizida loyiha qiymati 377,5 million so'm bo'lgan, 500 tonna sig'imiga ega sovitish kamerasi barpo etildi. Ushbu loyihaga «O'zinterimpeks» DATSK, «Parkent-Greyp» MCHJ mablag'lari safarbar etildi. Natijada sovitish kamerasi boshqariluvchi elektron tizimga ulanib, energiya tejavchi zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi, unda ho'l meva-savbzavotlarni $-5/+5^{\circ}\text{C}$ haroratda uzoq vaqt (3–4 oy) mobaynida saqlash imkoni yaratildi.

3. Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida «Sevaz-Androniks» MCHJ qoshida 1000 tonna sig'imga ega bo'lgan sovitish kamerasi barpo etildi. *Loyiha qiymati:* 500 million so'm, *loyiha ishtirokchilari:* «O'zmarkazimpeks» DATSK, «Sevaz-Androniks» MCHJ. Sovitish kamerasi ho'l meva-savbzavot hamda korxonada ishlab chiqarilgan meva sharbatlari va konservalangan sabzavotlarni $+4^{\circ}\text{C}$ haroratda 3–4 oy davomida saqlashga mo'ljallangan.

4. Shuningdek, Toshkent shahar Sirg'ali tumani «Toshkent» xalqaro logistika markazi (XLM) qoshida 2 ming tonna sig'imga ega bo'lgan zamonaviy sovitish va muzlatish kameralarini tashkil etish rejalashtirilgan. 2009-yilda boshlab yuborilgan va qiymati 12,8 million dollarga teng bo'lgan mazkur loyihani amalga oshirish davomida «Toshkent» XLM yuklarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash, bojxona xizmatlarini amalga oshirish, jo'natish va shu bilan

birga «eshikdan eshikkacha» prinsipi asosida yuqori darajadagi logistika xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Loyihaga ko'ra, $-20/0^{\circ}\text{C}$ haroratda saqlashga mo'ljallangan 3 ta muzlatish kamerasi, $-5/+5^{\circ}\text{C}$ haroratda saqlashga mo'ljallangan 2 ta sovitish kamerasini qurish belgilangan. Muzlatish kameralarida yog', go'sht, sut mahsulotlari, meva-sabzavot va turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash nazarda tutilgan.

Qishloq xo'jaligi sohasida erishilgan yutuq va natijalar sarhisobini davom ettiradagan bo'lsak, 2011-yilda parrandachilik tarmog'ini rivojlantirish va aholini tuxum va paranda go'shtiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida mamlakatimizning 8 ta hududida (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari) Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi hamda tashqi savdo kompaniyalari tomonidan jami qiymati 3 milliard so'mga teng bo'lgan 54,3 mingta paranda boqish mumkin bo'lgan 10 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida investitsion faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Investitsiya bozorini shakllantirish investitsiya resurslarini to'plash, jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muammolarini hal etishning zaruriy sharti hisoblanadi.

2.4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN IMTIYOZLAR

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yurituvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator yengilliklar, imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o'z ijobiy samarasini bermoqda. Masalan, Respublikamizda xorijiy investorlar o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkidan boj to'lovi olinmaydi, Respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga sarflanayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalarini daromad (foyda) solig'i-

dan 7 yil muddatga ozod etilgan, korxonada jamg'armasida xorijiy investitsiya mablag'lari hissasi 50% va undan yuqori bo'lsa, ular 2 yil muddatga daromad (foyda) solig'idan ozod qilingan va boshqa soliq imtiyozlari belgilangan.

O'zbekistonda mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini (jumladan, imtiyozlarni berish) amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

– tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;

– respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

– respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yuritish;

– mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

Ko'rilgan zararlarning qoplanishi uchun kafolatlar
Xorijiy investorlar kapitalining saqlanishi uchun kafolatlar
Soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar
Foyda va daromadni xorijga olib chiqish erkinligi
Milliy so'mda va chet el valutasida olingan foidalarni o'tkazish va olib chiqish imkoniyati
Bojxona imtiyozlarining mavjudligi
Xorijiy investorlar mulklari va ularning o'zlarini xavf-xatarlardan sug'urtaviy muhofaza qilish tizimining yaratilganligi

8-rasm. O'zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, xorijiy investorlarni o'z mablag'larini mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Ular quyidagi 8-chizmada o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalarining bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi uchun me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Soliq kodeksi xorijiy sarmoyalarni amalga oshirishning huquqiy asoslari va tartibini belgilab beradi. Sir emaski, o'z mablag'ini biror mamlakat iqtisodiyotiga kiritmoqchi bo'lgan xorijlik sarmoyador birinchi navbatda o'zi uchun yaratilgan imtiyoz va yengilliklarni bilishni istaydi. Shu o'rinda «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq xorijlik investorlar o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shuningdek, chet ellik investorlarning va chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolarining shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj to'lovi olinmasligini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklovlersiz istalgancha chet davlatga o'tkazish imkoniyati kafolatlanadi. Bundan tashqari, xorijiy investorlar respublika banklarida xech qanday cheklovlersiz, istalgan valutada hisob raqamiga ega bo'lishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxonalar amaldagi qonunlarga binoan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish huquqiga egadir. Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va foydalanish va boshqa xo'jalik ishlarini yuritish uchun konsessiyalar berilishi mumkin. Konsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan O'zbe-

kiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakil qilingan organlari o'rtasida tuziladi. Xorijiy investitsiyalari bo'lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonaning tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxonaga mulkidan o'zining hissasini korxonaga mulki bilan qiymatiga mutanosib ravishda pul yoki natija tariqasida qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tuzilgan korxonalarining xo'jalik ishlarida hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida olib borilishi lozim.

Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan shart-sharoitlar xalqaro shartnoma va xorijiy investorlar bilan kelishuvlarda ko'rsatilgan shart-sharoitlardan farq qilsa, xalqaro shartnoma va kelishuvga asosan faoliyat yuritiladi. Shunday qilib, yaratilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Hozirga kelib, O'zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga yetkazildi va amalda qo'llanilmoqda. Bu faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;
- xalq iste'moli va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliyashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investitsiyalar faqat favqulodda holatlarda, avariya, epidemiya tarqalgan vaqtlarda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rekvizitsiya qilinishi mumkin. Bu holat investorga ko'rsatilgan zarar miqdorida kompensatsiya qilinadi.

Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari orqali qilingan daromadlari xorijiy valutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o'tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o‘zlashtirish maqsadida investorlarga bir qator imtiyozlar (iqtisodiy platforma) beriladi.

Xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar (savdo, vositachilik, xomashyo yetkazib beruvchilardan tashqari) ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab:

- daromad (foyda) solig‘idan birinchi yil 25 foiz qismidan, ikkinchi yil 50 foiz qismidan, uchinchi yil 100 foiz ozod qilinadi, qishloq hududida esa birinchi yildanoq 100 foiz ozod qilinadi;

- mulk solig‘idan 2 yilga ozod qilinadi;

- ishlab chiqargan mahsulotining 30 foizdan ortig‘i eksportga chiqarilsa, 50 foiz daromad solig‘idan (foyda solig‘i), 15–30 foiz eksportga chiqarilsa, 30 foiz daromad (foyda) solig‘idan ozod qilinadi;

- ishlab chiqarish bilan band bo‘lsa, er solig‘idan 2 yilga ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida alohida sohalarga imtiyozlar berish ko‘zda tutilgan. Unga ko‘ra neft va gaz konlarini ochish va qidirish ishlariga xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan korxonalar ushbu ishlarni amalga oshirish davrida barcha soliqlardan, shuningdek, ushbu ishlarni amalga oshirish uchun zarur uskunalarni import qilishda bojlardan ozod qilinadi.

Mazkur soha korxonasi chet ellik hamkorlar bilan birga ochilsa:

- neft va gaz qazib chiqarilgan kundan boshlab 7 yilga daromad (foyda) solig‘idan;

- xorijiy hamkorlar ulushi kapitalidan olinadigan daromad va mulk solig‘idan ozod qilinadi.

Yengil sanoat sohasida:

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar qo‘shimcha qiymat solig‘idandan tashqari barcha soliqlardan ozod;

- o‘z ehtiyoji uchun ishlab chiqarish uskunalari, ehtiyot qismlarini import qilishda korxonalar bojxona to‘lovlaridan ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining rivojlanib borishi, foyda olishning turli yo‘llarini amalga tatbiq etishga olib kelmoqda. Agar avval korxonalarda asosiy daromad o‘zida ishlab

chiqarilgan mahsulotni sotishdan iborat bo'ladigan bo'lsa, bozor munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitda investitsiya va moliyaviy daromad olishga kengroq e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda investor oldida turgan asosiy maqsad optimal investitsiya portfelini shakllantirish bo'lib, uning ushbu portfel tarkibiga kiruvchiga investitsiya qimmatliklarini, boshqacha aytganda, investitsiya mulk obyektlari qanday joylashtirilishi ham muhim hisoblanadi. Bugungi kunda investor mulkining qaysi faoliyatga yo'naltirilishi ham muhim masalalar qatoriga kiradi. Jumladan, investor mulki tarkibida bo'lgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mulklari ko'proq jalb qilinsa, uning oladigan daromadi yanada ortishi mumkin. Investitsiya faoliyatining vositasi hisoblangan mulk barcha ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishlarda ishlab chiqarish munosabatlarining asosini tashkil etib, ularning xususiyatlarini belgilab beradi.

Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri qo'shma korxonalar hisoblanadi. Qo'shma korxonalar tashkil etish korxonalar va tashkilotlarning chet ellik sheriklar bilan aloqasini yuksaltiradi, mamlakat hududida xorijlik tadbirkorlarga keng sharoit yaratadi, mamlakat hududiga xorijiy investitsiyalarni jalb etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri bu qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berilishidir. Hozirgi kunda xorijlik ishbilarmonlar O'zbekistonni o'zlari uchun qulay va ishonchli sherik deb hisoblaydilar, chunki respublikamizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratildi. Natijada ularda o'z sarmoyalarini respublikamizda joylashtirish va biz bilan hamkorlik qilish istagi ortib bormoqda. Respublikamizda yaratilgan qulay investitsion muhitning asosiy omillari—respublikamizdagi qulay siyosiy barqarorlik, boy xomashyo resurslarining mavjudligi, qo'shma tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilganligidir.

Qo'shma korxonalarining tashkil etilishi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishni jadallashtiradi va xalqaro doirada mavqeyi ortishiga olib keladi. Qo'shma korxonalarining ahamiyatli tomoni olingan foydani taqsimlash, sarfni qoplash, korxonalar fao-

liyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishdadir. Xorijiy investitsiyalarni respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etish to'g'risidagi Qonun hujjatlariga binoan, korxonaning nizom fondiga ta'sischi-larning o'z ulushi bo'yicha ishtirok etishi, korxonalarining mulki, aksiyasi va boshqa turdagi qog'ozlarni sotib olishi, mahalliy fuqarolar bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda yerlarni sotib olish ko'rinishlarida ko'proq jalb etilmoqda.

Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish mamlakatimizga:

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy etish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezrok qutilish imkonini beradi;

- yangi ish joylari tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mehnat unumdorligi oshiriladi;

- jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga erkin konvertatsiya qilinadigan valutilarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

Yuqori texnik saviyadagi tayyor mahsulotlar ulushi oshirilishi quyidagi jihatlarga bog'liq:

- xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O'zbekistondagi eksport qiluvchi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko'maklashish;

- yuqori texnologiya va ilmtalab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi soha va soha ichi tizimi yaxshilanishiga xizmat qiladi;

- eksportning intellektual mulk obyektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnik-tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko'rsatish kabi turlarini rivojlantirish yo'li bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarning jahon xo'jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish;

- ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yo'nalishini beruv-

chi shart-sharoit yaratuvchi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish;

– innovatsia jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida qo'llab-quvvatlashning eng maqbul uyg'unlashuvi asosiy yo'llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat ahamiyatiga molik natijalar darajasigacha yetkazish;

– o'zbek olimlari va mutaxassislarining chet eldagi yetakchi institutlar, tashkilotlar va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish;

– yuqori darajali marketing tadqiqotlari o'tkazish, tijorat va texnologiya menejmenti sohasidagi yutuqlarni o'rganish, xorijiy bozorlarning konyunkturasi, sig'imi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni o'rganish.

Ayni vaqtda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olmoqda: korxonani tashkil etish sabablarini inobatga olish; ishonchli sherik tanlash; xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etish haqida qaror qabul qilish.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish sabablarining asosan uch turkumini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular ichki, tashqi va strategik sabablardir.

Ichki sabablar tarkibi quyidagilardan iborat: yaratilgan investitsiya muhitidan foydalanish; boshqaruvning yangi usullarini o'zlashtirish; zamonaviy va eng qulay tartibga erishish; mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishni kengaytirish; xorij bozoriga kirib borishni tezlashtirish; ijtimoiy, madaniy va siyosiy bilimlarni kengaytirish; xodimlar malakasini oshirish.

Tashqi sabablar tarkibi quyidagicha: jahon bozoriga chiqish; sog'lom va samarali raqobat muhiti; xorijiy iqtisodiy aloqalarning yaxshiligi; mahalliy hokimiyatning talablari.

Strategik sabablar tarkibi quyidagilardan iborat: mamlakatda zamonaviy ish yuritish usullaridan foydalanish imkoniyati; mustahkam xomashyo bazasiga ega bo'lish; texnologiyalar transferti; ishlab chiqarishni kengaytirish.

Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi yuksak darajada taraqqiy etishning hal qiluvchi omillaridan biri bo'lgan. Ammo yana bir haqiqat mavjudki, chet el investitsiyalarini keragidan ortiq jalb etish ham mamlakatni iqtisodiy va siyosiy qaramlikka olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, jahon xo'jaligini rivojlantirishda xalqaro kapital migratsiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki u mamlakatning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalari mustahkamlanishiga olib keladi, ularning tashqi savdo aylanmalarini, ishlab chiqarish hajmini ko'paytiradi, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning jahon bozoridagi raqobatdoshligini, importchi mamlakatlar texnik salohiyatini o'stiradi va mamlakatdagi bandlikni oshiradi.

Ushbu o'rinda xorijlik olimlarning fikr-mulohazalari, tadqiqotlariga murojaat etadigan bo'lsak, marketingshunos olim M. Porter yirik transmilliy kompaniyalar va xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlarning strategiyasi mavjud raqobat ustunligidan foyda ko'rishga asoslanganini isbotladi. U raqobat ustunligini to'rt yo'nalishga bo'ladi: korporativ boshqaruv ustunliklari; ishlab chiqarish omillari ustunligi; mamlakatdagi talab hajmi; ko'makchi va qo'shimcha tarmoqlarga bog'liq ustunlik.

M. Porter ushbu omillar sintezini «raqobat afzalliklari brillianti» deb nomlaydi va ular kapitalni chetga chiqarishning muvaffaqiyatini kafolatlashini nazarda tutadi. Qo'shimcha omillar sifatida esa davlatning oqilona siyosati va «omadli vaziyatlar»ni keltiradi. Shuningdek, olim mamlakatda o'zaro bog'liq ishlab chiqarish

tarmoqlari mavjudligi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakat uchun katta raqobat ustunliklari va imkoniyatlarini yaratishini isbotlaydi. Buning uchun davlat tarmoq va sohalar bo'yicha klasterlarni rivojlantirishga turtki berishi kerakligini ta'kidladi. Masalan, mamlakatda zamonaviy oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish agrar soha mahsulotlari (sut, go'sht, poliz mahsulotlari, meva va boshqalar) ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni, shunga mos ravishda tegishli hajmdagi o'rash va qadoqlash uskunalari, zamonaviy chakana savdo tizimi mavjudligini talab etadi; mamlakatda qishloq qurilishini jadallashtirish uchun esa zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarishni, kommunal xo'jalik tizimi hamda infratuzilma xizmatlari rivojlanishini taqozo etadi.

Yuqorida ta'kidlangan fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda iqtisodiyot biryoqlama emas, balki ko'pyoqlama, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali kompleks rivojlantirib borilmoqda.

Yurtboshimizning «2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» nomli ma'ruzasida ta'kidlanganidek, «Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirayotgan kapital qo'yilmalar hajmi ancha oshib, o'tgan 2011-yilga nisbatan ularning o'sish sur'atlari 109,3 foizni, yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 24,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar va jalb qilinadigan kreditlar hajmi 16 foizga ko'payib, 3 milliard 300 million dollardan oshadi. Mazkur mablag'ning 2 milliard 300 million dollardan ortig'i yoki qariyb 70 foizini to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etishi, ayniqsa, e'tiborlidir. Bu xorijiy investorlarning iqtisodiyotimizning mustahkamligi va barqarorligiga, eng muhimi, O'zbekiston taraqqiyotining istiqboliga bo'lgan qiziqishi va ishonchi tobora ortib borayotganidan yaqqol dalolat beradi»⁶.

⁶ 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2012-yil 19-yanvar.

Investitsiya siyosati nafaqat kapital mablag'lar miqyosini oshirishni, balki ularning takror ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishni, investitsiyalarni ko'proq samarali va raqobatdosh ishlab chiqarishlarga yo'naltirishni ko'zda tutadi.

2012-yilning investitsiya dasturi prognoz ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, jami kapital qo'yilmalar 2 367 970 million so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Bu o'tgan yilga nisbatan 14,2 foizga ko'p demakdir. Reja bo'yicha markazlashgan investitsiyalar umumiy kapital qo'yilmalarning 24,2 foizini, markazlashmagan investitsiyalar esa 75,8 foizni tashkil qilishi belgilab qo'yilgan. Bu yilgi investitsion dasturda moliyalashtirishning yana bir manbasi bo'lmish Oliy ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 46997,6 million so'm mablag' iqtisodiyotimizga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

2.5. TO'G'RIDAN TO'G'RI XUSUSIY XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNI RAG'BATLANTIRISH

Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, eksport hajmini oshirishga imkon yaratayotganligiga amin bo'lish mumkin. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oqimi kengayib va ortib borayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining to'g'riligi hamda samaradorligidan dalolatdir.

Rivojlangan mamlakatlar orasida xorij investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, ya'ni foyda olish ehtimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga qiziqishi ortadi. Bu esa bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi yechim hisoblanadi, ya'ni qayerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha yerdagi bozorga ko'proq intiladi. Shuningdek, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhiti yaratgan mamlakatlardan biriga

aylandi. Bu, shubhasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi «To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan. Farmonning ahamiyatli tomoni shundaki, u xususiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan. Farmonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni har tomonlama qulay, ortiqcha ishchi kuchiga ega bo'lgan bir qator viloyatlarning qishloq aholi punktlarida joylashtirilishi belgilanishi mamlakatimizda bandlik masalalarini ijobiy hal etishga qaratilgan. Huquqiy kafolatlarning aniq va oddiyligi sarmoyadorlarning investitsiya kiritish haqida qaror qabul qilishini tezlashtirish bilan birga, ularga mavjud xatarlarni ham baholash imkoniyatini yaratadi. Davlatimiz iqtisodiy siyosati ko'proq to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga va uni rag'batlantirishga qaratilganligi bois, turli shakldagi investitsiyalar oqimi yildan yilga ortib bormoqda. O'z navbatida, respublika mintaqalaridagi boy mineral-xomashyo resurslari, yetarli miqdordagi malakali ishchi kuchlari, toza atrof-muhit, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kabi omillar shubhasiz xorijiy investitsiyalar oqimining yanada ko'payishiga, respublika mintaqalarida faoliyat yuritadigan korxonalar rivojiga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz hududlarida bugungi kunda to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etish va chet el investitsiyasi ishtirokidagi qo'shma korxonalarining tashkil etilishini ayrim viloyatlar misolida ko'rish mumkin. Yurtimizning aholisi ko'p bo'lgan viloyatlar va qishloq aholi punktlarida to'g'ridan to'g'ri

xususiy xorijiy investitsiyalar asosida xorijiy investitsiyali korxonalar tashkil qilingan bo'lib, farmonda keltirilgan imtiyozlardan foydalanmoqdalar. Xususan, Farmonda keltirilgan shartlar asosida 10 ta korxonada daromad (foyda) solig'i, mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, va (yoki) yagona soliq to'lovidan ozod qilingan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi «Yuniver» qo'shma korxonasi, «To'rtko'lteks» qo'shma korxonasi, Andijon viloyatida «Oltinko'l Tekstil» qo'shma korxonasi, Namangan viloyatidagi «Marmar-F» qo'shma korxonasi, Sirdaryo viloyatidagi «Lola Model» qo'shma korxonasi, Surxondaryo viloyatidagi «Surxonteks» qo'shma korxonasi hamda Xorazm viloyatidagi «Urgench yog'» qo'shma korxonasi shular jumlasidandir. Shuningdek, Farg'ona viloyatining qishloq aholi punktlarida to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, yangi qo'shma korxonalar tashkil etildi, masalan, «Molochnaya Dolina», «Unimobile» va «Aziya Paints Keramik» qo'shma korxonalari Farmonda keltirilgan imtiyozlardan foydalanmoqda.

Mamlakatimizga bu tarzda sarmoya oqib kelayotgani esa xorijiy investorlar, ya'ni chet ellik sheriklarimiz respublikamizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining to'g'riligi hamda samaradorligini tan olgani, ularning biz bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanining yana bir tasdig'idir.

2005-yilning 1-iyulidan boshlab to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lovidan ozod qilinadi.

To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

1) 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha—3 yil muddatga;

2) 3 milliondan AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha—5 yil muddatga;

3) 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda—7 yil muddatga.

Soliq imtiyozlari quyidagi shartlar asosida qo'llanilishi mumkin:

– mazkur korxonalarni ortiqcha ishchi kuchi bo'lgan mintaqalar– Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek, Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

– xorijiy investorlar tomonidan to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

– korxonaning nizom jamg'armasida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etishi lozim;

– ushbu korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni kiritish;

– xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo'yish;

– mazkur imtiyozlarni qo'llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadni korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirish.

Imtiyoz olgan korxonalar shunday imtiyoz berilgan muddat tugashidan keyin bir yil oldin faoliyatini to'xtatgan taqdirda foydani o'z mamlakatiga o'tkazish va xorijiy investorning kapitalini chet elga olib chiqib ketish faqat berilgan imtiyozlar summasini budjetga qaytargandan keyin amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonuni 3-moddasining to'rtinchi qismida xorijiy investorlar uchun belgilangan kafolatlar quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

–xorijiy investorlarga to'lanadigan, dividend tarzida olinadigan daromadlarga soliq miqdori (stavkalari) ko'payishi;

–xorijiy investorning chet elga o'tkaziladigan daromadlari (foydasi)ni o'z mamlakatiga qaytarish tartibotini murakkablashtiruvchi yoki ularning miqdorini kamaytiruvchi qo'shimcha talablar joriy etilishi, bunda davlat xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaning to'lovga qobiliyatsizligi va bankrotligi yoki kredit beruvchilarning huquqlarini himoya qilish, xorijiy inves-

tor–jismoniy shaxs sodir etgan jinoiy ish yoki ma'muriy huquqbuzarlik hollarida yoxud sud yoki hakamlikning qaroriga muvofiq daromad (foyda)ni o'z mamlakatiga qaytarishni to'xtatib turishning boshqa zarurati bo'lganda xorijiy investor mablag'larini qonun hujjatlarini kamsitmaydigan tarzda qo'llash shartlari asosida o'z mamlakatiga qaytarilishini to'xtatib turish hollari bundan mustasno;

–investitsiyalar miqdori bo'yicha investitsiyalash hajmlariga miqdoriy cheklashlar hamda boshqa qo'shimcha talablar, shu jumladan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda xorijiy investitsiyalarning minimal miqdorini ko'paytirish borasida talablar joriy etilishi;

–respublika korxonalarining nizom jamg'armalarida xorijiy investorning ulush bilan ishtirok etishi bo'yicha cheklovlar joriy etilishi;

–xorijiy investorlarning vizalarini rasmiylashtirish va uzaytirish borasidagi qo'shimcha tartibotlar, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha boshqa qo'shimcha talablar joriy etilishi.

To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Radioelektronika sanoati buyumlari hamda kompyuter va hisoblash texnikasi butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish.

2. Yengil sanoat:

–tayyor ip gazlama va jun gazlamalar ishlab chiqarish;

–tayyor tikuvchilik, trikotaj, paypoq mahsulotlari va to'qimachilik galantereyasi ishlab chiqarish;

–terini qayta ishlash; poyabzal, tayyor ko'n-galantereya buyumlari ishlab chiqarish.

3. Ipakchilik sanoati:

–shoyi gazlamalar va ipakdan tayyor buyumlar ishlab chiqarish.

4. Qurilish materiallari sanoati:

–O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 24-martdagi PF 358-sonli Farmoni 1a-ilovasida ko'rsatilgan qurilish materiallarining yangi turlarini ishlab chiqarish.

5. Parranda go'shti va tuxumni sanoat miqyosida yetishtirish.

6. Oziq-ovqat sanoati:

–mahalliy xomashyodan sanoat miqyosida qayta ishlangan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (alkogolli, alkogolsiz ichimliklar va tamaki mahsulotlari bundan mustasno).


7. Go'sht-sut sanoati:

–go'sht va sut mahsulotlarining tayyor turlari, pishloq va sariyog' ishlab chiqarish.

8. Kimyo-farmatsevtika sanoati:

–dori-darmon vositalari ishlab chiqarish;

–sintetik kir yuvish vositalari, maishiy kimyo tovarlari ishlab chiqarish.




10-chizma. 2011-yil Davlat investitsiya dasturi doirasida jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha ulushi.

Prezidentimizning mamlakat iqtisodiyoti rivoji uchun oʻta muhim boʻlgan «Toʻgʻridan toʻgʻri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ragʻbatlantirish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi PF–3594-son Farmoni ishlab chiqarish sohasiga toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiyani jalb etish, yurtimizning eksport salohiyatini yanada yuksaltirishda muhim dasturulamal boʻlib xizmat qilish bilan bir qatorda, iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida qoʻyilgan yana bir muhim qadamdir. Prezidentimizning mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi hamda 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yil Oʻzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan maʼruzasida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini taʼminlash maqsadida chet el investitsiyalarini jalb etishga strategik ustuvor vazifa sifatida qaralib, mazkur masala davlat iqtisodiy siyosatining muhim yoʻnalishi etib belgilangan.

Hukumatimiz tomonidan qulay investitsiya siyosatini olib borish maqsadida quyidagi tamoyillarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda: tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish; respublika iqtisodiyotiga toʻgʻridan toʻgʻri kapital qoʻyilmalarning keng jalb qilinishini taʼminlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yanada takomillashtirish; yurtimizga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib kiruvchi, milliy xoʻjalikning zamonaviy tuzilmasini tashkil etishga koʻmaklashuvchi chet el investorlariga nisbatan qulay sharoitlar yaratish siyosatini izchil olib borish; eng muhim ustuvor yoʻnalishlarga mablagʻlarni yoʻnaltirish. Bundan koʻrinadiki, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, zamon talablariga mos boʻlgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi toʻlqinlari zarbasiga ijtimoiy-iqtisodiy talofatlarsiz bardosh berish, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bilan bogʻliq masalalarni hal etishda kompleks yondashuvlarga urgʻu berilmoqda. Yurtboshimiz taʼkidlaganidek, «...jahon zaxira valutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investitsiyaviy faollikning susayishi bilan bogʻliq murakkab

muammolar ko‘plab davlatlar iqtisodiyotining tiklanish va o‘shir sur‘atlariga ta’sir ko‘rsatmoqda».

2011-yilda hududiy investitsiya dasturi doirasida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mutloq qiymati 402 million dollarni tashkil etgan. Hududlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning katta qismi Toshkent shahri (39,2 foiz) hissasiga to‘g‘ri kelgan va xorijiy sarmoyalar ishtirokida faoliyat olib borayotgan korxonalar soni mazkur yilda 273 taga ko‘paygan. Umumiy hisobda mamlakatimiz bo‘yicha 2011-yilda xorij sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni 372 tani tashkil etgan. Boshqa hududlarimiz bo‘yicha ma’lumotlar 11-chizma keltiriladi.



11-rasm. Hududiy investitsiya dasturi doirasida 2011-yilda jalb qilingan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi.

2011-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni jami 4575 tani, shundan faoliyat olib borayotgan korxonalar soni 4203 tani tashkil etgan. Faoliyat olib borayotgan qo‘shma korxonalarining 1600 tasi tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan korxonalar hisoblanadi.

Yurtimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiya jarayonining faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashuvini nazarda tutadi. Erkin bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan sharoit G'arb va Sharq ishbilarmonlarining mamlakatimizga barqaror qiziqishini uyg'otmoqda. Bugungi kunda bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jadal jalb etmoqda.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Xorijiy investitsiyalarning mohiyatini yoritib bering va ularning jalb qilinish sabablarini tushuntirig.
2. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Xorijiy investitsiya tushunchasiga ta'rif bering.
4. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yurituvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar qanday imtiyozlar belgilangan?
5. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda qaysi tamoyillarga asoslanildi?
6. O'zbekistonda xorijiy investorlar qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini istalgancha chet davlatga o'tkazishi mumkinmi?
7. Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etish mamlakatimizga qanday ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi?
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi «To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonining mohiyatini yoritib bering.
9. Imtiyoz olgan korxonalar shunday imtiyoz berilgan muddat tugashidan bir yil oldin faoliyatini to'xtatgan taqdirda foydani o'z mamlakatiga o'tkazishi mumkinmi?

3-bob. INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA USULLARI

3.1. INVESTITSION LOYIHA TUSHUNCHASI VA ULARNI ISHLAB CHIQISH

Investitsiya loyihasi (loyiha)–iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko‘rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘liq tadbirlar va ishlar kompleksidir.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog‘liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari quyidagicha izchillikda ishlab chiqiladi:

a) dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA)–moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish;

b) dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIH)–moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish;

d) ishchi loyiha-tanlov hujjatlari.

Investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) bo‘yicha xulosalarini ko‘rib chiqish va tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) O‘zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilish» qo‘mitasi tomonidan–DTIA (DTIH) hamda tegishli vazirliklar va loyiha tashabbuskorlari bo‘lgan idoralarning–Shaharsozlik kodeksi talablariga, normativ hujjatlar talablariga va qabul qilinayotgan qurilish qiymatining qaror topgan bozor konyunkturasi darajasiga muvofiqi yuzasidan tarmoq xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda;

b) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan–DTIA (DTIH) va «Davarxitektqurilish» qo‘mitasining quyidagilar bo‘yicha xulosasi taqdim etilgan vaqtdan e‘tiboran ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha–iqtisodiyotni barqaror, mutanosib rivojlantirishni, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni, tarmoqlararo kooperatsiyalashni amalga oshirish, investitsiya siyosatini ro'yobga chiqarish, amaldagi quvvatlardan foydalanish, shuningdek, xomashyo va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozori konyunkturasini ta'minlash nuqtayi nazaridan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha–ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlari va «boshqa tarmoqlar»ni rivojlantirish bo'yicha Hukumat qarorlariga muvofiqligini ishlab turgan quvvatlardan foydalanish va ularni joylashtirishni maqbullashtirishni hisobga olgan holda baholash yuzasidan;

d) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirliklari tomonidan–DTIA (DTIH) hamda «Davarxitektqurilish» qo'mitasi tavsiya etilayotgan marketing konsepsiyasi, tayyor mahsulotni sotish istiqbollari asosida jahon bozori konyunkturasi, shuningdek, tavsiya etilayotgan texnologiyaga muvofiq asbob-uskunalarining narxlarning cheklangan parametrlari nuqtayi nazaridan loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash borasidagi xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda ko'rib chiqiladi.

Tashabbuskor tomonidan talab qilinayotgan asbob-uskunalar (texnologik liniya), shu jumladan, yakka tartibda tayyorlanayotganlarining to'liq va mufassal tavsifini taqdim etish mumkin bo'lmagan taqdirda asbob-uskunalar narxlarining cheklangan parametrlari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirliklari tomonidan TIA(TIH)ni ekspertizadan o'tkazish jarayonida baholanishi mumkin. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirliklari hamda Iqtisodiyot vazirligi o'z vakolatlari doirasida tashabbuskorga investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH) ni ishlab chiqishda prognozlanayotgan uch–besh yillik davr uchun ichki va tashqi bozorlar marketingini ishlab chiqishni tashkil etishda ko'maklashadilar.

e) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan–DTIA (DTIH) va «Davarxitektqurilish» qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirliklarining quyidagilar bo‘yicha xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo‘yicha–loyihaning moliya-iqtisodiy samaradorligi va qoplanuvchanligini baholash, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta‘minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojni aniqlash, shuningdek, loyihani moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan variantlarini baholash yuzasidan;

DTIH bo‘yicha–loyihani amalga oshirishning mumkin bo‘lgan variantini tanlash, moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan sxemasining maqbulligi, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta‘minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan;

f) xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan–DTIA (DTIH) va «Davarxitektqurilish» qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining loyihaning iqtisodiy samaradorligi, loyiha tashabbuskorlarining kredit tarixini o‘rganish, pul oqimlari tahlili, tavakkalchiliklarni baholash va loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta‘minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda. Moliyalashtirishni budjet mablag‘lari hisobiga (boshqa manbalardan foydalanmasdan) amalga oshirish nazarda tutilayotgan obyektlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi bankning ekspert xulosasi talab qilinmaydi.

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlar, jalb etilayotgan kreditlarni to‘lash uchun mablag‘lar taqchilligini budjet mablag‘lari hisobiga uzishni nazarda tutadigan DTIA (DTIH) bo‘yicha xulosalarida nazarda tutilayotgan budjet mablag‘larining maqsadga muvofiqligi (muvofiq emasligi) hamda hajmlari, shu jumladan soliq imtiyozlari berish to‘g‘risidagi xulosalar mavjud bo‘lishi kerak.

Vakolatli ekspertiza organlari qayta tashkil etilgan taqdirda xulosa huquqiy voris bo‘lgan tashkilot tomonidan beriladi.

DTIA (DTIH)ni tasdiqlash to'g'risidagi hujjat loyihaning nomi, uning tashabbuskori, qurilishning cheklangan qiymati (shu jumladan, import texnologik va boshqa asbob-uskunalarni sotib olish xarajatlari), obyektning hisoblab chiqilgan quvvatini (ishlab chiqariladigan mahsulotning yillik hajmi va nomenklaturasini), shuningdek, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini, shu jumladan, eksport hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Loyihaning tasdiqlangan DTIA (DTIH) parametrlari, shu jumladan, xarajatlar turlari bo'yicha moliyalashtirishning cheklangan limitlari asosida loyiha tashabbuskori tomonidan, belgilangan tartibda:

a) moliyalashtirish manbalari belgilanadi va kelishiladi;

b) pudratchilarni va loyiha bo'yicha xarid qilinadigan texnologik asbob-uskunalar yetkazib beruvchilarni aniqlash uchun tanlov hujjatlari ishlab chiqiladi.

Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (XMII)—davlatlararo bitimlar asosida tashkil etilgan, O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi (hamkorlikda moliyalashtiruvchi) institutlardir.

Xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (XHMT)—O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi (hamkorlikda moliyalashtiruvchi) xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridir.

XMII va XHMT qarz mablag'lari jalb etilgan holda ro'yobga chiqariladigan loyihalarni ko'rib chiqish va tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda loyiha tashabbuskorlari «Davarxitekt-qurilish» qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga XMII(XHMT)ning baholashdan oldingi missiyalari hisobotlari asosida tayyorlangan, loyiha qiymatining dastlabki bahosini va jalb etiladigan qarz mablag'lari miqdorini o'z ichiga oluvchi loyihani amalga oshirish zarurligi to'g'risida takliflar kiritadilar.

XMII (XHMT)ning loyihani moliyalashtirish/hamkorlikda moliyalashtirish yuzasidan roziligi olingan taqdirda ularning baho-

lash komissiyalari hisobotlari asosida O'zbekiston Respublikasi bilan XMII(XHMT) o'rtasida o'zaro anglashuv to'g'risidagi memorandum belgilangan tartibda imzolanadi. Ikkinchi bosqichda loyiha tashabbuskori XMII(XHMT)ning baholash missiyasi hisoboti asosida TIANi ishlab chiqadi va ayni bir vaqtda ko'rib chiqish uchun vakolatli ekspertiza organlariga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtirishga (hamkorlikda moliyalashtirishga) tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasining DTIA(DTIH) va TIA(TIH) ushbu bo'limda bayon qilingan talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi (12-chizma).

Loyihaoldi hujjatlari–qabul qilingan parametrlarga ko'ra loyihani amalga oshirishning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, shuningdek, uning hayotiyiligini asoslab beruvchi hujjatlar yig'indisi hisoblanadi.


Loyihaoldi hujjatlariga loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisoblashi), materiallar va asbob-uskunalar yetkazib berish, qurilish-montaj ishlarini va ishlarning boshqa turlarini bajarish yuzasidan tender o'tkazish uchun tanlov hujjatlari; loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslashi yoki texnik-iqtisodiy hisoblashi, shuningdek, moliyaviy takliflar yoki kredit va investitsiya shartnomalari (pul mablag'lari jalb etilgan taqdirda) kiradi.

Loyiha hujjatlari–ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik yechimlari va texnik yechimlarni, qurilishning smeta qiymatini o'z ichiga oluvchi hujjatlar. Loyiha hujjatlari tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslash asosida ishlab chiqiladi.

Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash yoki dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIA yoki DTIH)–variantlarni ko'rib chiqish asosida loyihani oqilona joylashtirish va amalga oshirishning eng samarali texnik, tashkiliy va iqtisodiy yechimini tanlashni, umuman loyihaning cheklangan qiymatini, shu jumladan, texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, uni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan manbalari bo'yicha variantlarni hisobga olgan

holda moliyalashtirishga boʻlgan ehtiyoj hajmini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Yakuniy texnik-iqtisodiy asoslash yoki texnik-iqtisodiy hisoblash (TIA va TIH)–investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy yechimlarini belgilovchi loyihaoldi hujjatidir (3.3.1-jadval).



12-chizma. Loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish sxemasi.

**Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning
namunaviy tarkibi**

№	Mazmuni
1	Loyiha maqsadi (rezyume)
2	Loyiha buyurtmachisi
3	Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shart-sharoitlari)
4	Marketing tahlili (bozorni o'rganish, marketing konsepsiyasi)
5	Moddiy resurslar
6	Obyektning joylashgan joyi
7	Loyihalashtirish va texnologiya
8	Ishlab chiqarishni tashkil etish va qo'shimcha xarajatlar
9	Mehnat resurslari
10	Loyihani amalga oshirish sxemalari
11	Loyihani amalga oshirish variantlarini moliyaviy baholash
12	Xulosalar (loyihaning asosiy afzalliklari va kamchiliklari, qabul qilingan variantning muqobil variantlardan afzalliklari, noaniqlik tavakkalchiliklari va jihatlari, loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash)
13	Milliy va xorijiy valutada (xarajatlar alohida aks ettirilgan holda) moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar aks ettirilishi kerak, ularning sxema ko'rinishlari mavjud bo'lishi kerak
14	Tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo'lishi kerak: –yuridik hujjatlar; –kontrakt hujjatlari; –smeta hujjatlari va moliyaviy hujjatlar; –ekspert hujjatlari va boshqa hujjatlar; –tayyor mahsulotni sotish va xomashyo, materiallar xarid qilish; –marketing tadqiqotlari bo'yicha hujjatlar

Investitsiya loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asoslanishi quyidagi vakolatli ekspertiza organlarida belgilangan tartibda ekspertizadan o'tadi (3.1.2-jadval).

Vakolatli ekspertiza organlari	Xulosa natijasi (tavsiya etildi/ rad etildi)
Iqtisodiyot vazirligi	
Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	
«Davarxitektqurilish» qo'mitasi	
Moliya vazirligi	
Vakolatli bank (banklar)	

3.2. INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarida investitsiyalarni moliyalashtirishning o'ziga xos manbalari shakllantirilgan bo'lib, bunday manbalar korxonalarining o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyillariga asoslanadi.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va ishtirokchilari quyidagi jadvalda keltirilgan (3.2.1-jadval).

Investitsiya loyahasini moliyalashtirish manbalari va ishtirokchilari tasnifi

Guruhlar	Kichik guruhlar	Investitsiya faoliyati ishtirokchilari tashkiliy shakllari
Budjet va nobudjet fondlar	Davlat budjeti	Hukumat Iqtisodiyot vazirligi Moliya vazirligi
	Mahalliy budjetlar	Mahalliy vakolatli organlar
	Nobudjet fondlar	Pensiya fondi Bandlik fondi Investitsiya fondi va boshqa fondlar
Kredit tizimi	Banklar Kredit muassasalari	Markaziy bank Davlat g'aznachiligi Investitsion banklar Kredit uyushmalari
Sug'urta tizimi	Sug'urta fondlari va tashkilotlari	Davlat sug'urta kompaniyalari Nodavlat sug'urta kompaniyalari

Moliyalashtirishning jamoaviy shakllari	Investitsion tashkilotlar Investitsion banklar Sug'urta tashkilotlari	Investitsiya kompaniyalari va fondlari Nodavlat pensiya fondlari Sug'urta kompaniyalari Payli investitsion fondlar
Xorijiy investorlar	Chet el davlatlari, hukumatlari, xalqaro moliyaviy institutlar, tijorat banklari, institutsional investorlar, investitsion banklar	Jahon banki Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Xalqaro moliyaviy korporatsiya
Korxonalar, jismoniy shaxslar		Mulkchilikning turli shakllaridagi har qanday korxonalar

Hozirgi kunda Respublikamizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjuddir:

- korxonalar va jismoniy shaxslar jamg'armalari;
- bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish;
- davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobiga moliyalashtirish.
- xorijiy investitsiyalar.

So'nggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, budjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlari ahamiyati keskin o'zgardi.

Ayni paytda investitsiyalar moliyaviy manbalari tarkibiy tuzilishida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi (3.2.2-jadval).

3.2.2-jadval

2005–2011-yillarda investitsiyalar tarkibining o'zgarishi, foizda

Moliyalashtirish manbalari	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.
Davlat budjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,1	7,4	5,1
Chet el investitsiyalari	19,2	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,3
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	49,0
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6	16,5	20,6

Ma'naba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, investitsiyalar moliyaviy manbalari tarkibida davlat budjetining ulushi 2008-yildagi 9,0 foizdan 2009-yilda 8,1 foizga qadar, korxonalar va aholi mablag'lari ulushi tegishli ravishda 53,9 foizdan 46,9 foizga qadar pasaygan. Chet el investitsiyalarining ulushi esa, aksincha, 25,8 foizdan 32,4 foizga qadar ko'tarilgan.

O'zbekistonda ham investitsiya loyihalarini tuzish va moliyalashtirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Ularning negizida ikkita asosiy omil yotadi:

- iqtisodiy barqarorlik;
- inflyatsiya jarayonlarini tartibga solish va milliy valuta–so'mning to'lov qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya loyihalarini tuzish va ularni moliyalashtirish bo'yicha quyidagi omillar mavjud:

- investitsiya loyihalarini bilan shug'ullanuvchi shaxslarni rag'batlantirish;
- sanoatning ustuvor sohalari, yoqilg'i, energetika majmualari bo'yicha investitsiya loyihalarini tuzishni jadallashtirish;
- iqtisodiyotda ilm-fanga talab kuchli tarmoqlarda ishlab turgan quvvatlarni yangilash va yangilarini barpo etish bo'yicha intellektual investitsion loyihalar amalga kiritilishi.

Har doimgidek, korxonalar va aholi mablag'larining ulushi boshqa manbalarga nisbatan yuqori bo'lib, markazlashmagan investitsiyalarning 56,1 foizini tashkil etmoqda. Ma'lumki, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibining shakllanishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlari bilan bog'liq. Ishlab chiqaruvchilarga soliq yukini pasaytirishga qaratilgan soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish, to'lov intizomini mustahkamlash, xususiy lashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar korxonalarining o'z mablag'lari ko'payishiga imkoniyat yaratdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha markazlashmagan investitsiyalar

umumiy tarkibida ularning ulushi 2000-yilda 27,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda 38,1 foiz bo'lishi rejalashtirilgan.

3.2.3-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2012-yildagi investitsiya dasturida ko'zda tutilgan kapital qo'yimlarning asosiy parametrlari

№	Moliyalashtirish manbalarining nomlanishi	2012-yil prognosi, million so'm
	Jami kapital qo'yimlar, shundan:	23 679 701
1	Markazlashgan investitsiyalar:	5 740 892
1.1	Byudjet mablag'lari	1 059 354,4
1.2	Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi	115 560
1.3	Byudjetdan tashqari fonlardan, jumladan: Respublika yo'l jamg'armasi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi	1 431 777 680 796 158 147 545 836 46 997,6
1.4	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (so'm ekvivalentida)	1 432 400
1.5	Davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'm ekvivalentida), shundan: <i>Qishloq joylarda uy-joylarni qurish (so'm ekvivalentida)</i>	1 701 901 301 564
2	Markazlashmagan investitsiyalar:	17 938 809
2.1	Korxonalar mablag'lari	6 835 725
2.2	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, shu jumladan: <i>ATB «Qishloq qurilish banki»ning qishloq joylarda uy-joylarni qurish uchun imtiyozli kreditlari</i>	3 524 824 222 070
2.3	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'm ekvivalentida)	4 340 656
2.4	Aholi mablag'lari	3 237 604

Mamlakatimizda investitsiya muhitining barqarorligi va investitsion jozibadorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilgani ham xorijiy

investitsiyalarning kirib kelishi uchun zamin bo'lmoqda. 2012-yilda so'm qiymatida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ajratilishi 4 340 656 million so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Investitsion jozibadorlik obyekt sifatida muayyan bir miqyosda, ya'ni bironta loyiha, korxonalar, mintaqalar, tarmoqlar hamda mamlakat darajasida ko'rilishi mumkin. E'tiborli jihati shundaki, mazkur tizimda korxonalar asosiy tayanch nuqta hisoblanib, har bir investitsiya loyihasi muayyan bir korxonalar miqyosida amalga oshiriladi, ushbu korxonalar esa iqtisodiy faoliyat turidan kelib chiqib, muayyan tarmoqlarga (sohaga) tegishli bo'ladi. Shuningdek, u ma'lum bir mintaqada joylashgani sababli mintaqaviy investitsiya jozibadorlikni aks ettirsa, barcha mintaqalar birlashtirilganda mazkur ko'rsatkich mamlakat darajasida aks ettiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari muhim investitsiya instituti hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va modernizatsiya qilish, korxonalarda ishlab chiqarishni texnologiyalar bilan qayta jihozlash maqsadida qo'yiladigan investitsiyalarni mablag'lar bilan ta'minlashni banklar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, 2012-yilgi Investitsiya dasturida 3524824 million so'm mablag' aynan tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari sifatida yo'naltirilishi muhim ahamiyatga egadir. Ushbu raqam umumiy markazlashmagan investitsiyalarning 19,6 foizini tashkil etmoqda.

Iqtisodiyotning yetakchi, avvalambor bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash bo'yicha loyihalarni va, shuningdek, samarali tarkibiy o'zgarishlar va investitsiya siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2006-yilda tashkil etilgan nizom fondi bugungi kunda qariyb 7 milliard dollardan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining roli tobora ortib bormoqda, ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan 2012-yilda 1 432 400 so'm sarflanishi rejalashtirilgan.

Jamg'armaning eng asosiy vazifalaridan biri – iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari rivoji, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infra-

tuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

Hozirgi paytda jamg'armaning investitsiya portfelida umumiy qiymati 18,5 milliard dollardan ortiq 55 investitsiya loyihasi mavjud. Shuning 4,3 milliard dollari jamg'arma mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladi.

Jamg'arma faoliyat yuritayotgan davr mobaynida umumiy qiymati 1,7 milliard dollarni tashkil etadigan 16 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hal etadigan yana bir muhim vazifa xorijiy investorlar, moliya institutlari va sheriklarni investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish va amalga oshirish maqsadida mamlakatimizga keng jalb etish hisoblanadi. Jamg'armaning qo'shma loyihalarda ishtirok etishi Osiy taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Islom taraqqiyot banki, Xitoy eksport-import banki, Xitoy davlat taraqqiyot banki, Koreya taraqqiyot banki va boshqa xorijiy moliya institutlari, bank va kompaniyalarning mablag'lari hisobidan 3,2 milliard dollardan ziyod chet el investitsiyasi va kreditlarini jalb etish imkonini berdi.

3.3. INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI JALB QILISHDA XALQARO KAPITALLAR MIGRATSIYASINING AHAMIYATI

Tobora kengayib borayotgan kapitallar bozorining baynalmilalashuv jarayoni bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar o'rtasidagi kapital oqimi hajmining ortib borishi bilan ajralib turadi. Xalqaro kapitallar oqimi ishlab chiqarish omillaridan birining harakatidir. Bunda alohida tovar va xizmatlar boshqa mamlakatlardagi ishlab chiqarishning iqtisodiy afzalligi tufayli o'sha tomonga oqib o'tadi. Bu haqda bevosita va portfel investitsiyalar hajmining umumiy o'sishi, qisqa va uzoq muddatli kreditlar hajmining ortishi, yevrovaluta bozorlaridagi operatsiyalar miqyosining oshib borishi va boshqalar darak beradi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yetakchi o'rinlardan birini egallar ekan, u o'z navbatida jahon iqtisodiyoti rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir, avvalambor, kapitallar migratsiyasi jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi. Kapital ishlab chiqarishning qulay investitsiya muhiti mavjud sohalarni izlab, chegaralarni kesib o'tadi. Xalqaro investitsiyalar aksariyat mamlakatlar uchun ishlab chiqarishdagi kapital yetishmasligi muammosini hal etish, investitsiya salohiyatini oshirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlatish imkonini beradi. Kapitalning chetga chiqishi xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatlararo kapitallar harakati ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va hamkorlikni mustahkamlaydi, ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvini chuqurlashtiradi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi jahon savdosi rivojini rag'batlantirar ekan, u mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshiradi, jumladan, xalqaro korporatsiyalar filiallari o'rtasidagi oraliq mahsulotlar ayirboshlanishini tezlashtiradi. Moliyaviy bozorlarning o'zaro integratsiyalashuvi va baynalminallashuvi sharoitida kapitalning xalqaro takroriy ishlab chiqarilishi ta'minlanadi hamda xalqaro iqtisodiy aloqalar mexanizmining samaradorligi oshadi. Boshqa tomondan esa nazorat qilinmaydigan kapitallar oqimi mamlakat to'lov balansi muvozanati buzilishiga va valuta kursining sezilarli darajada tebranishiga olib keladi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi bilan bog'liq oqibatlar mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishga bevosita ta'sir o'tkazadi. Tabiiyki, ulardan kutiladigan salbiy va ijobiy oqibatlar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, shuningdek, o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun turlichadir. Ammo har qanday sharoitda ham salbiy oqibatlarni chetlab o'tgan holda faqatgina ijobiy omillardan foydalanish mumkin emas. Xorijiy kapitalni jalb qilish bilan bog'liq o'ta murakkab va ziddiyatli jarayon bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatida bu borada ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish lozim.

Hozirgi kunda kapitallarni jalb qilish va chetga chiqarish borasidagi salbiy oqibatlarga qaramay, kapitalni chetga olib chiqish tendensiyasi tobora kuchaymoqda. Chetga kapital olib chiqishni faollashtiruvchi omillardan biri milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'sib borayotgan o'zaro bog'liqlik hisoblanadi. Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi kapitallar xalqaro migratsiyasiga katta ta'sir o'tkazadi va uning harakatini tezlashtiradi. Kapital eksporti, ayniqsa, bevosita investitsiyalar shaklida chetga olib chiqilishi ishlab chiqarishning xalqaro tus olishiga va xalqaro mahsulot deb atalmish mahsulotlarning yaratilishida asosiy omil hisoblanadi. Xalqaro kapitallar migratsiyasi jahon xo'jaligining rivojlanishida rag'batlantiruvchi omil sifatida yuzaga chiqishi bilan birga xorijiy kapitalni jalb qiluvchi va eksport qiluvchi mamlakatlar uchun turli oqibatlarga olib keluvchi ta'sir o'tkazadi.

Kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar uchun kapitallar migratsiyasi quyidagicha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- chetga chiqarilayotgan kapital o'rnini qoplovchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilmaslik chetga kapital chiqaruvchi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin;

- kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar uchun kapitalni chetga chiqarish ularda bandlik darajasining pasayishiga olib keladi;

- chetga kapital chiqarish mamlakat to'lov balansiga salbiy ta'sir etadi.

Kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlar uchun esa quyidagi ijobiy tomonlar xos:

- boshqariladigan kapital importi mamlakat iqtisodiy o'sishiga yordam beradi;

- jalb qilingan kapital qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadi;

- xorijiy kapital yangi texnologiyalarni olib keladi, samarali menejment esa mamlakatda ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT)ni tezlashtiradi;

- kapitalning kirib kelishi retsiyent mamlakat to'lov balansining yaxshilanishiga olib keladi.

O‘z navbatida kapitalni jalb qilishning salbiy oqibatlari ham mavjud:

– xorijiy kapital milliy kapitalning o‘rnini egallab, uni foyda normasi yuqori tarmoqlardan siqib chiqaradi, natijada ma’lum sharoitlar ta’sirida mamlakat iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishi va uning iqtisodiy holati xavf ostida qolishi mumkin;

– kapital importi ko‘pincha retsipiyent mamlakat bozorlarida o‘z hayotiy siklini o‘tab bo‘lgan tovarlarni o‘tkazish bilan bog‘liq, shuningdek, sifatsizligi aniqlanganligi bois ishlab chiqarishdan olib tashlangan tovarlar bilan bog‘liq bo‘ladi;

– ssuda kapitali importi mamlakat tashqi qarzining ko‘payishiga olib keladi;

– moliyaviy inqirozlar natijasida va fond bozorlaridan kapitalning oqib ketishi mamlakat valutasining barqarorligiga va umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatga jiddiy zarar yetkazadi. Misol uchun 1997-yilda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan moliyaviy inqiroz va uning jahon iqtisodiyotiga ta’sirini keltirish mumkin.

TMKlarning ko‘plab filiallari orqali kapital qo‘yish ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyalashuviga olib keladi. Turli mamlakatlarning mustaqil yuridik kompaniyalari bir xalqaro korporatsiya doirasida tarmoqli, texnologik, detalli ixtisoslashuv orqali yaqin aloqada bo‘ladi. Kapital eksporti esa bu aloqalarni mustahkamlaydi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish, bandlilikni oshirish uchun salmoqli hajmdagi xorijiy kapitalni jalb etish bilan bog‘liq iqtisodiy siyosatlari ham kapitallar migratsiyasini rag‘batlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa investitsiya muhitini erkinlashtirish orqali xorijiy kapitalni jalb etish va bu orqali iqtisodiy rivojlanishga turtki berishga harakat qiladi. Kapitallarning xalqaro harakatini rag‘batlantiruvchi omillardan yana biri xalqaro moliyaviy tashkilotlar faoliyati bo‘lib, ular kapitallar oqimini tartibga solib turadi.

Hozirgi sharoitda O‘zbekiston kapitalni import qiluvchi mamlakat sifatida jahon maydoniga chiqmoqda. Bu borada bir qator milliy manfaatlar hisobga olinadi. Kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hozircha yetishmayotgan milliy resurslarni to‘ldirishi, zamonaviy texnologiyalar, uskunalar, «nou xau»ni olib kirishi, xorijiy mutaxassislar, ekspert va maslahatchilarni jalb qilish tufayli mahsulot sifati va ishchi kuchi malakasini oshirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, qo‘shimcha ish joylari yaratadi, ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy kooperatsiya tufayli mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga yordam beradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR


1. Investitsiya loyihasini ishlab chiqishdan asosiy maqsad nima?
2. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog‘liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari qanday izchillikda ishlab chiqiladi?
3. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning qanday manbalari mavjud?
4. Xalqaro kapitallar migratsiyasi va oqimi haqida tushuncha bering.
5. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini jalb qilishda xalqaro kapitallar migratsiyasining ahamiyati qanday?

4-bob. INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH ASOSLARI

4.1. INVESTITSIYA LOYIHALARINING IQTISODIY SAMARASINI ANIQLASH

Iqtisodiyotning investitsiyaga boʻlgan talabi, investitsiyaga yoʻnaltiriladigan mablagʻlarning yetishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Chunki qoʻyilgan kapital mablagʻidan samarali foydalanish natijasida koʻproq foyda olish mumkin.

Xalqaro kapital harakatining iqtisodiy samarasini koʻrsatish uchun kapital qoʻyilmalardan olinadigan foyda turli mamlakatlarda turlicha degan tasavvurdan kelib chiqish zarur. Jahonda ikki mamlakat mavjud deb hisoblaylik. *I* mamlakat AK miqdorda, *II* mamlakat AK' miqdorda kapitalga ega. Ikkala mamlakatning umumiy kapitali KK' ga teng. S_1 va S_2 toʻgʻri chiziqlar *I* va *II* mamlakatlarda qoʻyilgan kapital hajmiga bogʻliq ravishda ishlab



13-chizma.

chiqarish hajmining o'sishini aks ettiradi. Agar xalqaro kapital harakati mavjud emas deb faraz qilinsa, *I* va *II* mamlakatlar o'z kapital mablag'larining mamlakat ichkarisida sarflab, daromad oladi (*I* mamlakat *KS* hajmida, *II* mamlakat *K'D* hajmda) (13-chizma).

I mamlakatning o'z kapitali yordamida ishlab chiqarish hajmi $a+b+c+s+e+f$ segmentlarining yig'indisiga teng bo'lib, bulardan kapital egalarining foydasi $a+f$ ga teng bo'ladi, qolgani esa yer va mehnat kabi boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining foydasidir. *II* mamlakatning ishlab chiqarish hajmi $i+j+k$ ga teng bo'lib, bundan kapital egalarining foydasi $j-k$, qolgani esa boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining foydasidir. $KC < K'D$ ekanligi *I* mamlakatda kapital qo'yishdan olinadigan foyda *II* mamlakatnikidan kam ekanligini anglatadi. Agar ikkala mamlakat kapitalning xalqaro harakatini taqiqlovchi cheklovlarni olib tashlasa, *I* mamlakatdagi kapitalning bir qismi (*AB*) *II* mamlakatga ko'chadi, chunki investitsiyalardan keladigan foyda ikkala mamlakatda turlichadir. Shundan so'ng investitsiyalardan keladigan foyda *BR* darajasida balanslashadi. Buning natijasida *I* mamlakatning o'z kapitali yordamidagi ishlab chiqarish hajmi $a+b+c+d+e+f+h$ segmentlarning yig'indisiga teng bo'lib, $a+b+c+d$ mahsulotlar ichki investitsiyalar hisobiga, $h+e+f$ - *II* mamlakatga qilingan xorijiy investitsiyalar hisobga olingan. Kapitalning bir qismini *II* mamlakatga investitsiyalash hisobiga yalpi ishlab chiqarish (yalpi kapital hajmi o'zgarmagan holda) ma'lum bir hajmga (*h* segment hajmiga) o'sadi. Bunda kapitaldan olingan daromad ham *KS* dan *KE* darajagacha oshadi. Kapital egalarining daromadi $a+b+d+e+f+h$ hajmgacha o'sib, boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi *c* segment hajmida bo'ladi, xolos.

Boshqa tomondan, kapitalning *I* mamlakatdan *II* mamlakatga oqib kelishi unda kapitaldan olinadigan foydan *K'D* hajmdan *K'F* hajmgacha qisqarishini keltirib chiqaradi. Shu vaqtning o'zida *I* mamlakatdan jalb qilingan va o'zining ichki kapitalini ishlatish natijasida *II* mamlakatda ishlab chiqarish hajmi $i+j+k$ dan

$i+j+k+g+h+e+f$ gacha kengayadi. Albatta, $h+e+f$ segmentlar xorijiy kapital hisobiga ishlab chiqarilgan bo'lib, pirovardida *I* mamlakat investorlariga foyda tariqasida berilish zarur. Shunday qilib, *II* mamlakatda ichki ishlab chiqarishning sof o'sishi g segmentga teng bo'ladi. *II* mamlakatda kapital qo'yilishidan olinadigan foyda pasayishi natijasida kapital egalarining daromadi $j+k$ hajmdan k hajmgacha qisqaradi, boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi esa i dan $i+g+j$ hajmgacha o'sadi.

Jahon xo'jaligi miqyosida qaralganda kapitalning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga oqib o'tishi natijasida yalpi ishlab chiqarish hajmi $[a+b+c+d+e+f]+[k+j+i]$ dan $[a+b+c+d]+[e+f+g+h+i+j+k]$ hajmgacha, ya'ni $g+h$ hajmgacha o'sadi. Bunda h *I* mamlakatning kapitalini *II* mamlakatga investitsiyalab, samaraliroq foydalanish natijasida yuzaga keladi, g esa *II* mamlakatga tegishli bo'lib, shu mamlakatda investitsiyalanadigan kapital hajmining o'sganligi natijasida vujudga keladi.

Shunday qilib, kapitalning xalqaro harakati (tovarlarning xalqaro harakati kabi) ishlab chiqarish omillarini samaraliroq qayta taqsimlash va ulardan foydalanish evaziga yalpi umumjahon ishlab chiqarishining o'sishiga olib keladi. Bunda, kapitalni eksport qiluvchi mamlakatdagi kapital egalarining daromadi o'sadi va boshqa omillar (ayniqsa, mehnat va yer egalari daromadi) esa qisqaradi. Kapitalni import qiluvchi mamlakatdagi kapital egalarining daromadlari qisqaradi va ishlab chiqarishning boshqa omillari egalarining daromadlari esa o'sadi.

Mamlakatlarning xalqaro kapital migratsiyasi (XKM) jarayonlarida qatnashishi bir qator ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Bularga kapital eksporti (importi) hajmi, kapital eksporti-importi savdosi, mamlakatdagi xorijiy kapitalli korxonalar soni, ularda band bo'lganlar soni va boshqalar kiradi. Savdodan kelib chiqib, jahon xo'jaligi mamlakatlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

– kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar (Yaponiya, Shveytsariya);

– kapitalni import qiluvchi mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya);

– taxminiy muvozanatdagi mamlakatlar (Germaniya, Fransiya).

Boshqa guruh ko'rsatkichlar esa kapitalni eksport-import qilish darajasiga bog'liq holda mamlakatlarning XKM dagi taqsimlanishini aks ettiradi. Ular quyidagilardir:

1) Kapital importi koeffitsiyenti (K_{ik}) – xorijiy kapital (XK)ning mamlakat YaIMdagi ulushini aks ettiradi:

$$K_{ik} = \frac{XK}{YaIM} \cdot 100\% \quad (4.1.1)$$

Yevropa mamlakatlari ichida eng yuqori ko'rsatkich Belgiya va Lyuksemburgga tegishli.

2) Kapital eksporti koeffitsiyenti (K_{EK}) – eksport qilinadigan kapitalni (EK) mamlakat YAIMga nisbatini aks ettiradi:

$$K_{EK} = \frac{EK}{YaIM} \cdot 100\%. \quad (4.1.2)$$

Yevropa mamlakatlari ichida maksimal ko'rsatkich Niderlandiyaga tegishli.

3) Mamlakat iqtisodiyotiga sarflanayotgan kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida xorijiy kapitalning ulushini aks ettiruvchi ko'rsatkich:

$$K_{EK} = \frac{XK}{D(K)} \cdot 100\%. \quad (4.1.3)$$

bu yerda: K_{EK} – ehtiyoj koeffitsiyenti, XK – xorijiy kapital, $D(K)$ – mamlakatda kapitalga bo'lgan talab.

AQShning kapitalga bo'lgan ichki ehtiyojlarining 33%i xorijiy kapital hisobiga qondiriladi.

4) Boshqa nisbiy ko'rsatkichlar – milliy ishlab chiqarishda xorijiy yoki aralash kompaniyalarning ulushi, o'tgan davrga nisbatan kapital eksporti (importi)ning o'sish sur'atlari, mamlakat aholisining har biriga to'g'ri keladigan xorijiy investitsiyalar summasi va boshqalar.

4.2. INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI

Iqtisodiy samaradorlik deganda investitsiya uchun qo'yilgan kapitaldan foydalanilganlik uchun olingan foyda, daromad tushunilsa, ijtimoiy-iqtisodiy samara esa investitsiyani ishlatishdan olingan foydadan tashqari, kishilarning hayoti yaxshilanishi, tabiatni saqlash, ilmiy texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi ham tushuniladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda «iqtisodiy samara» va «iqtisodiy samaradorlik» atamalariga e'tibor berish lozim.

Iqtisodiy samara qo'yilgan kapitalni investitsiyalash orqali olingan natija bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik esa olingan iqtisodiy samara yoki investitsiya natijasida olingan foyda bilan investitsiya miqdori o'rtasidagi munosabatni bildiradi.

Iqtisodiy samara, qo'yilma hisobiga olingan daromaddan qo'yilgan kapital summasi ayirilib topiladi va quyidagicha hisoblanadi:

$$E = D - K, \quad (4.2.1)$$

bu yerda: E —iqtisodiy samara; D —qo'yilgan kapitaldan daromad; K —qo'yilgan kapital summasi.

Iqtisodiy samaradorlik qo'yilgan investitsiyadan olingan foyda, daromadni qo'yilgan kapital summasiga bo'lish orqali topiladi:

$$E_1 = \frac{If}{K}, \quad (4.2.2)$$

bu yerda: E_1 —iqtisodiy samaradorlik; If —investitsiyadan foyda; K —qo'yilgan kapital.

Mamlakat iqtisodiyoti miqyosida investitsiyaning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi mamalaktida yaratilgan yalpi milliy mahsulot miqdorini mamlakat miqyosida kiritilgan investitsiya miqdoriga bo'lish orqali topiladi.

$$E = \frac{YaMM}{K}, \quad (4.2.3)$$

bu yerda: E —iqtisodiy samaradorlik; $YaMM$ —yalpi milliy daromad; K — $YaMM$ ni yaratish uchun qo'yilgan kapitalning summasi.

Iqtisodiy samara vaqt funksiyasi hisoblanib, boshlanishida u salbiy ko'rinishda bo'ladi, chunki qo'yilgan kapitaldan hali daromad olinmagan bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan kapital qaytimi bo'lgan sari daromad orta boradi va bu ijobiy natija beradi, ya'ni qo'yilgan kapitaldan olingan daromad vaqt o'tgan sari qo'yilgan kapital miqdoridan orta boradi.

Qo'yilgan kapitaldan olingan daromad vaqt o'tgan sari qo'yilgan kapitalga tenglashadi. Bu davr investitsiyani qoplash davri deb ataladi. Bu ko'rsatkich iqtisodning ishlab chiqarish sohasiga qo'yilgan kapital qo'yilmaning samaradorligini ko'rsatadi. Investitsiyani qoplash davri kichik biznes sohasida 2–3 yil, uzoq muddatli qo'yilmalar esa 10–15 yilgacha davom etadi. Kapital qo'yilmalarni qoplash davrining normativlari degan tushuncha mavjud bo'lib, bu iqtisodiyot tarmoqlarida qo'yilgan kapital qo'yilmalarni qoplash davrining o'rtacha miqdori deb tushuniladi. O'rta hisobda investitsiyani qoplash davri qilib iqtisodiyotda 6–8 yil deb qabul qilingan.

Investitsiyaning milliy daromaddagi hissasi investitsiya normasi deb ataladi. Bu quyidagi formula asosida hisoblanadi;

$$YaIN = \frac{YaIS}{YaMM} \cdot 100\%, \quad (4.2.4)$$

bu yerda: $YaIN$ –yalpi investitsiya normasi; $YaIS$ –yalpi investitsiya summasi; $YaMM$ –yalpi milliy daromad.

Investitsiyaviy loyihaning (IL) tijorat (moliyaviy) samaradorligi–bu, ushbu IL-ni yuzaga keltiruvchi loyihani, uning ishtirokchilari maqsadlari va manfaatlariga muvofiqligini aks ettiruvchi kategoriyadir.

Samaradorlik quyidagicha bo'lishi mumkin:

- loyihaning umumiy samaradorligi;
- loyihadagi ishtirok samaradorligi.

Loyihaning umumiy samaradorligi ishtirokchilar uchun ularning manfaatdorligini aniqlash va moliyalashtirish manbalarini izlash maqsadida baholanadi. Samaradorlikning ushbu turi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi;
- loyihaning tijorat samaradorligi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari IL amalga oshirishining ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini hisobga oladi.

Tijorat samaradorligi ko'rsatkichlari esa, ushbu loyihani amalga oshirayotgan ishtirokchi uchun moliyaviy natijalarni hisobga oladi. Bunda ushbu ishtirokchi loyihani amalga oshirish uchun lozim bo'lgan barcha xarajatlarni ko'tarishi va loyiha natijalaridan to'la foydalanishi ko'zda tutiladi.

Umuman olganda, loyiha samaradorligi ko'rsatkichlari texnik, texnologik va tashkiliy loyiha qarorlarini iqtisodiy nuqtayi nazardan tavsiflaydi.

Loyihadagi ishtirok samaradorligi ILning amalga oshirishi va barcha ishtirokchilar manfaatdorligini aniqlash maqsadida aniqlanadi.

Loyihadagi ishtirok samaradorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxonaning loyihadagi ishtiroki samaradorligi (ishtirokchi-korxonalar uchun IL samaradorligi);

- korxonaga aksiyalariga investitsiyalar qo'yish samaradorligi (ishtirokchi-aksiyadorlik korxonalar aksiyadorlari uchun IL samaradorligi);

- iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari, moliya-sanoat guruhlari, uyushmalar va xolding tuzilmalari uchun tarmoq samaradorligi;

- ILning budjet samaradorligi (barcha darajadagi budjetlar xarajat va daromadlari nuqtayi nazaridan, loyihada davlat ishtiroki samaradorligi).

IL samaradorligini baholash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda umuman loyihaning samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ushbu bosqichning maqsadi loyihaviy qarorlarni umumlashtirilgan tarzda iqtisodiy baholash va investor izlash uchun zarur bo'lgan qulay sharoitlarni yaratishdir. Lokal loyihalarga nisbatan faqatgina ularning tijorat samaradorligi baholanadi hamda vaziyatga qarab baholashning ikkinchi bosqichiga o'tish tavsiya etiladi.

Baholashning ikkinchi bosqichi, moliyalashtirish sxemasi ishlab chiqilgandan keyingina amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda ishti-

rokhilar tarkibi, ularning har birining moliyaviy ishtiroki va samardorligi aniqlanadi.

Sof diskontlangan daromad (SDD) va daromadlilikning ichki me'yorini (DIM)ni hisoblash uchun investitsiyalardan olinadigan daromadni bilish lozim. Bu daromadni topish uchun esa mahsulot (xizmat) narxini yoki boshqacha qilib aytganda investitsiyaviy qo'yilmalar natijalarining qiymat bahosini bilish lozim. Bundan kelib chiqqan holda, natijaning qiymat bahosi bo'lmagan taqdirda, SDD va DIM ko'rsatkichlari yordamida loyiha ning mutlaq samaradorligini aniqlab bo'lmaydi degan xulosaga kelish mumkin. Ammo, masala bunday qo'yilganda ham, SDD va DIM ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin. Gap shundaki, bunda ikki xil variant ko'rib chiqiladi: birinchi (loyiha) va ikkinchi (nollik muqobil) variantlar. Bunday yondashuvda daromad obyektini ekspluatatsiya qilish xarajatlarini tejash bilan almashtiriladi, nollik variant bo'yicha investitsiyaviy qo'yilmalar esa, nolga tenglashtiriladi. Nollik variant bo'yicha qo'yilmalar haqiqatan ham nolga teng bo'lgandagina bunday yondashuv to'g'ri bo'ladi. Nollik variantdagi masala yechimini ko'rib chiqaylik. Taqqoslama samaradorlik ko'rsatkichidan foydalanamiz:

$$C_T = \frac{T_1 \cdot T_2}{K_1 \cdot K_2}, \quad (4.2.5)$$

bu yerda: T_1 va T_2 —taqqoslanayotgan variantlar bo'yicha yillik mahsulot tannarxi. $K_1=0$ ekan, unda taqqoslama samaradorlik ko'rsatkichi E_s mutlaq samaradorlik ko'rsatkichiga aylanadi va uni rentabellik (R) orqali belgilash mumkin, ya'ni:

$$R = \frac{X_1 + T_2}{K_2}. \quad (4.2.6)$$

Haqiqatan ham, $K_1=0$ bo'lsa, birinchi variant bo'yicha amortizatsiya ham nolga teng, T_1 esa X_1 ga teng bo'ladi ($T_1=X_1$) (X —xarajatlar).

Shunday qilib, $(X_1 - T_2)$ yillik tejashga olib kelayotgan K (K_2 , $K_1=0$ da) kapital qo'yilmalari amalga oshirilmoqda. Kapital qo'yilmalar samaralimi yoki yo'qmi degan savolga quyidagi ko'rsatkich yordamida javob berish mumkin:

$$X_1 - T_2 > CK \text{ yoki } X_1 - T_2 - CK > 0. \quad (4.2.7)$$

Haqiqatan ham, agar rentabellik kattaligi S bilan taqqoslansa, unda K_2 samaradorligining sharti bo'lib $R = \frac{X_1 + T_2}{K_2} > E$ xizmat qiladi.

Agar obyektning xizmat muddati (T) dagi joriy xarajatlar tejimini hisobga olsak, unda loyiha samaradorligi quyidagi tengsizlik bilan aniqlanadi:

$$\frac{(1+C)^T - 1}{(1+C)^T \cdot C} \cdot (X_1 - X_2) - K > 0.$$

Obyekt xizmat ko'rsatish muddatidagi SDD:

$$CDD^T = \frac{(1+C)^T - 1}{(1+C)^T \cdot C} \cdot (X_1 - X_2) - K.$$

Kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlash uchun o'rtacha yillik sof daromad (annuitet)dan ham foydalanish mumkin. Annuitet yillik tejam kattaligidan kichik bo'lmasa, kapital qo'yilmalar varianti samarali hisoblanadi:

$$(X_1 - X_2) - K > K \frac{C(1+C)^T}{(1+E)^T - 1}. \quad (4.2.8)$$

Loyiha samaradorligi darajasini esa, DIM ko'rsatkichi yordamida aniqlash mumkin. $SDD^T=0$ dagi daromadlilik – bu DIMdir.

Pul oqimi unsurlarining har xil vaqtda paydo bo'lishi munosabati bilan ularni o'zaro taqqoslash muammosi tug'iladi. Chunki, har xil vaqtda olingan bir xil pul summalarini teng qiymatli deb bo'lmaydi. Biznesning «oltin» qoidasiga muvofiq: bugungi pullar ertaga olinadigan pullardan qimmatliroqdir.

Moliyaviy tahlillarda vaqt omilini hisobga olishga bo'lgan turli yondashuvlar qo'llaniladi. Eng tarqalgan uslub bu kelajakdagi ne'matlardan hozirgisi afzalliroq ekanligining nisbiy darajasini aks ettiruvchi va taqqoslovchi funksiya uslubidir. Amaliyotda, ko'p hollarda, ushbu maqsad bilan murakkab foizlar ko'rinishidagi funksiya qo'llaniladi. Bunday yondashuvda pullarning joriy va kelajakdagi qiymatlari murakkab foiz formulasi bilan o'zaro bog'langan:

$$S_n = S_0 - (1+r)^n,$$

bu yerda: S_n – pul mablag‘larining joriy summasi; S_0 – n ta bir xil vaqt oraliqlaridan keyingi pul mablag‘lari summasi (pullarning qo‘shilgan summasi); r – bir vaqt oralig‘idagi daromadlilik stavkasi (foiz stavkasi).

Buning ma‘nosi shundaki, agar r yillik daromadlilik stavkasiga ega bo‘lgan ishga S_0 so‘m pul qo‘yilsa, unda n yildan so‘ng biz S_n so‘m pulga egalik qilishimiz mumkin bo‘ladi. Aksincha, joriy vaqtga keltirilgan, S_n kelajakdagi pul summasining real qiymati, quyidagi formula bo‘yicha baholanadi:

$$S_0 = S_n \cdot dm_n, \quad (4.2.10)$$

bu yerda: dm_n – diskont ko‘paytiruvchisi; r – stavkasi bo‘yicha, n davriga tegishli bo‘lgan diskont ko‘paytiruvchi quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$dm_n = 1/(1+r)^n. \quad (4.2.11.)$$

Demak, kelajakdagi daromadlarni joriy vaqt davriga olib kelish jarayoni diskontlash deyiladi, ya‘ni bugungi olingan bir so‘m, bir yildan so‘ng olinadigan bir so‘mdan yanada yuqoriroq baholanishini aks ettiradi. Buning sababi faqatgina inflatsiya emas, balki daromadlarni ko‘paytirishning turli imkoniyatlari mavjudligi va ulardan voz kechish kelajakdagi muayyan pul summasini yo‘qotish bilan tengdir. Diskont me‘yorini tanlash investitsiyaviy tahlilning murakkab muammosidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida diskont me‘yori birinchi navbatda korxonada pul resurslarini ishlatish bo‘yicha muqobil investitsiyaviy imkoniyatlarni aks ettirishi lozim.

Diskontlash operatsiyasi investitsiyaviy loyihalar samaradorligini baholashda keng qo‘llaniladi, chunki u vaqtning turli davrlariga tegishli daromad va xarajatlarni taqqoslash imkonini beradi.

4.3. INVESTITSION LOYIHALARNI BAHOLASH MUAMMOLARI

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab turgan chet ellik tashkilotlar vakolatxonalarining biznesga texnikaviy yordam berish va qo‘llab-quvvatlash salohiyatidan to‘liqroq foydalanish imkoniyatlari mavjud. Masalan, nemis iqtisodiyoti vakolatxonasida zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, uskunalari ishlab chiqa-

radigan firmalar rekvizitlari bo'yicha axborotlar olish mumkin. Bundan tashqari, katta ekspertlar jamiyati marketing sohasi, iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi ishlab chiqarish menejmenti bo'yicha nemis mutaxassislarining bepul maslahatlarini tashkil etadi. GTZ, ICE, TIKa, JICA va hokazolardagi xuddi shunga o'xshash mutaxassislarning moliyaviy va tashkiliy yordamlaridan foydalanган holda chet elda eksport mahsulotini reklama qilish va olg'a siljitish bo'yicha ko'rgazmalar, shuningdek, o'quv seminarlari tashkil etish mumkin.

Hozir O'zbekistonda moliya bozori yetarlicha rivojlanmaganligi sababli, loyihaviy moliyalash ko'p hollarda bank kreditlashi shaklida amalga oshirilmoqda. Bunda jahonda keng yoyilgan boshqa usullar—qimmatli qog'ozlar chiqarish (o'z kapitali), investitsiya fondlari, bank konsorsiumlari, nafaqa jamg'armalari, lizing kompaniyalari va boshqalardan yetarlicha foydalanilmayapti. Qator afzalliklarga, shu jumladan, soliq sohasida imtiyozlarga ega bo'lgan lizing investitsiya loyihalarini moliyalashning keng tarqalgan usullaridan biridir, lekin u hali yetarlicha rivojlanmagan. O'zbekistonda loyihaviy moliyalash korxonalarining, ayniqsa, kichik biznes korxonalarining o'z mablag'lari yetishmasligi, shuningdek, tijorat banklari beradigan kreditning narxi amalda barcha turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi uning moliyaviy samarasidan yuqoriroq ekanligi tufayli muammolar paydo bo'lmoqda. Hozirgi paytda investitsiya loyihasi qarz mablag'lari qaytarilishining o'rtacha muddati 5–8 yildir. Eksportga yo'naltirilgan loyihalar ustuvor deb topilganligi sababli, loyihalarning katta qismi raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkonini beradigan zamonaviy yuqori unumli texnologiyalar va uskunalarni joriy etish yo'li bilan amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda yangi loyihalarni amalga oshirish uchun asosan tijorat banklarining kreditlari jalb etilmoqda. Bunda uskunaning pirovard qiymati uskunaning hisoblab chiqilgan narxi (yetkazib berish va montaj qilishni ham hisobga olgan holda), kredit liniyalari eksport sug'urta mukofotining qiymati, kredit uchun to'lanadigan foizlar, mahsulot yetkazib beruvchi firmalar xizmatlarining qiymati, investitsiya davridagi foizlar va bank komissiyalari, shuningdek, uskunalarni sug'urtalash qiymatidan tarkib topadi.

Loyihani baholashda ushbu loyihani taklif etuvchi kompaniyaning moliyaviy-iqtisodiy tahlili zaruriy komponent bo'ladi. Kompaniyaning layoqati va barqarorligiga ishonch hosil qilgandan keyingina loyihaning o'zini tahlil qilish va moliyalash to'g'risida qaror qabul qilish mumkin bo'ladi.

Investitsiya kiritish asosida kelgusida foyda olish ko'zda tutiladi. Buning uchun albatta, puxta o'ylab ish tutish lozim. Dastlab investitsiya kiritish loyihasi tuzib olinishi shart. Har qanday loyiha tuzish asosida, albatta, bir qancha fikrlar majmuasi, nazariy yoki amaliy tadqiqotlar asosida malakali konstruktorlarni yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratishga undaydi. Bunday fikrlarni albatta, mutaxassislar, olimlar va malakali ishchi-xizmatchilar bildiradi. Fikrlar marketing tadqiqotlarida unumli samara berishi mumkin. Shulardan real fikrlarga ko'proq e'tibor berish lozimki, bu fikrlar quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot raqobatbardoshligi;
- foydaning o'sish darajasi;
- mahsulot hajmining ortishi;
- mahsulotni boshqa bozorlarga chiqish imkoniyati;
- mahsulotning turib qolishini kamaytirish;
- foydalanilayotgan kapitalning samaradorligi;
- firma imidjining o'sishi.

Bundan ko'rinadiki, har qanday firma yoki korxonaning samaradorligini yuqoridagi omillar yordamida aniqlash mumkin. Har qanday loyihalar ma'lum bir muddatga tuzilib, vaqt o'tishi bilan o'z samarasini yo'qotadi. Investitsiya loyihalarini baholashda yana bir asosiy ahamiyatga ega vaqtlilik omili mavjuddir. Bu omil investitsiya jarayonining lokomotivi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, investitsiyalashtirish va uni moliyalashtirish investorning talabiga muvofiq o'zgarib turishi mumkin.

Investitsiyalashtirishdan oldingi o'rganish jarayoni quyidagilarga ajratiladi:

- imkoniyatlarni o'rganib chiqish;

- tayyorlov yoki loyihalashtirishdan oldingi izlanish;
- iqtisodiy-texnik izlanish.

Investitsiyaviy izlanishning oraliq farq darajalari doim shartli belgilanadi. Investitsiyalashtirishdan oldingi kuzatish ishlarini olib borish uchun kapital qo'yilmaning umumiy qiymatidan 0,8–5% gacha ajratiladi. Investitsiyalashdan oldingi bosqichning muddatini aniq belgilash juda murakkab bo'lib, u loyihalashtirishga bog'liq.

Loyihalarni investitsiyalash jarayoni davomida korxonalar aktivlari, ya'ni o'z mablag'lari shakllanib boradi. Shu bilan birga boshqa korxonalar bilan mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzilib boradi, ishchi xizmatchilarni ishga qabul qilish jarayoni boshlab yuboriladi

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Xalqaro kapital harakatining iqtisodiy samarasi tushunchasini yoritib bering.
2. Investitsiyalardan keladigan foyda qanday aniqlanadi?
3. Kapitalning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga oqib o'tishi qanday omillarga bog'liq?
4. Kapitalning xalqaro harakati ishlab chiqarish omillarini samaraliroq qayta taqsimlash va ulardan foydalanish evaziga qanday natijalarga olib keladi?
5. Mamlakatlarning xalqaro kapital migratsiyasi (XKM) jarayonlarida qatnashishi qaysi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi?
6. Kapital importi koeffitsiyentini aniqlash formulasini yozing va tushuntirib bering.
7. Kapital eksporti koeffitsiyentini aniqlash formulasini yozing va tushuntirib bering.
8. Mamlakat iqtisodiyotiga sarflanayotgan kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida xorijiy kapitalning ulushini aks ettiruvchi ko'rsatkichning mohiyatini yoritib bering.
9. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi va uni baholash usullarini tushuntiring.
10. Investitsion loyihalarni baholash muammolarini sanab bering.

5-bob. KORXONA ASOSIY FONDLARIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH

5.1. ASOSIY FONDLARNING MOHIYATI VA ULARNING KORXONA FAOLIYATIDAGI O'RNI

Zamonaviy iqtisodiyot fani asosiy fondlarni ma'lum bir iste'mol qiymati ko'rinishida ijtimoiy mehnat asosida yaratiluvchi, ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan material omillari qatoriga kiritadi. Hozirgi bozor sharoitlarida korxonada kuchi va vositalari yordamida yaratilgan asosiy fondlar ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga faol ravishda ta'sir ko'rsatuvchi mulk hisoblanadi. Butun xalq xo'jaligi miqyosida asosiy fondlar mamlakatning milliy boyligini tashkil etadi.

Asosiy fondlar korxonada ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etadi va o'zining natural-moddiy holatini yo'qotmaydi hamda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o'tkazib beradi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb, ushbu jarayonda to'plangan mablag'lar esa amortizatsiya ajratmalari deb ataladi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko'ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari o'z mohiyatiga ko'ra, korxonaning ishlab chiqarish potentsialini tashkil qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish binolari va inshootlari;
- uzatish qurilmalari;
- quvvat mashina va uskunalari;
- ishchi mashina va uskunalari;
- transport vositalari;
- o'lchov va tartibga solish asbob va qurilmalari;
- foydalanish muddati bir yildan kam bo'lmagan va qonunchilikda belgilab qo'yilgan qiymatlardagi asboblar va ishlab chiqarish inventari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda, korxonaning ishlab chiqarish apparati deb ataladi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxonada asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo'lib, shu sababli o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazmaydi. Bular qatoriga asosan korxonada balansida turuvchi turar joy (uy-joy fondi), oshxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog'chasi va yaslilar, sport-sog'lomlashtirish va boshqa obyektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog'lomlashtirish yo'nalishidagi noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish asosiy fondlari bilan foydalanish muddati, natural shaklning saqlanishi, o'z qiymatini asta-sekin yo'qotishi kabi ko'p jihatlari bilan o'xshashdir.

Mehnat predmetiga o'tkazuvchi ta'siriga ko'ra, asosiy ishlab chiqarish fondlari aktiv va passiv turlarga bo'linadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv turiga bino va inshootlar, aktiv turiga esa quvvat mashina va uskunalari, ishchi mashina va uskunalari, transport vositalari, texnologik liniyalar, ya'ni biror-bir turdagi mahsulot yaratishda foydalaniluvchi mehnat qurollari kiritiladi.

Korxonaning aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlari eng harakatchan va ahamiyatli hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti davomida ko'plab korxonalarda aktiv ishlab chiqarish fondlarining salmog'i ortadi, ularning tarkibi va ko'rinishi o'zgaradi, asosiy fondlar guruh va turlarining ma'naviy eskirishi tufayli almashinish sur'ati tezlashadi.

Ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va boshqa ijobiy o'zgarishlar sharoitlarida, ba'zan korxonaning asosiy fondlari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalari, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar va hokazolar yetishmaydi. Bunday hollar ro'y berganda korxonada shartnoma asosida o'ziga kerakli bo'lgan asosiy fondlarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi. Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari lizing deb ataladi.

Asosiy fondlarning umumiy hajmida alohida guruhlarining qiymat bo'yicha o'zaro nisbati asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasini aks ettiradi hamda amaliyotda foizlarda o'lchanadi. Kor-

xona asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasining, birinchi o'ringda uning aktiv qismini—mashina va asbob-uskunalarni ko'paytirishga yo'naltirilgan takomillashtirishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Ularning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori shunchalik katta bo'ladi va aksincha.

Korxonalar asosiy fondlarining turlar bo'yicha tuzilmasi, ko'p jihatdan kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilmasi orqali, jumladan, ularni yangidan qurish va qayta ta'mirlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurollantirish bilan avvaldan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiya qilish darajasi ham katta ta'sir o'tkazadi. Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni fondlar bilan ta'minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o'rta korxonalar nisbatan ko'proq imkoniyatga ega. Biroq kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi moslashuvchanroq bo'lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

5.2. KORXONALARDA ASOSIY FONDLARNING ESKIRISHI, ULARNI BAHOLASH VA TA'MIRLASH

Xo'jalik amaliyotida asosiy fondlar natural va qiymat ko'rinishida hisobga olinadi. Agar asosiy fondlarni natural baholash ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish masalalarini hal qilish, asbob-uskunalarni ta'mirlash uchun ularning guruh va turlari bo'yicha grafiklar tuzish, shuningdek, ta'mirlash vositalariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash imkonini bersa, qiymat bo'yicha baholash, asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarishni rejalashtirish, ularning mavjud hajmini aniqlash, amortizatsiya hajmini belgilash, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tahlil qilish va hokozalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy fondlarni baholashning quyidagi usullari mavjud: boshlang'ich qiymat bo'yicha—asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuyidan iborat bo'lib, asosiy

fondlar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq—ularni keltirish, o‘rnatish kabi xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat.

Masalan, bitta mashina yoki uskunaning boshlang‘ich qiymati—bu korxonaning mazkur mashina yoki uskunani ma‘lum bir sanada sotib olgan va bu haqda buxgalteriya hujjatlarida qayd qilingan sotib olish narxidir.

Tiklanish qiymati bo‘yicha—asosiy fondlar yoki ularning biror-bir qismini (binolar, qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish uskunolari va hokazo) hozirgi inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash. Baholashning bu usuli obyektning hozirgi paytdagi qayta ishlab chiqarish davridagi bahosini ko‘rsatadi. Korxonalar asosiy fondlarining tiklanish qiymati, taftish va inventarizatsiya paytida, mamlakat miqyosida va davlat chora-tadbiri sifatida asosiy fondlarni qayta baholash paytida amalga oshiriladi.

Qoldiq qiymati bo‘yicha—asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o‘rtasidagi farq ko‘rinishidagi baholashdir. Boshqacha qilib aytganda, bu asosiy fondlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga hali o‘tkazilmagan qismidir. Korxonalar tomonidan foydalanilmaydigan hamda hisobdan chiqarish yoki sotish mo‘ljallangan asosiy fondlar ham, ko‘pincha qoldiq qiymati bo‘yicha, mazkur xo‘jalik yilidagi narxlarda baholanadi.

Iqtisodiyotning globalashuvi hamda hisob va hisobotlarning mukammallashuvi, jumladan, milliy hisob standartlarining jahon standartlari talablari darajasiga keltirilishi tufayli, garchi asosiy vositalar, asosiy fondlarning pul ko‘rinishidagi ifodasi sifatida avvaldan qo‘llanilgan bo‘lsa-da, hayotimizga «asosiy kapital», «asosiy vositalar» kabi atamalar endilikda kengroq kirib kelmoqda.

Hozirgi kunda amaliyotda asosiy vositalarning korxonalar balans va hisobotlarida aks ettiriluvchi (ya‘ni, boshlang‘ich, belgilangan tartibda o‘tkaziluvchi qayta baholashdan keyin esa tiklanish), hisobga olish qiymati balans qiymati deb ataladi. Bundan asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning balans qiymatidan eskirish summasini ayirib tashlash yordamida topish mumkinligi aniqlanadi.

Qabul qilingan baholash usuli va korxonada aks ettiriluvchi buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida, korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati (F_{ort}) belgilanib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$F_{ort} = F_n + \frac{F_p T_1 - F_v T_2}{12}$$

bu yerda: F_n – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati; F_p – yil davomida kelib tushgan (foydalanishga topshirilgan) asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati; F_v – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo'q qilingan) asosiy fondlar qiymati; T_1 – foydalanishga topshiriluvchi asosiy ishlab chiqarish fondlarining amalda bo'luvchi o'rtacha muddati (oylarda), qabul qilingandan keyingi oydan boshlab; T_2 – ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo'q qilingan) asosiy ishlab chiqarish fondlari foydalanilmaydigan o'rtacha muddat ((oylar) chiqarilgan oydan, to yil oxirigacha).

Asosiy fondlarni boshlang'ich yoki tiklanish qiymati bo'yicha baholashdan tashqari eskirish summasi ham hisobga olinadi. Asosiy fondlar jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirishi mumkin.

Jismoniy (moddiy) eskirish asosiy fondlarning birlamchi xislatlarini ishlab chiqarishda foydalanish va tabiiy eskirish natijasida yo'qotishdan yuzaga keladi. U asosan bir xilda kechmaydi hamda ko'p jihatdan iqlimning ta'siri, asosiy fondlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish, jumladan, xodimlarning malakasiga ham bog'liq bo'ladi.

Jismoniy eskirishni (IF) quyidagi formula asosida hisoblab topish mumkin:

$$IF = \frac{T_f}{T_n} \cdot 100 \text{ yoki } IF = \frac{I}{P_s} \cdot 100,$$

bu yerda: T_f – asosiy fondlarning haqiqiy xizmat qiluvchi muddati; T_n – asosiy fondlar xizmat qilishi kerak bo'lgan normativ muddat; I – hisoblangan amortizatsiya summasi (eskirish summasi); P_s – asosiy fondlarning boshlang'ich (qayta tashkil qilish) qiymati.

Ma'naviy eskirish asosiy fondlarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyati yo'qotilishidir. U ikki

shaklda yuzaga keladi: birinchi shaklda asosiy fondlar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa, ikkinchi shaklda asosiy fondlarning qadrsizlanishi yangi, fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida, yanada samaraliroq fondlarning paydo bo'lishi natijasida ro'y beradi. Asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish, ya'ni jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlarning o'rnini iqtisodiy to'ldirish uchun korxonalar bu vositalar qiymatidan amortizatsiya ajratmalarini ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar keyinchalik xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta'mirlash orqali tiklash zaruriyati tug'iladi. O'z vaqtida ta'mirlash asosiy fondlar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy fondlarni ta'mirlash kapital, o'rta va joriy turlarga bo'linadi. Bino va inshootlarni ta'mirlash o'z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag'larga ko'ra, mashina va uskunalarni ta'mirlashdan farq qiladi.

Takror ishlab chiqarish siklida asosiy fondlarni yaratish jarayoni korxonadan tashqarida amalga oshiriladi hamda asosan qurilish sohasi, mashinasozlik, asbobsozlik hamda asosiy fondlarni yaratish bilan shug'ullanuvchi boshqa sohalar bilan bog'liq bo'ladi. Asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishning qolgan bosqichlari korxonalar hududida amalga oshiriladi. Biroq barcha hollarda ham asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish tufayli korxonalar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiy va texnik barqarorlikka erishishlarini ta'minlaydi.

5.3. ASOSIY FONDLARDAN FOYDALANISHNI YAXSHILASH YO'LLARI

Har bir korxonalar o'z tasarrufidagi asosiy ishlab chiqarish fondlaridan iloji boricha unumli foydalanishga intilishi lozim. Bunga fondlarni ish bilan ta'minlashni yaxshilash tufayli ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish hajmini oshirish, nisbiy xarajatlarni kamaytirish, foydani oshirishdan tashqari asosiy fondlarda jamiyat-

ning o'tmishda narsa holiga aylangan mehnati mujassamlanganligi ham zarurat tug'diradi.

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- smena davomida uskunalar bekor turib qolishini qisqartirish va uning oldini olish;
- uskunalarning smenalik koeffitsiyentini oshirish;
- bekor turuvchi uskunalarni qisqartirish va tugatish;
- ta'mirlash va profilaktika tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish;
- uskunalarni ekspluatatsiya qiluvchi xodimlarning malakasini oshirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishni va resurslar bilan ta'minlashni yaxshilash.

5.4. KORXONANING ISHLAB CHIQRISH QUVVATI

Asosiy ishlab chiqarish fondlari hajmi va ulardan foydalanish darajasi korxonaning ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilaydi. U ishlab chiqarish dasturini asoslashda muhim ahamiyatga ega hamda korxonaning belgilangan nomenklatura va sifatli mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha potentsial imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Bundan kelib chiqadiki, ishlab chiqarish quvvati, ma'lum bir vaqt davomida ilg'or texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or sharoitlarida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlarning maksimal darajasidir. U odatda, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining natural ko'rinishda, ushbu korxonaning ixtisoslashganligi va mahsulotning alohida turlari o'rtasidagi o'zaro nisbatiga ko'ra aniqlanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati ilg'or (asosiy) sexlar quvvati bilan, sexlar quvvati bosh uchastkalar quvvati bilan, uchastkalar quvvati esa bosh uskunalar quvvatiga asosan aniqlanadi. Korxonada ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- uskunalarning tarkibi va turlari bo'yicha soni;

- uskuna, agregat va dastgohlardan foydalanishning texnik-iqtisodiy meʼyor (normativ)lari;
- uskunalarining ishlash vaqti fondi;
- ishchilar soni;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va assortimenti (turlari va xilma-xilligi).

Korxonada ishlab chiqarish quvvatining boshlangʻich (yil boshida), yakuniy (yil oxirida), oʻrtacha yillik hamda loyiha quvvati turlari mavjud. Loyiha quvvati qurilish loyihasida koʻzda tutilgan boʻladi. Qayta tiklash, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish davomida loyiha quvvati kattalashtirilishi mumkin. Shu sababli amaliyotda loyiha quvvati koʻpincha korxonaning amaldagi quvvati bilan solishtiriladi. Korxonaning amaldagi quvvati korxonada ishlab chiqarish dasturini tayyorlash uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Korxonada ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda zaxiradagi uskunalaridan tashqari, barcha oʻrnatilgan uskunalar hisobga olinadi.

Demak, ular oʻrtasidagi prinsipial farq shundaki, birinchi holatda korxonada ishlab chiqarishi mumkin boʻlgan mahsulotlarning maksimal darajasi aniqlansa, ikkinchi holda mazkur davr mobaynida uskunalaridan qanchalik foydalanilishi aniqlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bogʻliq mazkur chora-tadbirlar koʻpincha ishlab chiqarish quvvatlari balansini tuzish yoʻli bilan amalga oshirilib, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari va ularni taʼminlash manbalariga boʻlgan ehtiyoji aniqlanadi.

NAZOTAT UCHUN SAVOLLAR

1. Asosiy fondlarning eskirishi nima?
2. Asosiy fondlarning mohiyati nimalardan iborat?
3. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilashning qanday yoʻllari mavjud?
4. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati nimani anglatadi?

6-bob. INVESTITSİYALARNI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH

6.1. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHNING AHAMIYATI

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya katta bo'lib, quyidagilar bilan izohlanadi:

– xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

– importning o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohasiga yo'naltirish va pirovard natijada aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkoniyatini yaratadi;

– kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali (usuli) o'sib boruvchi aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

– korxonaning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

– tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va h.k.

«Investitsiya loyihasi» tushunchasining o'zi iqtisodiy nazariyada va amaliyotida keng qo'llaniladi va u ikki xil ma'noda talqin etiladi.

1. Muayyan maqsadlarga erishishni (ko'zlangan natijalarni hosil qilishni) ta'minlovchi biror faoliyat yig'indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat tadbir sifatida tushuniladi.

Bunday hollarda «Xo'jalik tadbiri», «Ish (ishlar yig'indisi)», «loyiha» atamaları ushbu tushunchalarga mazmunan yaqin.

2. Qandaydir faolyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy boshqaruv va moliyaviy hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to'plami sifatida qaraladi.

Investitsion loyiha tushunchasi uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarini barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy mehnat resurslarining harakatlarini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin.

To'liq shakllangan, tugallangan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- investitsiya g'oyasini shakllantirish;
- investitsion imkoniyatlarni taqdim etish;
- investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash;
- shartnoma hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- obyektни ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko'rsatkichlari) monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o'z maqsadi yo'nalishi amal qilish sohasi, muddati chegarasiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatidan to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat bo'lib hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining boshqa hujjat va «loyiha»lardan asosiy farqi shundaki, u haqiqiy hujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq hisob-kitoblar bilan baholanadi.

Shuningdek, uning amalga oshirilishi muayyan miqdordagi mablag'larni safarbar etishga investitsiya loyihasi, investitsiya g'oyasi shakllanishidan vujudga kelar ekan, uning murakkab jarayonlar asosida yaratilishida turli tadqiqotlar va tahlil etish ishlarini olib boruvchi mutaxassislarining asosiy o'rin egallashlarini alohida e'tiborga olmoq zarur.

Investitsiya loyihasining o'ziga xos hususiyati uning amalga oshirilishi moliyalashtirishning turli shakllariga mos tushishi bilan izohlanadi. Bunday investitsiya loyihasini amalga oshirishda turli

manbalardan mablagʻlarni jalb etish mukinligi uning qulayligi, foydaliligi, samaradorligi va afzalligini oshiradi.

Umuman, investitsiya loyihasi investitsion tadbirkorlik va tashabbusning mevasi sifatida yaratilgan investitsion hujjat boʻlib, investitsiyalar bilan taʼminlangan har qanday tadbirlar majmuyi hisoblanadi. Yaʼni u cheklangan muddat va ijtimoiy samaraga erishish maqsadida bir biri bilan bogʻliq, bir biri bilan aloqada boʻlgan murakkab doiradagi tadbirlar yigʻindisidir.


6.2. STRATEGIK AHAMIYATGA EGA BOʻLGAN LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA INVESTITSIYALARNING OʻRNI

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hukm surayotgan ayni damda iqtisodiyotning real sektor korxonalarini, shuning bilan birga infratuzilma obyektlari rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash maqsadida investitsion mablagʻlarni topish va ularni maqsadli yoʻnaltirish muhim omillardan biriga aylanmoqda.

Oʻtgan 2009-yilda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yoʻnalishga aylandi.

2009–2012-yillarga moʻljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan asosiy yoʻnalishlarning uchinchi boʻlimi «Iqtisodiyotning real sektori sohasida resurs bazasini kengaytirish va investitsion faollik oʻsishini taʼminlash choralari»ga qaratilgan boʻlib, birgina 2009-yilning oʻzidayoq dasturning ijrosini taʼminlash, yaʼni tijorat banklari tomonidan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 2,4 trln. soʻm miqdorida yoki 2008-yilga nisbatan 1,6 baravarga koʻp investitsion kreditlar ajratildi.

2009–2014-yillarda amalga oshirish ko‘zda tutilgan investitsion loyihalar Dasturi (iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida, mln. dollar.



14-chizma.

Xususan, o‘tgan 2009-yilda investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo‘yicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, shulardan 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Yil davomida iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 8,2 mlrd. dollarni tashkil etgan bo‘lsa, bu o‘tgan 2008-yilga nisbatan qariyb 24,8 foizga ko‘p ekanligidan dalolatdir. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning hajmi 68 foizga o‘tdi, ularning asosiy qismi to‘g‘ridan to‘g‘ri kiritilgan investitsiyalarni tashkil etdi.

2009–2014-yillarda amalga oshirish ko‘zda tutilgan investitsion loyihalar Dasturini to‘liq amalga oshirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan jami 42,5 mlrd. dollar miqdorida mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

2010-yilda mamlakatimizda muhim strategik loyihalarni amalga oshirish uchun 3 mlrd. AQSh dollaridan ziyod yoki o‘tgan yilga nisbatan 30 foiz ko‘p xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini va to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 46 foizga oshishi rejalashtirilayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday yirik loyihalarni amalga oshirish uchun va buning uchun ichki resurslarni 2007-yilda tashkil etilgan Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘i evaziga moliyalashtirilishi ko‘zda tutilmoqda. Buning asosiy, ya‘ni infratuzilma obyektlarini rivojlantirish

uchun ajratilishi belgilanayotgan investitsiyalarga urg‘u berilayotganligidan asosiy maqsad–infratuzilmani rivojlantirish orqali aholi yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, turmush darajasini oshirish va xalq farovonligini ta‘minlashga erishishdan iborat. Bugungi kunda faqatgina mazkur jamg‘arma mablag‘lari emas, balki to‘g‘ri-dan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari va korxonalarining mablag‘larini jalb qilish yo‘li bilan iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari ham amalga oshirilmoqda.


6.3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI LOYIHAVIY MOLİYALSHTIRISHDA INVESTITSIYA SIYOSATINING O‘RNI

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o‘rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to‘liq aks ettirilishini taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Asosiy vazifamiz–Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma‘ruzasida–«Uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo‘nalish–bu asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat»,⁷–deb ta’kidladi.

⁷ Asosiy vazifamiz–Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.–Prezident Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. //Xalq so‘zi, 2010-yil 30-yanvar.

Mustaqillikka erishilgandan boshlab, mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'lidan bormoqda. Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan O'zbekiston o'z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda (15-chizma).



15-chizma. O'zbekiston Respublikasining tuzilmaviy investitsiya siyosati.

Tuzilmaviy investitsiya siyosati hududlar, tarmoqlar va korxonalar investitsiya siyosatlaridan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati – investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmuyi. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosatida yangi tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, aholining iste'mol tovarlari, ish joylarga bo'lgan talabini qisqa vaqt ichida yuqori darajada ta'minlashga erishish yo'lida quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

– eskirgan ishlab chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;

– mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;

– to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan va talabga mos holda ishlab chiqarish tuzilmalarini yaratish;

–ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-texnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta'minlash;

–mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni kuchaytirish;

–samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sohasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg'unlashtirish;

–iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;

–aholining ish bilan bandligi hamda iqtisodiy faolligini oshirish;

–hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to'liq shakllantirish.

Tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib borishda muhim strategiyalar ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning mohiyati kichik iqtisodiy subyektlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Mazkur ishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik, qulay investitsiya muhiti xorijiy investorlar uzoq muddatli investitsiya loyihalarini tuzishda asos bo'lmoqda. Bundan tashqari, jalb etilgan chet el investitsiyalari va kreditlari uchun kafolatlar taqdim etish, soliq va bojxona ta'riflari bo'yicha imtiyozlar, zayom va foiz stavkalarini subsidiyalash kabi shart-sharoitlar yaratilmoqda, o'nlab qonuniy hujjatlar amal qilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari orasida quyidagilarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

–investitsiya jalb qilish uchun xalqaro me'yorlar va konvensiyalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish;

–respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish;

–ishlab chiqarish bilan bog'liq investitsiyalarni kiritishga ko'maklashish;

–mamlakatning kredit qobiliyatini qo'llab-quvvatlash;

–mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarni kiritishga yordam berish.

6.4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYA DASTURI DOIRASIDA INVESTITSIYALARNI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi–davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo‘lgan davlat tomonidan rag‘batlantiriluvchi yo‘nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va ular kiritgan mablag‘larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun mukammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi–ichki va tashqi siyosatning umumiy yo‘nalishi hisobga olingan ijtimoiy-iqtisodiy va xususiy xo‘jalik qarorlari majmuasi bo‘lib, mablag‘lardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida mamlakat ichiga va xorijga kiritilgan sarmoyalarning yo‘nalishi va joylashuvini belgilaydi. Ishlab chiqarish salohiyatining o‘shishi, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari, moddiy va manaviy boyliklarni ishlab chiqarish hajmi va sifatining ko‘tarilishi va butun infratuzilmasining rivojlanishi ko‘p jihatdan investitsiya va investitsiya dasturiga bog‘liq. Investitsiya dasturi davlatning investitsiya mablag‘larini mamlakatda moddiy boyliklar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun safarbar etish vazifasidan iborat. Tashkiliy-huquqiy jihatdan davlat siyosatining bu sohasi uning tegishli idoralari tomonidan ushbu siyosatning maqsad va vazifalari amalga oshiriladigan faoliyatdir. Investitsiya dasturining tashqi tomoni ham bor bo‘lib, u iqtisodiyotni zamonaviy texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etish asosida jadal rivojlantirish vazifasini hal etish uchun iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb etishni o‘z ichiga oladi. Bu vazifani qo‘shma korxonalar barpo qilish, ya‘ni to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy xususiy investitsiyalardan foydalanish yo‘li bilan hal etish

mumkin. Shu munosabat bilan xorijiy investitsiyalarni huquqiy tartibga solish masalalari dolzarblashadi. Aniq, samarador va hayotiy rioya qilinadigan qonunlarga ega bo'lgan ochiq va liberal investitsiya dasturi xorijiy investitsiyalarni jalb etishning qudratli qurolidir. Bunday siyosatni ishlab chiqish respublikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolishi lozim.

Xorijiy investitsiya faqat ishlab chiqarish va bozor rivojlangan sharoitda, ya'ni xalqaro bozordagi sarmoya eksporti bungacha mavjud bo'lgan tovarlar eksportidan yuqori bo'lganda yuzaga keladi.

Davlat investitsiya jarayonini tashkil qiluvchi va asosiy investor bo'lib xizmat qilishi kerak—ijtimoiy siyosat nuqtayi nazaridan bu uning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Investitsiyalarning miqdoriy o'sishi ichki investitsiya dasturi (mablag'larni noishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hisobiga safarbar qilish) vositasida ta'minlanadi. Investitsiyalar sifatining o'sishi ichki (fan va texnika yutuqlarini tatbiq etish) va tegishli tashqi investitsiya dasturi (xorijiy investitsiyalar texnik tarkibi va xususiyatiga ko'ra yuqoriroq bo'lganlarini jalb etish) vositasida ta'minlanadi. Ichki investitsiya dasturi ham tashqi investitsiya dasturi ham investitsiyalashning turli manbalaridan turli shakllardagi investitsiyalarni jalb etish zaruratini nazarda tutadi. Investitsiya dasturining mohiyati va mazmuni eng qulay huquqiy vositalarni topish—investitsiya jarayoni va investitsiyani huquqiy tartibga solishdan iborat.

Oqilona investitsiya dasturini amalga oshirayotgan davlat ixtiyorida huquqiy tartibga solishning ikki vositasi mavjud: milliy-huquqiy va xalqaro-huquqiy. Davlatning tashqi investitsiya dasturi huquqiy nuqtayi nazardan xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratishdan iborat bo'lib, bu milliy huquqiy tartibot, milliy huquqiy shakllar va normalardan (qonunlar va boshqa me'yoriy aktlar) hamda xalqaro-huquqiy tartibot, xalqaro-huquqiy shakl va normalardan (ikki va ko'p tomonlama shartnomalar va bitimlar) foydalanishni nazarda tutadi. Bularning barchasida ham ichki, ham tashqi investitsiya siyosatlari hisobga olinishi shart.

Investitsiya dasturining aniq maqsadga yo'naltirilgan va ilmiy asoslangan asosiy vazifasi davlatning jamiyatda moddiy va manaviy boyliklarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun investitsiya mab-

lag'larini safarbar etish bo'yicha faoliyat yuritishidan iborat. Investitsiya faoliyati (ingl. investment activity)–bu investitsiya kiritish va investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha olib boriladigan amaliy harakatlar yig'indisidir.

Investitsiya dasturi alohida davlatlar tomonidan investitsiya munosabatlari subyektlarining (davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy) investitsiya faoliyatini kuchaytirish maqsadida choralar tizimini nazarda tutadi. Investitsiya faoliyati esa uning subyektlarining investitsiyani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatlari yig'indisidir.

Investitsiya dasturi tovar-pul munosabatlarini takomillashtirish sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur siyosat rivojlangan tovar-pul munosabatlarida nisbatan kamroq ahamiyatga ega. Chunki o'z-o'zini boshqaruvchi iqtisodiyot sharoitida investitsiya dasturi asosan tartibga soluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Investitsion loyihalarning manziliy dasturi har yili ishlab chiqilib, moliyalashning asosiy manbalari asosida investitsion loyihalarning kerakli ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Investitsion loyihalarning manzilli dasturiga kiritishning zarur shartlari mavjud:

- texnik–iqtisodiy asoslarning mavjudligi;
- shartnomada ko'rsatilgan kreditlarning vaqtda qoplanganligi va moliyalashtirish manbalari tasdig'i ham zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 420-sonli «O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha me'yoriy huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori ishlab chiqildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning muhim qismi bo'lib, davlat investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi.

Dasturning asosiy maqsadi O'zbekiston iqtisodiyotining dinamik rivojlanishiga, O'zbekiston iqtisodiyotining zarur tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirishga, iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar asosida jahon iqtisodiy tizimiga keng integratsiyasi, tabiiy mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hisoblanadi.

Dastur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari yordamida prognoz qilish;

- muhim investitsion takliflarning taqqoslama ro'yxati;

- investitsion loyihalarning manzilli dasturi.

Dastur quyidagilarni amalga oshirishga yo'naltirilgan kapital qo'yimlar prognozini o'z ichiga oladi:

- tabiiy mineral xomashyo moliyaviy moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish samarasini oshirish;

- davlat budjetining respublikaning ichki va tashqi qarzdorligi bilan bog'liqligi;

- moliyaviy mablag'lar bilan tasdiqlangan obyektlarni va kreditlar qaytarilishini, shuningdek, qurilish va qurilish materiallari sanoatidagi kuchlarni balanslashtirishni kiritish;

- iqtisodiy va ekologik jihatdan asoslangan yangi korxonalarni joylashtirish va mintaqalarning kompleks rivojlanishini hisobga olgan holda faoliyat yurituvchi korxonalarda qo'shimcha kuchlarni yaratish hamda ishlab chiqarish, noishlab chiqarish infratuzilmasidagi va mehnat resurslaridagi tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya dasturini moliyalashtirishda asosan xorijiy investitsiyalar katta o'rin egallaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda investitsiyalarni jalb etishda avvalo ichki manbalarni safarbar etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirishda investorlarning o'z moliyaviy resurslari – korxonalar foydasi, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va boshqalardan kengroq foydalanish zarurligini anglatadi. Chunki, ichki manbalarning to'liq safarbar etilishi, bir tomondan, mavjud iqtisodiy resurslardan tejimli va oqilona foydalanishni ta'minlash, boshqa tomondan, investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Mamlakat miqyosidagi investitsiya faoliyatini samarali amalga oshirish maqsadida investitsiya dasturi ishlab chiqiladi.

Investitsiya dasturi – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xomashyo, moliyaviy,

moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi.

Investitsiya dasturlarida muayyan davrda amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar, ularning bajarilish bosqichlari va sarflanishi ko'zda tutilgan mablag'lar qiymati hududlar va tarmoqlar bo'yicha aks ettiriladi. Investitsiya dasturlari uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, unda har bir yil uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar alohida ifodalanadi.

Jumladan, mamlakatimizda 2009–2014-yillarga mo'ljallangan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirish choralari dasturi umumiy qiymati 42,51 mlrd. doll.dan iborat 852 ta investitsiya loyahasini o'z ichiga oladi. 2009-yilda tasdiqlangan ayrim tarmoq dasturlari to'g'risidagi ma'lumotni 6.4.1-jadval orqali ko'rish mumkin.

6.4.1-jadval

Modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirishning tasdiqlangan tarmoq dasturlari

Tarmoqlar	Loyihalar soni, dona	Loyihalar qiymati, mln. doll.
Paxta tozalash sanoati	41	129,7
To'qimachilik sanoati	65	477,7
Yog'-moy sanoati	63	31,7
Kimyo sanoati	30	291,7
Avtomobil sanoati	26	255,1
Qurilish materiallari sanoati	36	343,1
«O'zmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi	9	49,0
Farmatsevtika tarmog'i	45	26,5

Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati	26	892,1
Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati	13	405,3
Qishloq xo'jalik mashinasozligi	13	28,0
Temiryo'l tarmog'i	18	1734,2

Respublikamizda 2009-yil mobaynida qayd etib o'tilgan investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Buning natijasida 22 ta yirik ishlab chiqarish obyekti, jumladan, neft-gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish industriyasida 5 ta obyekt foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari, hududlarimizda, avvalo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes sohasida faoliyat olib boradigan 480 dan ortiq yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi.

Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va xalqimiz farovonligini oshirishda mamlakatimiz hududlarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu o'rinda, elektr va gaz tarmog'ini barpo etish bo'yicha strategik investitsiya loyihalarining mamlakatimiz uchun nechog'liq muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liq.

Yurtimiz olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, mintaqalarning investitsion jozibadorlik indeksi oltita element asosida hisoblanadi va shu bo'yicha integral indeks aniqlanadi. Olingan ma'lumotlarga

ko'ra, mintaqalarning investitsion jozibadorligini uchta guruhga bo'lish mumkin (6.4.2-jadval).

Birinchi guruhga Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo, Andijon va Farg'ona viloyatlari kiradi hamda ular investorlar uchun eng qulay hisoblanadi (indeks 0,755–0,347). Investitsion jozibadorlikning yuqori bo'lishi ushbu hududlarda tabiiy-iqtisodiy salohiyat, infratuzilma, jumladan, transport va axborot kommunikatsiyalarining rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan belgilanadi.

Ikkinchi guruhni Samarqand, Buxoro, Navoiy va Namangan viloyatlari tashkil etadi (indeks 0,322–0,288). Ushbu hududlar xorijiy investorlarning mavjud qazib oluvchi va qayta ishlash korxonalari faoliyat ko'rsatayotganiga qiziqishi bilan belgilanadi.

6.4.2-jadval

**Hududlarning investitsion jozibadorligini
aniqlash elementlari**

Hududlar	Hududning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasi	Hududning moliyaviy resurslar bilan ta'minishi	Investitsion infratuzilma rivojlanish darajasi	Hududning demografik tavsifi	Institutsional o'zgarishlar va rivojlanish darajasi	Hududning investitsion faoliyat xavfsizligi darajasi	Mudlaq integral rang ko'rsatkich
Qoraqalpog'iston	0,0064	0,121	0,085	0,222	0,559	0,535	0,234
Andijon	0,341	0,151	0,276	0,426	0,560	0,594	0,367
Buxoro	0,304	0,144	0,165	0,413	0,509	0,511	0,315
Jizzax	0,198	0,049	0,075	0,388	0,496	0,506	0,151
Qashqadaryo	0,362	0,542	0,266	0,382	0,370	0,386	0,382
Navoiy	0,536	0,189	0,218	0,348	0,348	0,439	0,338
Namangan	0,141	0,118	0,183	0,374	0,531	0,554	0,285
Samarqand	0,181	0,234	0,154	0,401	0,607	0,522	0,322
Surxondaryo	0,150	0,101	0,104	0,324	0,549	0,422	0,250

Sirdaryo	0,185	0,037	0,147	0,320	0,317	0,723	0,247
Toshkent	0,434	0,197	0,366	0,493	0,611	0,362	0,404
Farg'ona	0,317	0,241	0,331	0,470	0,289	0,573	0,347
Xorazm	0,171	0,113	0,199	0,310	0,529	0,535	0,284
Toshkent sh.	0,837	0,793	0,701	0,820	0,580	0,845	0,755

Uchinchi guruhga nisbatan kam rivojlangan hududlar – Xorazm, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi kiradi (0,284–0,234). Yuqorida qayd etilgan hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlatning ishtiroki yuqori bo‘lishi lozim.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati qanday o‘ziga xos jihatlarga ega?
2. Tuzilmaviy investitsiya siyosati nima?
3. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning qanday shakllari mavjud?
4. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning qaysi asosiy yo‘nalishlarini bilasiz?
5. Investitsiya dasturining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
6. O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturining mohiyatini tushuntirib bering.

7-bob. INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA TAVAKKALCHILIKLAR VA ULARNI BAHOLASH

7.1. INVESTITSIYALARNI SUG'URTALASH

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirishga katta e'tibor qaralib, investorlarga ko'maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to'lovlari sohalarida ma'lum imtiyozlar, sharoitlar va kafolatlar tizimi shakllantirildi. Bunday tizimning tarkibiy qismi bo'lgan sug'urtaning shakllantirilishi xorijiy investorlarga siyosiy va tijorat xatarlaridan sug'urta kafolatini taqdim etish imkoniyatini yaratdi.

O'zbekiston hukumati tomonidan sug'urta sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, sug'urta bozorini bosqichma-bosqich isloh qilish amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunga kelib, sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi, umumiy, maxsus qonunchilik hamda qonunga asoslangan va ma'muriy-me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga oluvchi qonunchilik tizimi yaratildi. Bunday sug'urtalash huquqiy tizimining mavjudligi respublika sug'urta bozorini rivojlantirishga va takomillashtirishga asos bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining sug'urta qonunchiligi O'zbekiston hududida xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta tashkilotlarini tashkil etishda investorlarning nizom sarmoyasida qatnashish ulushini qat'iy chegalashni nazarda tutmaydi.

2000-yilning oxiriga kelib respublikamizda 28 ta sug'urta tashkiloti faoliyat olib bordi. 2009-yilga kelib, ulardan 25 tasi faoliyatini saqlab qoldi. Ularning 300 bo'linmasi, shu jumladan, chet el sug'urta bozori vakillari ishtirokida tuzilgan to'rtta sug'urta va brokerlik kompaniyasi ish olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor

yoʻnalishlari amalga oshirilishi investitsiya faoliyatini jadallash-tirishga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishga, eksport salo-hiyatini kengaytirish va eksportning oʻsishiga koʻmaklashishga qaratilgan. Bu esa, sugʻurta kompaniyalari faoliyatini keng qam-rovda rivojlantirishni taqozo etadi.

Xususan, mahsulot va xizmatlar bozorlarida Oʻzbekiston eksportchilariga sugʻurta himoyasini taqdim etish maqsadida, «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi tash-kil etildi. Bu sugʻurta kompaniyasi milliy eksportchilarning iqtisodiy manfaatlarini chet ellarda xorijiy hamkorlar tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlarining bajarilishiga toʻsqin-lik qiluvchi siyosiy, tijorat va tadbirkorlik xatarlaridan sugʻurtaviy himoya qilishni hamda Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga sarmoya sarflayotgan xorijiy investorlarning mulkiy va shax-siy manfaatlarini kompleks sugʻurtaviy himoya qilishni taʼmin-laydi. Siyosiy xatarlardan sugʻurtalash boʻyicha xalqaro tamoyil-larga asoslangan holda «Uzbekinvest-interneyshnl» AJ xorijiy investitsiyalarni va savdoni sugʻurtalash sohalarida oʻzining sugʻurta xizmatlarini taqdim etadi. Bugungi kunda bu kompa-niya xorijiy investitsiyalarni quyidagi siyosiy xatarlardan sugʻurta-lamoqda: mulkni musodara qilishdan; ekspropriyasiyadan; mulk-dan mahrum qilishdan yoki millilashtirishdan; qoʻshimcha xatarlar sifatida—tanlovli kamsitishlardan; aktivlardan majburiy mahrum etilishdan; eksport-import embargosidan; litsenziya bekor qilinishidan; urush va fuqarolar gʻalayonidan; hukumat shartnomasi bekor qilinishidan hukumat kafolatlarining noqonuniy ravishda yoʻq qilinishidan va boshqalardan. Uzoq muddatli xatarlarni qoplash boʻyicha kompaniya jahon sugʻurta biznesining yetakchi sugʻurta va qayta sugʻurtalash kompaniyalari, xalqaro moliyaviy institutlari hamda davlat eksport-kredit agentliklari bilan, qisqa muddatli xatarlar boʻyicha siyosiy xatarlarni sugʻurtalovchi xususiy bozor kompaniyalari bilan faol hamkorlikni rivojlantirmoqda. Yirik investitsiya loyihalarini qoplash boʻyicha qoʻshma korxonaning

AIG (AQSh) sugʻurta kompaniyasi va Lloyds bozoridagi xususiy kompaniyalar bilan shartnomalari bor.

Kompaniya faoliyati davomida qayta sugʻurtalashni keng yoʻlga qoʻygan holda, tashqi savdo shartnomalari va Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga yoʻnaltirilayotgan investitsiyalar boʻyicha umumiy hisobda 884,76 mln. AQSh dollari miqdorida sugʻurta himoyasi taqdim etildi.

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar va tashqi savdo shartnomalarini xorijiy banklar tomonidan ushbu davlatlarning eksport-kredit agentliklarining kafolatlarisiz moliyalashtirish uchun qulay sharoit yaratish boʻyicha qoʻshimcha tarzda kompaniya tomonidan maqsadli strategik reja amalga oshirilmoqda. Siyosiy boʻhronlardan imtiyozli shartlar asosida sugʻurtalashning taqdim etilishi neft qazib olish va gaz-kimyo tarmoqlari, qishloq xoʻjaligi mashinasozligi, avtomobilsozlik, telekommunikatsiya sohasi hamda paxta tolasi va respublika metallurgiya sanoati mahsulotlarining eksport shartnomalari boʻyicha avans toʻlovlarini oʻz vaqtida olish uchun ushbu banklar resurslarini jalb etish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, respublikamizda xorijiy investitsiyalarni, umuman, investitsiya faoliyatini sugʻurtalash mexanizmi yaratildi. Mavjud mexanizmni yanada takomillashtirish, xorijiy investorlarga sifatli, arzon va qulay sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish milliy va qoʻshma sugʻurta kompaniyalarimizning asosiy maqsadidir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish va jahon talablariga toʻla javob bera oladigan sugʻurtalash tizimini yaratish uchun:

birinchidan, sugʻurta bozorida maʼlumotlarning ochiq namoyon etilishi, yaʼni sugʻurtalanuvchi va sugʻurta nazorati organlari sugʻurta kompaniyalarining ishonchlilik darajasi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarga ega boʻlishi;

ikkinchidan, sugʻurta kompaniyalari faoliyatini boshqarishni toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, yaʼni samarali boshqaruvni tashkil etish;

uchinchidan, xorijiy sugʻurta institutlari ustidan faol nazorat olib borilishi;

to'rtinchidan, xo'jalik-moliyaviy ahvoli yomon holatda bo'lgan yoki bankrotlik ehtimoli yuqori bo'lgan sug'urta kompaniyalari bilan ishlash uslublarini yaratish;

beshinchidan, sug'urta sohasi bo'yicha yetuk mutaxassislarni tayyorlash, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhimdir.

Chet el investorlari uchun zarur moliyaviy-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan chet el investorlarini himoyalashning Milliy sug'urta jamg'armasini barpo etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Bu jamg'arma respublika hududida ta'sis etilgan chet el banklarida O'zbekiston Respublikasi, xorijiy investitsiya ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari valuta qadriyatlarining bir qismini deponentlash yo'li bilan hosil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyasini himoyalash rasmiy davlat sug'urta agentligi hisoblangan sug'urtalash tizimi va chet el sug'urta kompaniyalari ishtirokidagi qo'shma sug'urta kompaniyalari orqali ta'minlanadi.

7.2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQARO KAFOLATLARNI QO'LLASH MASALALARI

Xalqaro kafolatlar tovar va kapitallarning uzluksiz va doimiy harakatining ta'minlanishiga xizmat qiladi. Xalqaro kafolatlar import qiluvchilarni sifatsiz tovarlar qabul qilishdan, eksport qiluvchilarni esa tovarlar haqini ololmay qolish xavfidan saqlaydi.

Xalqaro kafolatlar xalqaro operatsiyalarning barcha asosiy turlarida qo'llaniladi. Jumladan, bularga:

- xalqaro kreditlar bo'yicha beriladigan kafolatlar;
- eksport-import operatsiyalari bo'yicha beriladigan kafolatlar;
- to'g'ri va portfelli investitsiyalar bo'yicha beriladigan kafolatlarni kiritish mumkin.

Xalqaro kafolatlar markaziy banklar, tijorat banklari, korporatsiyalar, hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladi. Xalqaro kafolatlar banklar va boshqa kafolat beruvchi tashkilotlar uchun muhim daromad manbayi hisoblanadi, ammo bular yuqori tavakkalchilikli operatsiyalar hisoblanadi.

Xalqaro kafolatlarda uchinchi bir tomon ishtirok etishi shart. Aynan mana shu kafolat beruvchi tomonning to'lovga layoqatliligi asosiy masala hisoblanadi. Xalqaro kafolatlar xalqaro miqyosda tan olingan subyektlar tomonidan beriladi.

Xalqaro kafolatlarining quyidagi asosiy turlari mavjud:

To'g'ri kafolat—bu kafolat beruvchi tomonning bevosita eksport-import operatsiyalari uchun beradigan kafolatidir. Bunda mazkur to'lov bo'yicha majburiyatlarni to'liq o'z zimmasiga oladi. Bunday kafolatlar to'lovtalabnomalari bo'yicha hisob-kitoblar, hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarda keng qo'llaniladi.

Vositlashgan kafolatlarda kafolat beruvchi o'ziga xos tarzda vositachilik vazifasini o'taydi. Bunday kafolatlar eksport-import operatsiyalarida keng ishlatiladi.

Tasdiqlangan kafolatlar berilgan kafolatlarni tasdiqlash shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, bank o'z mijozi bo'lgan importchining to'lov majburiyatlari bo'yicha kafolat bergan bo'lsa, eksportchining banki ham ushbu kafolatlar bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi. Bu esa mavjud kafolatlarni tasdiqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xalqaro kafolatlarining yana quyidagi asosiy shakllari ham mavjud:

- 1) to'lov bo'yicha berilgan kafolatlar;
- 2) sifatli mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha berilgan kafolatlar (jarima, qo'shimcha xarajatlar).

O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlardan foydalanish masalasi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Respublikada katta summada moliyalashtirilayotgan aksariyat loyihalarda davlatning ulushi ko'pligi sababli, xalqaro kafolatlarni ishlatuvchi subyekt hukumatdir.

Olinayotgan xalqaro kreditlarning asosiy qismi O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati bilan olinmoqda. Xalqaro kafolatlarni berishda tijorat tuzilmalari va banklarning ahamiyati kattadir. O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlar o'rnini

bosuvchi majburiyatlarni pul mablagʻlari bilan taʼminlash tizimi keng qoʻllaniladi.

Investitsiyalar tavakkalchilik darajasi boʻyicha yuqori tavakkalli va past tavakkalli investitsiyalarga ajratiladi. Moliya sohasida tavakkalchilik deganda investitsiyalarga mutlaq yoxud nisbiy miqdordagi foyda kutilganidan ancha kam boʻladi, boshqacha aytganda «tavakkalchilik» atamasi kutilmagan natija olish imkoniyatini anglatadi. Albatta, tavakkalchilik koʻp hollarda emitent, vositachi yoki muayyan moliyaviy vositalar sotuvchisining sofdiligiga bogʻliq. Past tavakkallik investitsiyalar muayyan daromad olishning xavfsiz vositasi hisoblanadi. Aksincha, yuqori tavakkalli investitsiyalar xavfli hisoblanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Investitsiyalarni sugʻurtalashning mohiyati nimalardan iborat?
2. Investitsiyalarning tavakkalchilik darajasini tushuntirib bering.
3. Sugʻurta kafolatini taqdim etish nimani anglatadi?
4. Chet el investorlari uchun zarur moliya-iqtisodiy kafolatlarni taʼminlash uchun hukumat tomonidan chet el investorlarini himoyalash boʻyicha qanday qaror qabul qilingan ?
5. Xalqaro kafolatlar qachon va nima uchun qoʻllaniladi?
6. Xalqaro kafolatlarning asosiy turlari va ularning mazmunini tushuntirib bering.

8-bob. LIZINGNING MOHIYATI VA LIZING OPERATSIYALARI TURLARI

8.1. LIZING TUSHUNCHASI VA UNING YUZAGA KELISHI

Lizing bitimlarining paydo bo'lishi Aristotel davri (miloddan avvalgi 384–322)ga borib taqaladi. «Ritorika» asarida u shunday fikrni bayon etadi: «Boylik–buyumga egalikda emas, balki foydalanishdadir». Bu asarda u foyda olish uchun biror-bir mulkka egalik qilish shart emas, faqat undan foydalanish huquqiga ega bo'lish va samarali foydalanishning kifoya qilishi asoslab beriladi.

Iqtisodiy munosabatlar tarixi bilan shug'ullanuvchilarning fikrlariga ko'ra ijara (lizing) bitimlari Aristotel yashagan davrdan ancha oldin ham mavjud bo'lgan. Lizing bitimlari qadimgi Shumer davlatida ham tuzilgan, bunga miloddan oldingi 2000-yildagi yozuvlar guvohlik beradi. Shumer davlatidagi Ur shaharchasidan topilgan loytaxtalardagi yozuvlar qishloq xo'jaligi qurollari, suv manbalari, ho'kiz va boshqa ish hayvonlari ijaraga berilganligi to'g'risida ma'lumotlardan iborat bo'lgan. Bu yozuvlar bizga ibodatxona kohinlari mahalliy yer egalari bilan bitim tuzgan ijaraga beruvchilar bo'lganligi haqida xabar beradi.

Ingliz tarixchisi T. Klark Hammurapi qonunlarida lizing munosabatlari alomatlariga ega bir necha qoidalarni aniqlaydi. Bu qonunlar miloddan oldingi yillarda qabul qilingan. Mulkka oid bir turkum moddalar hammurapi sudlovida eng yirik moddalar hisoblangan, ularda ijaraga berishning turli holatlari, ijara haqi me'yori, mulkni garovga qo'yish shartlari, shuningdek, ijara to'lovlari amalga oshirish mufassal ko'rib chiqilgan.

Finikiyaliklar kemalarni ijaraga olishi, o'zining iqtisodiy-huquqiy mohiyatiga ko'ra ashyolarni lizingga berishning hozirgi mumtoz shakliga juda o'xshab ketadi. Hozirgi sharoitlarda bu

bitimlar «nam» lizing deb atalmish operatsiyalarga mos keladi. Uzoq muddatli «charter» bitimlar kemalar iqtisodiy faoliyatining butun davri mobaynida qoplashga hisoblangan muddatga tuzilgan va ijarachidan ijaraga olayotgan vositasidan monopol foydalanish tufayli kelib chiqadigan majburiyatning katta qismini o'z zimmasiga olish talab etilgan. Imperator Yustinian I (483–565) Rim huquqini kodlashni amalga oshiradi va mashhur Institutsiyalarda hozirgi lizing munosabatlarining o'tmishdaxisini ifodalaydi. Shuning uchun huquqshunolar, Rim huquqida o'sha davrdayoq mulkka shaxsiy mulk huquqisiz ham egalik qilish mumkinligi bilan bog'liq bir talay mulkiy munosabatlar ma'lum bo'lganligini adolatli tarzda ta'kidlab o'tganlar. Bu munosabatlar o'sha davrdagi bitimlarda ham, ashyoviy huquqda ham aks etgan.

Venetsiyada XI asrda lizing operatsiyalariga o'xshash mulkiy bitimlar mavjud bo'lgan: venetsiyaliklar savdogarlarga va savdo kemalarining egalriga o'sha davr narxida bahosi ancha qimmat bo'lgan langarlarni ijaraga berganlar. Shu bilan birga Angliyada ham hozirgi lizing operatsiyalariga o'xshash munosabatlardan foydalanilgan. Ijara vositasi bo'lib, ko'pincha qishloq xo'jaligi uskunalari va otlar hisoblangan. Buyuk Britaniyada lizingga o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi ilk me'yoriy hujjatlardan biri bo'lib, Uels qonuni hisoblanadi, u 1284-yilda qabul qilingan. XIX asr boshlarida Angliyada sanoatning jadal rivoji tufayli, turli xil uskunalar ishlab chiqarish hajmi sezilarli ortganligi munosabati bilan uskunalar lizingi rivoj topdi. Bunda temiryo'l transporti hamda toshko'mir sanoatining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Qo'shma Shtatlarda XVIII asr boshlarida shaxsiy mulkni ijaraga berish bo'yicha birinchi shartnoma qayd etiladi. Bunda gildiya a'zolari shartnoma bo'yicha ot, yopiq arava va aravachani ijaraga olish huquqiga ega bo'ldilar. Avstriyalik tadqiqotchi V.Xoyer «Yevropada qanday biznes qiladilar» nomli kitobida, «lizing» atamasini birinchi marta 1877-yilda qo'llanganini yozadi. O'sha vaqtda «Bell» telefon kompaniyasi o'z telefon apparatlarini

sotmaslik, ularni ijaraga berish haqida qaror qabul qiladi, ya'ni apparatni mijozning uyi yoki ofisiga telefondan foydalanlik uchun ijara haqi to'lash asosida o'rnatadi. XIX asr boshlarida AQShda avtotransport gurrakib rivojlangani tufayli transport vositasi bilan bog'liq lizing biznesi tez sur'atlar bilan taraqqiy etadi. Avtomobil lizingidan foydalanishga birinchi misol 1918-yilga taalluqli. Genri Ford 30-yillarda o'z avtomobillari sotilishini ko'paytirish uchun lizing shaklidagi ijaradan keng foydalanadi.

Lekin Chikagolik savdo agenti – Zolli Frenk avtomobil lizingi biznesining otasi hisoblanadi. U 40-yillar boshida birinchi bo'lib uzoq muddatli avtomobil ijarasini taklif etadi. Lizing munosabatlaridagi haqiqiy inqilob Amerikada o'tgan asrning 50-yillarida sodir bo'ladi. Unda texnologiya jihozlari, mashinalar, mexanizmlar, kemalar, samolyotlar va boshqalar ommaviy suratda lizing asosida ijaraga berila boshlaydi. 1952-yilda San-Fransiskoda tuzilgan mashhur Amerika kompaniyasi «United States Leasing Corporation» ilk kompaniya bo'lib, lizing operatsiyalari uning uchun asosiy faoliyat turi, hisoblanadi. Bu kompaniya birinchi bo'lib xalqaro miqyosga chiqdi, oqibatda xalqaro lizing yuzaga keldi. 1982-yilda Mak-Donnel Duglas korporatsiyasi lizing yordamida samolyotlar bozorini egalladi.

Frantsiyada birinchi lizing kompaniyasi 1957-yilda paydo bo'ladi va u Serafites (1962-yildan – Locafrance) deb nomlangan. Uning faoliyati asosiy yo'nalishi sanoat uskunalarning lizingi bo'ldi. Mazkur kompaniya birinchi bitimni 1961-yil 22-fevralda imzolagan. Frantsiyada lizing 1966-yilda qabul qilingan.

Angliyadagi zamonaviy lizing biznesining ilk qaldirg'ochi bo'lib, «Mercantile Leasing Company» hisoblanadi. U 1960-yil 8-iyulda ta'sis etilgan «Mercantil Credit Company» va «United States Leasing Corporation» fransuz-amerika qo'shma korxonasi tarzida yuzaga kelgan. Biroq Angliyada lizing faqat 1970-yildagina sezilarli darajada, soliq imtiyozi joriy etilgandan so'ng rivojlandi. Bunga O'zbekistonda alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

Italiyada birinchi lizing kompaniyasi 1963-yilda tashkil topadi.

Germaniyada birinchi lizing kompaniyasi «Lokallease Mietfinanzierung GmbH» 1962-yilda tuzilgan, uning ustav kapitali 1 mln. markani tashkil etgan. 60-yillarning boshlarida lizing biznesi Osiyo qit'asida rivoj topadi. Yaponiyada 1969-yilda tuzilgan «Sentury Leasing System» lizing kompaniyasi eng mashhur va yirik kompaniyalardan hisoblanadi.

8.2. LIZINGNING MOHIYATI

Lizing mohiyatini quyidagi ibora orqali ifoda etsak bo'ladi: «Boylik, mol-mulkka egalik qilishdan emas, balki undan foydalanishdan iborat bo'ladi». Mazkur jumla lizingning asosiy g'oyasini to'liq namoyon etadi. Korxonalar yoki tadbirkorlar ishlash va daromad topish uchun mol-mulkka egalik qilish shart emas, balki muayyan muddat davomida undan foydalanishning o'zi kifoyadir. Bu ayniqsa asbob-uskunani mulk qilib sotib olish moliyaviy imkoniyatlar cheklangan korxonalar uchun muhim. Lizing mexanizmi bunday korxonalar uchun asbob-uskunadan muayyan muddat davomida maqbul miqdordagi lizing to'lovlari evaziga foydalanish huquqini qo'lga kiritish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ushbu asbob-uskunadan foydalanish muddati tugagandan so'ng uni korxonaning mulkiga o'tkazish imkoniyati ham mavjud.

«Lizing» atamasi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, lease-«ijara» degan ma'noni anglatadi. Ingliz tilida operativ va moliyaviy lizing tushunchalari mavjud. Bizning qonunchilikka ko'ra operativ lizing «ijara» degan ma'noni anglatadi, moliyaviy lizing esa moliyaviy ijara yoki lizing ma'nosini anglatadi. Shuning uchun «lizing» atamasi bizning sharoitlarda moliyaviy lizingni anglatadi.

Ba'zi mualliflar lizingni tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning alohida va o'ziga xos usuli deb hisoblaydilar, ikkinchilari uni uzoq muddatli ijara yoki uning bir shakli deb biladilar, uchinchilari lizingni ishlab chiqarish vositalarini yoki o'zgarar mol-mulkidan foydalanish huquqini sotib olish va sotishning pardali usuli deb

hisoblaydilar, to'rtinchilari esa lizingni o'zgarar hisobidan faoliyat yuritish deb, ya'ni ishongan kishining topshirig'iga binoan o'zgarar mulkidan foydalanish va uni boshqarish deb talqin qiladilar. Ayrim mutaxassislarning ta'kidlashicha, lizing–muayyan tovarga bo'lgan mulkchilik huquqini uchinchi shaxs uchun sotib olib, uni qisqa, o'rta yoki uzoq muddatli davrga ijaraga beradigan ixtisoslashgan lizing kompaniyasi vositachiligida asosiy fondlarga kapital qo'yilishini moliyalashtirishning o'ziga xos shaklidir. Lizingning bu ta'rifida, birinchidan, lizing moliyalashtirishning o'ziga xos shakli deb ta'kidlanadi.

Ikkinchidan, vositachi uchinchi shaxs uchun mulkchilik huquqini qo'lga kiritadi deb, va uchinchidan ijara munosabatlari mavjud, deb da'vo qilinadi. Bu ta'rifda lizing qatnashchilarining funksiyalarini ko'rsatishga harakat qilingan, ya'ni mulkni qo'lga kiritishni moliyalashtirish, mulkchilik huquqiga ega bo'lish, ijaraga topshirishga urinish kabilar ko'rsatiladi. Huquq nuqtayi nazaridan olganda bu ta'rif birmuncha darajada mantiqiy bo'lsa ham, ammo uchinchi shaxs uchun ijaraga topshirish bilan birga mulkchilik huquqi hamisha ham qo'lga kiritilavermaydi. Ijara munosabatlari vujudga kelishi va ijarachining mulkchilik huquqini qo'lga kiritish vaqti har doim ham mos kelmaydi, faqat ijara munosabatlari, egalik qilish munosabatlari va lizing mol-mulkidan foydalanish munosabatlarigina vaqt jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi mumkin. Mohiyati jihatidan qarz olish (kredit) munosabatlari ijara munosabatlaridan oldin sodir bo'ladi.

8.3. LIZING MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI


Chet el va mamlakatimizda nashr etilayotgan adabiyotlarda ta'kidlanishicha muayyan vaziyatga bog'liq tarzda lizing obyekti bo'lib, har qanday ko'chmas va ko'char mulk hisoblanishi mumkin. Bular amaldagi tasnifga ko'ra asosiy vositalar bo'lishi lozim, bozorda erkin muomalada bo'lishi ta'qiqlangan mulklar bundan istisno. O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq lizing obyekti bo'lib,

har qanday foydalanilmay turgan mulk, shu jumladan, korxonalar, mulkiy majmua, bino, inshoot, uskuna, transport vositasi va boshqa tadbirkorlikda foydalanish mumkin bo'lgan ko'chmas hamda ko'char mulk lizing obyektini bo'lishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda, deyarli barcha, ayniqsa lizingdan foydalanish keng tarqalgan mamlakatlar qonunchiligida lizing obyektini bo'lish xususida qator cheklovlar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonunida yer maydonlari va boshqa tabiiy obyektlar, shuningdek, erkin muomalada bo'lish qonunchilik yo'li bilan ta'qiqlangan yoki muomalada bo'lishning alohida tartibi belgilangan mulklar lizing obyektini bo'la olmasligi ta'kidlangan. Shu bilan birga mazkur qonunda alohida tartibda muomalada bo'lish talab etiladigan mulklar ro'yxati keltirilmaydi, bu o'z navbatida amaldagi qonunchilikka tegishli o'zgartish kiritishni talab etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda lizing obyektlari turli metodologik belgilarga asosan tasniflanadi (16-chizmaga qarang).


O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq lizing obyektining tasnifi sodda tarzda quyidagi ko'rinishga (17-chizmaga qarang) ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmaydigan ko'chmas va ko'char mulk lizing obyektini bo'lishi mumkin. Lizing obyektini bo'lib, faqat tadbirkorlik maqsadlarida foydalaniladigan, iste'mol etiladigan ashyolar hisoblanadi. Yer maydonlari, foydali qazilmalar, tabiiy boyliklar, qurol va o'q-dori, atom hamda gidroelektrostansiyalar va h.k. qonunchilik bilan erkin muomalada bo'lishi ta'qiqlangan yoki muomala qilishning alohida tartibini belgilash talab etiladigan va iste'mol etilmaydigan ashyolar bundan mustasno.

Metodologik nuqtayi nazardan mamlakatimizda va xorijda chiqayotgan adabiyotlarda lizing munosabatlari subyektini belgilash masalasi munozaraga sabab bo'lmoqda. Uch asosiy shaxs, odatda, klassik lizing subyektini hisoblanadi, bular: lizing beruvchi, lizing oluvchi va lizing mulkini ishlab chiqaruvchi (ko'pincha sotuvchi).



16-chizma. Lizing obyektlari umumiy tasnifi.




17-chizma. Mulk turi bo'yicha lizing obyektining tasnifi.

Amaldagi lizing munosabatlarida esa, odatda, lizing munosabatining boshqa subyektlari, lizingning asosiy ishtirokchilari o'rtasidagi vositachi sifatida jalb etiladi, shuningdek, sublizing oluvchilar ham. Lizing munosabatlari asosiy ishtirokchilari o'rtasida lizing bozori xizmatining malakali ishtirokchilari vositachilik qilishi mumkin.

Lizing obyektini uchinchi shaxsga vaqtincha foydalanish va egalik qilish uchun berish, ya'ni sublizing lizing beruvchining yozma roziligi asosida mumkin ekanligi O'zbekiston Respublikasida lizing subyektining va lizing munosabatining o'ziga xos jihati hisoblanadi. Bunda lizing oluvchi lizing beruvchi oldida lizing shartnomasi bo'yicha mas'ul bo'lib qoladi. O'zbekiston Respublikasi «Lizing to'g'risida»gi qonunining 4-moddasiga ko'ra lizing muayyan obyektiga nisbatan lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi va lizing oluvchi, shuningdek, lizing beruvchi kreditori va lizing obyektini lizingga oluvchi ayni bir shaxs bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Murakkab lizing operatsiyalarida qarz beruvchilar, lizing beruvchilar, yetkazib beruvchilar va lizing oluvchilar tomonidan bir qator yuridik shaxslar qatnashadi, chunki lizing kontraktiga turli vositachilar (distributorlar, dilerlar, brokerlar, sug'urta va trast kompaniyalar va boshqalar) jalb etiladi.



18-chizma. Lizing munosabatlari subyektlari.

8.4. LIZING OPERATSIYALARI TURLARI VA SHAKLLARI

Lizing operatsiyalari qo'shma lizing, moliyaviy lizing, bo'linma lizing, guruhli (aksiyadorlik) lizing, operativ lizing kabi turlarga ajratiladi.

Qo'shma lizing–lizing oluvchi lizing beruvchi oldida lizing shartnomasi yuzasidan javobgar bo'lib qolgan holda, lizing shartnomasi bo'yicha olgan obyektini lizing beruvchining yozma roziligidir.

Moliyaviy lizing–unda mulkka xizmat ko'rsatish va sug'urtalash lizing oluvchi tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutiladi hamda shartnomaning muddatidan avval bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Shartnoma muddati tugagach, foydalanuvchi mulkni sotib olishi, kelishuvni imtiyozli shartlarda yangilashi yoki munosabatlarni to'xtatishi mumkin. Moliyaviy lizing quyidagi turlarga bo'linadi:

Bo'linma lizing–asosiy maqsadi bir necha kredit tashkilotlarini yirik lizing loyihalarini moliyalashtirish uchun birlashtirish hisoblanadi. U lizing beruvchining bitta yoki bir necha kreditoridan lizing mulkining 80% qiymati miqdorida uzoq muddatli qarz olishni ko'zda tutadi. Bunda lizing beruvchi-qarzdor ssudaning to'liq va bir vaqtning o'zida qaytarilishi uchun javobgar bo'lmaydi, chunki ssuda qarz beruvchi tomonidan lizing to'lovlari hisobiga to'lanadi.

Guruhli (aksiyadorlik) lizingda lizing beruvchi rolini mulkni ishlab chiqaruvchi firmalari bilan banklar (lizing kompaniyalari) kooperatsiyasi bajaradi.

Bunda ishlab chiqaruvchilar hamkorlarni izlab topish va lizing obyektiga texnik xizmat ko'rsatishni, lizing kompaniyasi esa loyihalarning tashkiliy qismini ishlab chiqishni, ma'muriy masalalarni hal qilishni, maslahat xizmatlari ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi.

Moliyaviy lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

–shartnomaning muddati tugagach, lizing obyektini lizing oluvchining mulkiga o‘tadi;

–shartnoma muddati lizing obyektini xizmat muddatining 80% idan ortiq bo‘ladi yoki shartnoma muddati tugagach, lizing obyektining qoldiq qiymati uning boshlang‘ich qiymatining 20 foizidan kamini tashkil etadi;

–lizing oluvchi obyektini qat‘iy belgilangan narxda yoki shartnoma muddati tugaganida aniqlanadigan narxda sotib olish huquqiga ega;

–lizing shartnomasi davridagi to‘lovlarning umumiy summasi lizing obyektini qiymatining 90% idan ortiq. Lizing obyektini lizing oluvchi balansida hisobga olinadi.

Operativ lizing shartnoma muddati mulkning xizmat qilish muddatidan kam ekanligi bilan ajralib turadi. Shartnoma amal qilish muddati davomida lizing beruvchi faqat mulk qiymatining bir qisminigina to‘laydi. Bu holda mulkning qoldiq qiymati yuqori bo‘ladi va lizing beruvchi ushbu qiymatni qoplash uchun bir necha bor foydalanishga topshirishiga to‘g‘ri keladi. Agar lizing shartnomasida ko‘rsatilgan talablardan birortasi nazarda tutilmagan bo‘lsa, lizingning bunday turi operativ lizing hisoblanadi. Operativ lizingni amalga oshirish tartibi va shartlari qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Lizing obyektini lizing beruvchi balansida hisoblanadi

Bevosita–lizing beruvchi sifatida mulkni ishlab chiqaruvchi korxonaga ishtirok etadi va o‘z mulkini mustaqil ravishda lizing oluvchiga topshiradi.

Bilvosita–mulkni vositachi orqali lizingga berishni ko‘zda tutadi, ya‘ni uch tomonlama klassik bitim imzolandi yoki ishtirokchilar soni 4–7 kishi bo‘lgan ko‘p tomonlama bitim tuziladi.

Qaytma–mohiyati shundan iboratki, ishlab chiqaruvchi mulkni lizing kompaniyasiga sotadi, kompaniya esa o‘z navbatida mulkni xuddi shu korxonaning o‘ziga ijaraga beradi, ya‘ni mulk ishlab chiqaruvchi va lizing oluvchi yagona huquqiy shaxs hisoblanadi. Mazkur lizing turi moliyaviy holati qiyin bo‘lgan korxonalar uchun qiziqish uyg‘otadi.

Lizing operatsiyalari turlari

Belgilar	Tashkil etish shakli
Ishtirokchilar tarkibi	Bevosita
	Bilvosita
	Qaytma
	Ta'minotchi lizingi
Lizing obyekt	Ko'char mulk
	Ko'chmas mulk
Amortizatsiya shartlari	Lizing to'la amortizatsiyali
	Qisman amortizatsiyali
	Jadal amortizatsiyali
Bozor sektori	Ichki (bitta mamlakat ichida)
	Xalqaro lizing
Majburiyatlar hajmi	«Sof» lizing
	To'liq xizmatlar to'plamiga ega bo'lgan lizing
	Noto'liq xizmatlar to'plamiga ega bo'lgan lizing
	Bosh lizing

Ta'minotchi lizingi – uning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, mulkni yetkazib beruvchi sotuvchi va mulkdan foydalanuvchi hisoblanmagan asosiy lizing oluvchi rolini bajaradi. Lizing oluvchi albatta mulkni uchinchi shaxsga sublizingga beradi.

Ko'char mulk obyektlariga ishlab chiqarish va qurilish asbob-uskunalar, transport vositalari, kompyuterlar, stanoklar, tele va masofaviy aloqa vositalari va boshqalar kiradi.

Ko'chmas mulk obyektlarining tasniflanishiga ko'ra lizing quyidagi turlarga tasniflanadi: korxonalar, ishlab chiqarish binolari va inshootlarining sanoat lizingi, savdo, ombor, idora va importlar lizingi.

Lizing to'la amortizatsiyali, ya'ni to'la qoplanuvchi lizing, qisman amortizatsiyali lizingda qisman qoplanuvchi lizing ko'zda tutiladi.

Xalqaro lizing o‘z navbatida quyidagicha tasniflanadi:

- import lizingi–lizing beruvchi xorijiy mamlakat hisoblanadi;
- eksport lizingi–lizing oluvchi xorijlik bo‘ladi;
- tranzit lizing–bitimning uchchala ishtirokchisi ham turli mamlakatlarda bo‘ladi.

«Sof» lizingni amalga oshirishda lizing obyektiga xizmat ko‘rsatishni lizing oluvchi o‘z zimmasiga oladi va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar lizing to‘lovlariga kiritilmaydi.

To‘liq xizmatlar to‘plamiga ega bo‘lgan lizingning xususiyati shundaki, bunda lizing beruvchi tomonidan qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish–mulkka qarash, sug‘urtalash, zarur xomashyolarni yetkazib berish, malakali kadrlar bilan ta‘minlash, marketing xizmati ko‘rsatish va tayyor mahsulot reklamasini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Noto‘liq xizmatlar to‘plamiga ega bo‘lgan lizing bu shartnoma imzolagan tomonlarning lizing obyektiga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha vazifalarni avvaldan kelishgan holda taqsimlab olishdir. Masalan, lizing oluvchi mulkni ekspluatatsiya qilish normalariga rioya qilishni o‘z zimmasiga oladi, lizing beruvchi esa obyektini soz holda saqlash uchun xarajatlarni to‘laydi.

Bosh lizing oluvchi va lizing beruvchi o‘rtasida umumiy shartnoma tuzulishini ifodalaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Lizing bitimlarining paydo bo‘lishi qaysi davrlarga to‘g‘ri keladi?
2. Lizing mohiyatini tushuntirib bering.
3. «Lizing» atamasi qanday ma‘noni anglatadi?
4. lizing obyektini nimalardan iborat?
5. lizing operatsiyalari qanday turlarga ajratiladi?

9-bob. LIZING OPERATSIYALARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

9.1. LIZINGNING IQTISODIY MAZMUNI VA TA'RIFI

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, lizingga lizing mahsuloti ishlab chiquvchilar va iste'mol qiluvchilar, shuningdek, moliyaviy vositachilar, biznesning shu turi bilan shug'ullanuvchilar uchun bir qator muhim masalani hal etuvchi biznesning alohida turi sifatida qaraladi. O'zbekiston uchun tadbirkorlik faoliyatini moliyalashning yangi usulini keng qo'llash uchun, shuningdek, chet el lizing tajribasidan to'g'ri foydalanish uchun, nazarimizda lizing munosabatlar iqtisodiy tabiati va mohiyatini chuqur anglash lozim bo'ladi. Lizing mohiyatini to'g'ri tushunish, uning tabiatini atroflicha o'rganish, zamonaviy bozor iqtisodiyotida barcha funksiyalarni bajarish milliy iqtisodiyotda uni keng tatbiq etish va rivojlantirish uchun huquqiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

«Lizing» so'zi inglizcha bo'lib, «Lease» fe'lidan kelib chiqqan va taxminan, «mulkni ijaraga berish» yoki «mulkni ijaraga olish» ma'nolarini bildiradi. Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, mashina, jihoz, transport vositalari va boshqa ishlab chiqarishga taalluqli harakatlanuvchi mulkni uzoq muddatli ijaraga olishdir.

Bir qator maxsus adabiyotlarda ham shunga yaqin ta'rif beriladi, ularning mualliflari, lizing biznesiga xos ijara munosabatlarining uzoq muddatlilikini ta'kidlaydilar. Biroq o'z mohiyatiga ko'ra, bu munosabatlarning kredit xususiyatiga ega bo'lgan tabiatini ko'pincha inkor etadilar. Ko'pchilik mualliflar lizingning mohiyatini ochib beruvchi o'ziga xos xususiyatlarni nazardan chetda qoldiradilar. Ma'lumki, lizing oddiy ijara emas, balki bu uning o'ziga xos kreditga yaqinlashtiruvchi xossadir. Ijaradan farqli o'laroq unda, odatda, uchta va undan ortiq subyekt qatnashadi:

uskunalarni yetkazib beruvchi, lizing (moliya) kompaniyalari va foydalanuvchilar.

Iqtisodchilar orasida, «lizing – ijara haqidagi oddiy kengaytirilgan bitim» yoki «ijara butun muddati mobaynida ijaraga oluvchining mulkka egalik huquqi saqlangan ijara shartnomasi» yoki «lizing ijara munosabatlarining alohida turi» deb hisoblovchilar ham mavjud.

Ba'zi manbalarda qayd etilishicha lizing–vaqtincha bo'sh turgan yoki jalb etilgan mablag'larni investitsiyaga yo'naltirishga qaratilgan alohida turdagi tadbirkorlik faoliyatidan iborat bo'lib, bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan bir shaxs shartnomada belgilangan mulkni muayyan sotuvchidan sotib olib, uni haq evaziga boshqa shaxsga tadbirkorlik maqsadlarida vaqtincha foydalanish uchun berib qo'yish majburiyatini oladi.

Afsuski, yuqorida keltirilgan barcha ta'riflarda lizing munosabatlarining u yoki bu jihatigina ta'kidlanadi, ammo ularning birontasida lizingning iqtisodiy mohiyatini asil ma'noda ifodalaydigan belgilar va funksiyalar ifodalab berilmaydi. Fikrimizcha, lizingning mohiyatiga chuqur kirib borib, uning to'g'ri ta'rifini berish uchun lizingning kelib chiqish tarixiga murojaat qilish, lizing munosabatlari kelib chiqishidagi moliyaviy-iqtisodiy muhitni hisobga olish, shuningdek, lizing paydo bo'lgan va rivojlangan mamlakatlardagi makroiqtisodiy vaziyatni e'tiborga olish lozim. Bizningcha, lizingni ta'riflovchi mualliflarning bilim doirasi va professional maqomini ham e'tiborga olish zarur. Jumladan, huquqshunoslarning o'z yondoshuvi bor, iqtisodchilar o'zgacha yondoshishlari mumkin. Moliyachilar esa lizingni butunlay boshqacha ta'riflashlari mumkin. Bundan tashqari lizingga lizing munosabatlarining turli qatnashchilari (lizing beruvchilar, lizing oluvchilar yoki moliyaviy vositachilar) tomonidan bo'ladigan qarashlarni hisobga olish kerak.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish vositasi bo'lmish lizing raqobat natijasida paydo bo'lgan va uning muayyan afzalliklariga ega. Tadbirkorlik faoliyati uchun investitsiya resurslarini qidirib topish yoki mulkni qo'lga kiritish, unga egalik qilish va

undan foydalanish huquqini olishning boshqa usullariga nisbatan lizingning u yoki bu afzalliklari turli huquqiy va iqtisodiy makonlarda turlicha namoyon bo'ladi. Ya'ni lizing mol-mulkidan tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish imkoniyatini olish vositasi sifatida lizingdan ko'riladigan manfaatlar yoki zararlar, uning afzalliklari yoki kamchiliklari iqtisodiy, shu jumladan, huquqiy, moliya-kredit munosabatlarining darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro lizing bitimlari tuzilganida bu bitimlarning kuch-quvvati xalqaro iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning rivojlanish darajasi bilan, lizing munosabatlarida qatnashuvchi tegishli mamlakatlarning qonunchiligi bilan belgilanadi. Nazarimizda, lizing bitimlari tuzilmog'i uchun tadbirkor tomonidan mol-mulkni qo'lga kiritish yoki unga egalik qilish va undan foydalanish huquqini olish variantlarini taqqoslash yo'li bilan, investitsiyalashga oid tegishli qarorlar qabul qilinadi, ko'char yoki ko'chmas mulkni sotishga oid mustaqil qarorlar ham uning mulkdori (ishlab chiqaruvchisi, sotuvchisi, ijaraga beruvchisi) tomonidan qabul qilinadi. Moliyaviy kapital egasi ham, o'z navbatida, resurslarni qo'yish va diversifikatsiya qilish xususida o'z qarorlarini qabul qiladi. Ayni vaqtda, har bir tomon o'z qarorlarini chamalab ko'radi, o'zaro manfaatlar mos kelgan taqdirdagina va kelgusida manfaat ko'rishiga ko'zi yetgan holatda lizing bitimini tuzishga qaror qiladi. Xullas, lizing ko'char va ko'chmas mulkni qo'lga kiritish, unga egalik qilish va undan foydalanish huquqini olishdagi an'anaviy usullarga nisbatan muqobil yoki asosiy kapitalga resurslarni moliyalashning muqobili ekanligi ravshan bo'ladi.

Keyingi vaqtlarda xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda lizing biznesning alohida turi deb talqin qilinmoqda. Ba'zi mualliflar lizing biznesi to'g'risida mulohaza yuritib Rim huquqining mulkning mulkdori va foydalanuvchisi tushunchalarini bir-biridan farqlash to'g'risidagi klassik prinsiplarga ishora qiladilar. Ha, darhaqiqat lizing munosabatlari mol-mulkning qismlarini ikki eng muhim vakolatga bo'lish imkoniyatiga asoslanadi. Ularning birinchisi mol-mulkdan foydalanish, ya'ni undan daromad yoki boshqa manfaat olish maqsadida foydalanish bo'lsa, ikkinchisi shaxsning mulkchilik obyekti ustidan huquqiy hukmronligi tarzidagi mulkchilik huquqi-

ning o'zidir. Lizingni rivojlantirish va undan foydalanishning ko'p asrlik tajribasiga ko'ra, bo'yluk pirovard natijada bevosita mulkka egalik qilishdan iborat emas, balki shu mol-mulkdan samarali foydalanishdan iborat.

Ayrim iqtisodchilar, lizingni vaqtincha bo'sh turgan yoki jalb etilgan moliyaviy mablag'larni investitsiyalashga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatining bir turi deb ta'riflaydilar. Bunday ta'riflar mualliflari haqiqatan ham lizing biznesi tadbirkorlik faoliyatining alohida turi bo'lgan rivojlangan iqtisodiyotlardagi moliyaviy vositachilikning, shu jumladan, lizing kompaniyalarining darajasi yuqori bo'lgan moliyaviy institutlar qudratli infratuzilmasi rivojlangan sharoitga asoslanadilar. Lizing kompaniyalarining bo'sh moliyaviy resurslarini jalb etish imkoniyatlari va ularning salmoqli o'z kapitallari borligi bilan izohlanadi. Lizing institutlari endigina paydo bo'layotgan O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatda bozor munosabatlarining qonunchilik negizini shakllantirish bilan birga lizing ham tadbirkorlikning alohida turiga aylangani yo'q. Shu sababli, nazarimizda, lizing investitsiyalarni moliyalashtirish shakllari yoki usullaridan biridir, deb hisoblayotgan mualliflarning fikrini qo'llab-quvvatlash mumkin.

Hozirgi paytda xorijiy mamlakatlarda «lizing» tushunchasining yagona talqini mavjud emas. Kimdir lizingni kreditlashning o'ziga xos shakli deb tasavvur qilsa, boshqalar uni uzoq muddatli ijaraga o'xshatadilar. Ba'zilar lizingni ishlab chiqarish vositalari oldi-sotdisining yashirin usuli deb qarasa, boshqa birov lizingni o'zgalar mulkini ishonch qog'ozi beruvchining topshirig'i bo'yicha boshqarish bilan bog'laydilar.

Lizing atamasining hozirgi talqini Aristotelning («Ritorika» asaridagi) so'zlariga borib taqaladi. Unda aytilishicha bo'yluk–bu mulkka xususiy mulk sifatida egalik qilish emas, balki undan (mulkdan) oqilona foydalanishdir. Bu fikr lizingning mohiyatini juda aniq izohlaydi: foyda olish uchun ishlab chiqarish vositalari yoki boshqa turdagi mulkka ega bo'lish shart emas, undan foydalanish va daromad olishning o'zigina yetarli dir. «Lizing» tushunchasi «mulk»ni egalik qilish huquqi va foydalanish huquqiga taqsimlashga asoslanadi.

O‘zbek tilida lizing atamasiga aynan mos keluvchi so‘z mavjud emas. Semantika (so‘zning ma’no jihatidan) nuqtayi nazaridan bu atamaga ko‘proq ijara va ijaraga berish so‘zlari to‘g‘ri keladi. Shu sababli ko‘p hollarda lizing atamasi turli texnika vositalari, binolar va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan inshootlarni uzoq muddatli ijaraga berish sifatida talqin qilinadi. Ijaraga berish uch tomonlama bitim doirasida amalga oshirilib, unda moliyalashtiruvchi lizing kompaniyasi (lizing beruvchi) mulkni mulk ishlab chiqaruvchidan (mulk egasidan) mijozning (lizing oluvchining) tanlovi asosida sotib oladi va uni mijozga ijaraga beradi, bunda egalik huquqi lizing kompaniyasida (lizing beruvchida) qoladi. Lizing qatnashchilari o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar bir necha shartnomalarning mavjudligini asoslab beradi, bu esa lizing operatsiyalarining alohida elementlariga yangicha xislatlar taqdim etadi va ularni bir-biri bilan chambarchas bog‘laydi. Xususan, asosiy lizing shartnomasidan tashqari, oldi-sotdi, kredit, kafolat, xizmat ko‘rsatish kabi boshqa shartnomalar ham o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Lizingga xos xususiyatlardan biri bu shartnomalarning murakkab tarzda birlashuvi va bunda yuzaga keluvchi munosabatlarning o‘zaro chambarchas bog‘lanishidir. Bunda mulkni vaqtinchalik foydalanishga berishdagi munosabatlar asosiy hisoblanadi.

Mulkiy munosabatlar nuqtayi nazaridan lizing bitimi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita tarkibiy qismdan—oldi—sotdi munosabatlari va mulkdan vaqtinchalik foydalanish bilan bog‘liq munosabatlardan iborat. Majburiyat huquqi nuqtayi nazaridan bu munosabatlar ikki turdagi shartnomalar—oldi-sotdi va lizing (mulkni vaqtinchalik foydalanishga berish) shartnomalari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Lizing shartnomasida shartnoma muddati tugagach mulkni sotish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, bu holda mulkdan vaqtinchalik foydalanish munosabatlari oldi-sotdi munosabatlariga aylanadi. Faqat bu safar munosabatlar lizing beruvchi va mulkdan foydalanuvchi o‘rtasida bo‘ladi.

Lizingga xos bo‘lgan jihatlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, uning murakkab uch tomonlama asosini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra lizing xuddi kredit bitimlaridagi kabi, mablag‘larni qaytarib olish shartida asosiy kapitalga kiritishni

anglatadi. Boshqa tomondan, bitim ishtirokchilari kapitaldan pul ko'rinishida emas, balki ishlab chiqarish shaklida foydalanadilar, bu esa uni investitsiyalash bilan yaqinlashtiradi. Uchinchidan esa, lizing ijara mexanizmi bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq yuqorida sanab o'tilgan munosabatlarning lizingga aynan xosligi to'g'risida gapirish noto'g'ri bo'lar edi. Chunki ulardan hech biri alohida holda lizingda mulkchilik munosabatlari majmuasini tartibga sola olmaydi. Ulardan bir vaqtning o'zida foydalanish va ularning o'zaro bog'liqligiga lizingni iqtisodiy faoliyatning yangi shakli sifatida yuzaga keltiradi.

Demak, lizing murakkab, dinamik tizim bo'lib, o'z ichiga investitsiya, kredit va keyinchalik mulkchilik huquqini o'zgartirish mumkin bo'lgan ijara bitimlari elementlarini kiritadi. Natijada ishlab chiqarish vositalarini ularni sotib olish va keyinchalik ijaraga berish yo'li bilan vaqtinchalik foydalanishga berish bilan bog'liq mulkchilik munosabatlari majmuasi amalga oshiriladi.

Endi lizingga xos bo'lgan asosiy xususiyat va xislatlarni sanab o'tamiz. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mulk va mulk ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)ni tanlash huquqiga mulkdan foydalanuvchi ega.

2. Mulk sotuvchisi mulkni lizingga berish uchun sotib olinayotganligini biladi.

3. Mulk mulk egasiga berilmasdan bevosita foydalanuvchiga beriladi va foydalanuvchi tomonidan ekspluatatsiyaga qabul qilinadi.

4. Mulkdan foydalanuvchi kamchilik va nuqsonlar aniqlangan holda o'z e'tirozlarini mulk egasiga emas, balki hech qanday shartnoma munosabatlari bilan bog'liq bo'lmagan sotuvchiga bevosita bildiradi.

5. Lizingga beruvchi mulkni o'zi foydalanishi uchun emas, balki uni vaqtinchalik foydalanishga berish uchun atayin xarid qiladi.

6. Lizing shartnomasi amal qilayotgan davr mobaynida mulk lizingga beruvchining mulki hisoblanadi.

7. Mulk egasiga uni vaqtinchalik foydalanishga berish uchun haq to'lanadi.

8. Mulkdan foydalanuvchi muddatidan oldin yoki shartnoma muddati tugagach uni sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

9.2. LIZING TO'LOVLARI MOHIYATI

Chet el iqtisodiy adabiyotlarida lizing to'lovi hisob-kitobiga yondashish o'zining uslubiy tavsifiga ko'ra xilma-xil bo'lib, bular mohiyatan bir-biridan o'z mazmuni va umumiy lizing to'lovi har bir unsurini belgilash usullariga ko'ra farqlanadi. Masalan, lizing to'g'risidagi Rossiya qonunchiligida lizing to'lovini belgilash usulida lizing to'lovi tarkibiga lizing shartnomasi xizmati bo'yicha lizing beruvchi to'laydigan qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olinadi. Bu soliq miqdori amortizatsiya ajratmasi, kredit resurslar uchun to'lov, lizing beruvchi komission mukofoti, lizing shartnomasida ko'zda tutilgan lizing beruvchining qo'shimcha xizmati to'lovi kabi lizing stavkasiga qo'shiladigan shunday to'lovlar umumiy miqdoridan hisoblab chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonunida quyidagilar lizing to'lovi tarkibiga kiritilgan:

- a) lizing obyekti amortizatsiyasining tegishli qismining qiymati;
- b) lizing bitimi bo'yicha lizing beruvchining chiqimlari;
- d) lizing beruvchi daromadi (marjasi).

Yuqorida bayon etilganlar bilan bog'liq ravishda, lizing stavkasi (lizing to'lovi)ga qo'shiladigan unsurlar tarkibini aniqlash va lizing to'lovi unsurlarini hisoblash usulini takomillashtirish zarurati yuzaga chiqadi.

Lizing to'lovi tarkibiga quyidagi unsurlar kiritilishi lozim:

- 1) lizing mulki amortizatsiyasi;
- 2) lizing bitimini amalga oshirish uchun lizing oluvchi jalb etadigan kredit resurslar uchun to'lov;
- 3) komission mukofot;
- 4) tavakkalchilik mukofoti;
- 5) lizing beruvchi lizing oluvchiga qo'shimcha xizmat ko'rsatganligi uchun to'lov;
- 6) agar lizing beruvchi sug'urtalagan bo'lsa, lizing mulki sug'urtalangani uchun to'lov.

Lizing to'lovlari lizing mulkidan foydalanishdan keladigan foydadan amalga oshirilishini, ya'ni ijara to'lovi hisoblanishini nazarda tutib, ular amalda soliqqa tortilishi kerak emas. Lizing bo'yicha

to'lovlar qayd etilgan bo'ladi, chunki ular shartnomada belgilanadi va valuta kursi o'zgarib turishiga va o'rta muddatli hamda uzoq muddatli kreditlash bo'yicha bank foizlari o'zgarishiga bog'liq emas.

Muqobillik bo'lgan holda, ya'ni yoki ssuda yordamida lizing olish, yoki uni lizingga olishdan birini tanlash imkoni bo'lganda lizing oluvchi yuqorida qayd etilgan usullarning har biri bo'yicha qilinadigan sarflarni qiyoslashi lozim. Bunday paytda uslubiy ma'noda jiddiy muammo yuzaga keladi: bu qiyosni qanday amalga oshirish kerak; qachon to'lovlar miqdori bir xil bo'ladi-yu, lekin vaqt bo'yicha farqlanish, bir xilda hisoblanmaydi. Bu murakkab masalani hal etishda to'lovlarning moliyaviy muqobilligini hisobga olish zarur. Ayni bir vaqtga keltirilgan to'lovlar muqobil bo'lib, bir-biriga teng keladi. To'lovlarni vaqt bo'yicha yagona davrga keltirilish jarayoni diskontlash deyiladi, buning natijasida olingan miqdor sof joriy qiymat deb ataladi. Lizing mulkini olishning yuqorida keltirilgan ikki talqinini qiyoslash uchun quyidagilarni hisobga oluvchi to'lovning sof joriy qiymati hisoblab chiqiladi:

- har bir variantning soliq imtiyozi;
- amortizatsiya imtiyozidan foydalanish imkoni;
- texnika xizmati bo'yicha lizing beruvchi chiqimi;
- qoldiq qiymatga bo'lgan huquq.

Qarzning, bank ssudasi yoki lizing yordamida olinadigan mulkni olish variantining qiyosiy samarasi xususida bir qarorga kelishda sarflarni vaqt bo'yicha me'yorga keltirish (diskontlash foizi) alohida ahamiyat kasb etadi. Lizing samaraliligi moliyaviy ko'rsatkichi barcha soliqlar to'langandan keyingi pul mablag'i harakatlanishining tahlili yordamida baholanadi. Mazkur qiymatlarga turli mamlakatlardagi qonunchilik xususiyati, soliqqa tortish tizimi, foiz siyosati ta'sir etadi. AQSh bozorida, masalan, lizing iqtisodiy samarasini baholashda lizing bitimi umumiy qiymati, moliyaviy lizing stavkasi, foydaning kutilayotgan me'yori belgilanadi. Lizing yordamida sotib olish varianti bilan bank krediti hisobiga uskunalar sotib olishda shakllanadigan foyda me'yorini qiyoslash asosida u yoki bu variant foydasiga baholash amalga oshiriladi.

Lizing beruvchining lizing bitimi samarasini baholashi mulkka egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, tavakkalchikillar

qiyosiy darajasini e'tiborga olgan holda olinadigan pul mablag'i joriy qiymatidan soliq to'langandan so'ng lizingdan tushadigan pul mablag'i joriy qiymatini qiyoslashga asoslanadi. Lizing lizing oluvchi nuqtayi nazaridan katta moliya leverijini ta'minlaydi, ya'ni u soliq imtiyozlarini lizing mulkidan foydalanuvchidan kapital yetkazib beruvchi zimmasiga o'tkazadi. Agar bu tomonlar turli soliq imtiyozlari sharoitida bo'lsa, bunda ular, o'zlari o'rtasida tuziladigan lizing bitimini tuzish va amalga oshirish hisobiga oladilar.

Lizingning umumiy samarasiga lizing to'lovlarini to'lash usuli va davriyligi ham ta'sir etadi. Lizing to'lovlarini teng ulushlarda to'lash, ayniqsa, kamayib boruvchi miqdorlarda to'lash lizing oluvchi uchun qulay, oshib boruvchi miqdorlarda to'lash esa lizing oluvchi uchun qulay.

Sof joriy qiymat asosida lizing to'lovlari bo'lajak qiymatlarga keltirish yo'li bilan diskontlash asosida kutilayotgan natijalarni qiyoslash lizing yakuniy samarasini baholashda muhim hisoblanadi.

9.3. LIZING OPERATSIYALARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI

O'zbekistonda soliqqa tortish tartibini yo'lga soluvchi asosiy normativ-huquqiy akt—bu 1998-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan Soliq kodeksi hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim soliqlarni hisoblash va to'lash tartibiga taalluqli masalalar hamda alohida soliq stavkalari hukumat qonunosti aktlari yoki vazirlik va boshqarmalar tomonidan (ular mas'uliyati chegarasida) yo'lga solinadi.

Soliqqa tortish maqsadida operatsiyalarning lizingli (kategoriyasiga) tegishlilik talablari «Lizing haqidagi» qonunlarga mosdir. Lizing subyektlariga umumiy soliqqa tortish shartlari qo'llaniladi va quyida keltirilgan QQS, foyda va mol-mulk soliqlari bo'yicha bir qator imtiyozlar beriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar kuchga ega:

1. Umumdavlat soliqlari:
 - qo'shilgan qiymat solig'i (QQS);
 - yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i;

- jismoniy shaxslar daromad solig‘i;
- aksiz solig‘i;
- yerosti boyliklaridan foydalanganligi uchun soliq;
- ekologiya solig‘i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

2. Mahalliy soliq va yig‘imlar:

- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;
- jismoniy shaxslardan benzin, dizel yonilg‘isi va suyuq gazdan transport vositalari uchun foydalanish solig‘i;
- savdo qilish huquqi uchun yig‘im, alohida turdagi tovarlar bilan savdo qilish huquqini beruvchi litsenzion yig‘imlarni ham o‘z ichiga oladi.
- yuridik hamda tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni qayd etish uchun yig‘im.

O‘zbekistonda lizing to‘lovlari QQSdan ozod qilingan. Import qilinuvchi tovarlar (ish, xizmatlar). QQSga tortiluvchi import tovarlar (ish, xizmatlar) hajmiga bojxona qonunchiligiga muvofiq tovarlar (ish, xizmatlar) bo‘yicha belgilangan bojxona narxi qo‘shiladi hamda O‘zbekistonga tovarlarni (ish, xizmatlarni) import qilishda to‘lanuvchi aksiz solig‘i, bojxona bojlari qo‘shiladi.

Agar importchiga xizmat ko‘rsatuvchi bankning tasdiqlovi bo‘lsa, O‘zbekistonga kiritilayotgan texnologik uskuna QQSdan ozod qilinadi.

Soliqqa tortish obykti sifatida yalpi daromad va soliq chegirmalari yig‘indisi belgilanadi. Foyda (daromad) solig‘i stavkasi 20%. Soliqqa tortish soliq daromadini hisoblab berish yo‘li bilan amalga oshiriladi, ya‘ni foydalar va ular bo‘yicha mos chegirmalar soliqlarini hisoblash uchun tegishli bo‘lgan hisobot davrida ko‘rsatiladi.

Lizing oluvchining umumiy (to‘lig‘) daromadidan soliqqa tortish bazasini belgilashda butun lizing to‘lovi chegirilmaydi, balki faqat uning bir qismi chegiriladi. Shuningdek, lizing oluvchi yalpi daromadidan lizing predmeti amortizatsiyasi summasi hamda lizing beruvchining umumiy tartibdagi barcha boshqa xizmatlarning narxi chegiriladi.

Lizing oluvchi balansida lizing obyektini aks ettirishini hisobga olsak, lizing predmeti amortizatsiya ajratmalarini lizing oluvchi hisoblaydi. Soliq Kodeksiga mos ravishda, foydani soliqqa tortish maqsadida amortizatsiya ajratmalari lizing oluvchida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi boshqaruv hisobi maqsadida amortizatsiyaning bir necha usullarini qo'llashi mumkin. Soliq Kodeksida ko'rsatilgan normalariga asoslanib, amortizatsiya ajratmalarini chegirishni amalga oshirish mumkin. Amortizatsiya ajratmalari summasi asosiy vositalar boshlang'ich (tiklanuvchi) narxi va shaxsiy, ijaraga olinuvchi asosiy vositalar uchun umumiy normalarida amalga oshiriladi (9.3.1-jadval).

9.3.1-jadval

Asosiy vositalar guruhlarining amortizatsiya normalari

Asosiy vositalar guruhlari	Amortizatsiya normalari
1. Yengil avtomobillar, taksi, yo'llarda ishlatiluvchi avto-traktor texnikasi, maxsus moslamalar, inventar va periferiyalar. Kompyuterlar, periferik jihozlar va ma'lumotni qayta ishlovchi mashinalar	20%
2. Yuk tashuvchi avtomobillar, avtobuslar, maxsus avtomobillar va avtopritseplar. Sanoatning barcha sohalari uchun mashina va uskunalar, quyma ishlab chiqarish, temirchilik-presslash uskunolari, qurilish uskunolari, qishloq xo'jaligi mashinalari va uskunolari. Ofis mebellari	15%
3. Temiryo'l, dengiz, daryo va havo transporti vositalari. Kuch mashinalari va uskunolari: issiqlik-texnik uskunolari, trubina, elektrodvigatellar va dizel generatorlari. Elektr-uzatish va aloqa qurilmalari quvurlari	8%
4. Bino, inshoot va qurilmalar	5%
5. Boshqa guruhlarga qo'shilmagan aktivlar	10%

Shunday qilib, soliqqa tortish bazasini aniqlashda amortizatsiya ajratmalari belgilangan normalar chegarasidagina chegirilib tashlanadi. Tezkor amortizatsiya yo'li bilan hisoblangan summa va yuqorida aytib o'tilgan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summalari ortasidagi farq chegirilmaydi.

Lizing beruvchining lizing operatsiyasini amalga oshirishdan oluvchi daromadi buxgalteriya hisobi tamoyilari asosida aniqlanadi. Lizing beruvchining daromadi lizing to'lovlari summasi va lizing predmetining qoldiq qiymati orasidagi farqdir. Lizing beruvchining daromadi grafik bo'yicha olinishi lozim bo'lgan davrda hisoblash usulida hisoblanadi.

O'zbekistonda Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi chegarasida qisqa muddatli kreditlar bo'yicha soliq to'lovchi to'laydigan foizlar yalpi daromadidan chegiriladi. Biroq kredit hisobidan lizingning moliyalashtirilishi ustunlikka ega—lizing beruvchi lizing predmetini sotib olishga olingan kredit muddati va foiziga qaramay, foiz summalari va boshqa belgilangan kredit to'lovlarini chegirishi mumkin.

Lizing oluvchining yalpi daromadidan lizing to'lovining butun summasi emas, balki bir qismi, ya'ni lizing beruvchining daromadi (foizi) chegiriladi. Shuningdek, lizing predmeti summasi chegiriladi.

O'zbekiston soliq qonunchiligiga mos ravishda, chet el valutasida ko'rsatilgan balans moddalari bo'yicha ijobiy kurs farqi (milliy valuta kursi pasayishidan kurs farqi) daromad, salbiy kurs farqi mos ravishda—chiqim sanaladi. Ijobiy kurs farqi soliqqa tortish bazasini kattalashtiradi, salbiy kurs farqi esa foyda solig'ini hisoblashda soliqqa tortish bazasidan chegiriladi.

Soliq kodeksiga muvofiq, norezident daromadi (foydasi) O'zbekistonda muhim o'rnatilishi bilan bog'liq bo'lmasa, O'zbekistondagi to'lov manbayidan soliqqa tortiladi va yalpi daromadi bo'yicha chegirmalar qilmaydi. Manbani soliqqa tortish O'zbekiston Respublikasida yoki uning tashqarisida to'lov bo'lganligiga qaramasdan qo'llaniladi. Xalqaro lizing shartnomalari bo'yicha norezident—lizing beruvchilar daromadi, lizing oluvchi tomonidan lizing to'lovi ichida (to'lanadigan) 20% li stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Lizing beruvchi—norezident daromadini soliqqa tortilishga yana ta'sir etuvchi omil—bu lizing beruvchi va lizing oluvchi davlat yurisdiksiyalarga kiruvchilar orasida ikki tomonlama soliqqa tortilishni aylanib o'tish haqidagi ikki tomonlama kelishuv mavjudligi. Odatda, bunday kelishuvlar ijara (lizing) to'lovlariga

nisbatan norezident daromadlariga soliq chegaralanadi, stavka norezidentga to'lovlarning 10% dan oshmasligi kerak.

Soliqqa tortish obyekti chegirmalarni hisobga olgan holda yillik yalpi daromad hisoblanadi. Jismoniy shaxslar yillik yalpi daromad pul va boshqa vositalar qo'shiladi. Soliq to'lovchi tomonidan olinishi kutilgan (olingan) daromadlar:

- ish haqini to'lash ko'rinishidagi daromad;
- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari;
- jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatidan daromadlar.

Soliq stavkasi daromad hajmiga bog'liq ravishda 13% dan 32% gacha differensiyalashadi.

Aksiz solig'iga O'zbekistonda ishlab chiqarilgan va import qilinadigan aksiz tovarlar tortiladi.

Aksiz solig'i quyidagi tavalardan olinmaydi:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan alohida tovarlar ro'yxatidan tashqari, barcha eksport tovarlari;

– xususiy ehtiyojlari uchun budjet assignatsiyalari hisobidan budjet tashkilotlari (yoki ular buyurtmalari bo'yicha) tomonidan O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan tovarlar.

Aksizosti tovarlari ro'yxati va aksiz solig'i stavkasi O'zbekiston hukumati tomonidan o'rnatiladi va qayta ko'rib chiqiladi. Lizing predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan aksizosti tovarlariga «O'zdeuavto» QK ishlab chiqaruvchi avtomobillarni kiritish mumkin. Ularga soliq stavkasi 22,5% o'rnatilgan hamda video va audioapparatlarga soliq stavkasi–5% ga teng.

Import qilinayotgan aksizosti tovarlar uchun aksiz solig'i bojxonada rasmiylashtirishdan oldin yoki rasmiylashtirish mobaynida to'lanadi.

Lizing predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan import qilinayotgan aksizosti tovarlariga transport vositalari, sovitish va muzlatish uskunalari, video va audioapparatlarga, mebellar kiradi.

Soliqqa tortish obyekti–ishlab chiqarish xarajatlari va davr xarajatlari hisoblanadi, bundan budjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar va davlat maqsadli fondlariga ajratmalar mustasno. Ekologiya solig'i 1% stavka bilan to'lanadi.

Lizing kompaniyalarda lizing operatsiyalari bo'yicha soliqqa tortish obyektini quyidagi davr xarajatlaridir:

- ma'muriy-boshqaruv yig'implari;
- realizatsiya yig'implari;
- boshqa operatsion yig'implar (budgetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'implar, yo'l fondiga ajratmalari, 0,5% hajmda nafaqa fondiga ajratmalar bundan mustasno).

Yuridik shaxslar uchun soliqqa tortish obyektini – nomoddiy aktivlar va asosiy vositalarning o'rta yillik qoldiq qiymatidir hamda o'z vaqtida tugatilmagan qurilish obyektining bahosi. Soliq stavkasi – 3%. Normativ muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar (ishlatilmayotgan uskunalar) uchun mol-mulk solig'i ikkilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Lizing predmeti kimning balansida bo'lsa, o'sha mol-mulk solig'ini to'laydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustdagi № 3122 qaroriga muvofiq 2001-yil 1-sentabrdan lizing oluvchilar lizing predmeti bo'yicha mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod qilinganlar.

Jismoniy shaxslari soliqqa tortish obyektini – ularga tegishli bo'lgan turar joylar, xonadonlar, dacha va bog' uylari, garaj va boshqa qurilmalar, joylar va inshootlardir. 1998-yil 1-yanvardan so'ng qayta baholangan soliqqa tortish obyektlari bo'yicha soliq stavkasi 0,5%, qayta baholanmaganlar uchun esa – 7%.

Soliqqa tortish obyektini – barcha soliqlarni to'lashdan keyin qolgan foydadir. Soliq stavkasi – korxonada qolgan sof foydaning 8% hajmida belgilanadi.

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, mikrofirmalarga ishchilar o'rtacha yillik soni quyidagicha bo'lgan korxonalar kiradi:

- ishlab chiqarish sohalarida 10 kishidan ortiq emas;
- savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohalarida 5 kishigacha.

Kichik korxonalarda o'rtacha yillik ishchilar soni esa:

- sanoat sohasida 40 kishigacha;
- qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishigacha;

– ilm-fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, chakana savdo va boshqa noishlab chiqarish sohalari tarmog‘ida 10 kishigacha.

Mikrofirma va kichik korxonalar o‘z ixtiyorlari bilan, soliqqa tortishning soddalashgan tizimini qo‘lamlari yoki bu kategoriya soliq to‘lovchilar uchun nazarda to‘tilgan barcha soliqlar yig‘indisini to‘lamlari mumkin. Soliq to‘lashning soddalashgan tizimi umum-davlat soliqlari yig‘indisini to‘lash o‘rniga yagona soliqni to‘lashni nazarda tutadi, unga shuningdek quyidagilardan tashqari mahalliy soliq va yig‘imlar kiradi:

– savdo qilish huquqi uchun yig‘im, unga alohida tovarlar bilan savdo qilish uchun litsenziya yig‘imlari ham kiradi;

– yuridik shaxslarni registratsiya qilish uchun yig‘im.

– yagona soliq stavkasi va uni to‘lash tartibini Vazirlar Mahkamasini belgilaydi. 2003-yil 1-yanvardan yagona soliqning quyidagi stavkalari amalda (9.3.2-jadval).

9.3.2-jadval

Soliq stavkalarni to‘lash tartibi

To‘lovchilar	Tovar (ish, xizmat) sotuvi hajmidan %
Sotib oluvchi, ta‘minlovchi-sotuvchi korxonalar, brokerlik firmalari	30 (yalpi daromaddan foizda)
Shaxsiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar	50
Gastrol-konsert faoliyati uchun litsenziyasi bor jismoniy va yuridik shaxslar hamda norezidentlarni jalb qilgan holda ommaviy tomosha tadbirlarni tashkillashtirishdan daromad oluvchi korxonalar	35
Qishloq xo‘jaligi korxonalari, bulardan yagona yer solig‘ini to‘lovchi g‘ishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mustasno	6
Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar	12 (lizing kompaniyalar uchun lizing beruvchi daromadidan foizda)

Soliqqa tortish bazasiga, shuningdek, quyidagilar kiradi:

– sotilgan mulk va boshqa aktivlar bahosi;

– moliyaviy faoliyatidan daromadlar. Bunda balansning valuta qatorlarini qayta baholashdan daromad–ijobiy va salbiy kurs farq-

lari orasidagi saldo hisoblanadi. Ijobiy saldo soliqqa tortish bazasiga qoʻshiladi, salbiy saldo esa soliqqa tortish bazasini pasaytiradi;

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq belgilanuvchi boshqa daromadlar.

9.4. LIZING OPERATSIYALARINI BOJXONA ORQALI TARTIBGA SOLISH

Oʻzbekistonda bojxona nazorati Bojxona Kodeksi, «Bojxona taʼrifi toʻgʻrisida»gi qonun, Prezident qarorlari, Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasi qarorlari va qonunchilikning boshqa aktlari bilan amalga oshiriladi.

Tovarlarning Oʻzbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan oʻtishida yuridik shaxslar quyidagi asosiy bojxona toʻlovlarini toʻlaydilar:

- bojxona boji;
- qoʻshilgan qiymat soligʻi (QQS);
- aksiz soligʻi;
- bojxona rasmiylashtiruv uchun bojxona yigʻimi.

Hisoblash va toʻlash tartiblari, QQS stavkasi va aksiz soligʻi stavkasi soliq qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Oʻzbekiston eng yaxshi sharoitlar rejimini qoʻllovchi davlatlardan import qilinayotgan tovarlar uchun bojxona bojlari hukumat tomonidan belgilanadi va doimo koʻrib chiqiladi. Odatda, stavkalar import qilinayotgan tovarlarning bojxona bahosidan 0 dan 30% gacha oʻzgaradi. Transport vositalariga esa, ularning dvigatellar hajmiga qarab stavkalar belgilanadi.

Bojxona bojlari aniq stavkasining qoʻllanilishi tovar klassifikatsiyasi (turi), import kelib chiquvchi tovar kabi omillarga bogʻliq.

Kelib chiqishi oʻrnatilmagan hamda eng yaxshi sharoitlar rejimi qoʻllanuvchi davlatlarga kirmaydigan davlartlardan kelgan tovarlar uchun import bojxona bojlari stavkalari ikkilanadi.

«Bojxona taʼrifi toʻgʻrisidagi» qonunga muvofiq preferentsial olib kirish (olib chiqish) boʻyicha bojxona taʼriflaridan preferentsiyalar berish bojni toʻlashdan ozod qilish, boj stavkasini kamaytirish yoki taʼrif kvotalarini belgilab koʻrishlarida quyidagi tovarlarga nisbatan beriladi:

– O‘zbekiston Respublikasi bilan erkin savdo hududini shakllantiruvchi yoki bojxona ittifoqini hamda bunday ittifoqni yoki hududni tuzishni nazarda tutuvchi kelishuvi mavjud davlatlardan kelgan tovarlar.

– O‘zbekiston Respublikasi milliy preferentsiyalari tizimiga monand rivojlanuvchi davlatlardan kelib chiquvchi tovarlar. O‘zbekistonga kiritiluvchi texnologik uskunalar bojxona bojidan ozod qilinadi, agar importchi banki tegishli hujjatlarni taqdim etsa.

1997-yil 1-noyabrdan O‘zbekistonda barcha eksport bojxona bojlari bekor qilingan.

Tovar va transport vositalarining bojxonada rasmiylashtiriluvi uchun yig‘imi (tranzit bojxona rejimi, davlat foydasiga voz kechish, vaqtinchalik saqlashlardan tashqari) ularning bojxona qiymati 0,2% dir. Quyidagi olib kiriluvchi tovarlar bundan mustasno, ya‘ni ularga 0,05% li pasaytirilgan stavkalar belgilangan: bug‘doy, shakar va qurilayotgan ishlab chiqarish obyektlari uchun butlovchi uskunalar.

Lizing shartnomasini amalga oshirishda turli xil vaziyatlar bo‘lishi mumkin, u shartnomaning qaysi tomoni O‘zbekistondaligiga bog‘liq. O‘zbekistondagi lizing beruvchi chet eldagi lizing oluvchiga lizing predmetini berishdagi vaziyatda, bojxona to‘lovlari ko‘rinishdagi moliyaviy xarajatlarni umuman ichiga olmaydi, chunki O‘zbekistonda eksport tovarlariga soliqlar va bojlar yo‘q. Bu holatda lizinga beruvchi faqatgina bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imini to‘laydi xolos.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Lizingning iqtisodiy mohiyati nimalardan iborat?
2. Lizing to‘lovi nima?
3. Lizing operatsiyalarini soliqqa tortish tartibi qanday?
4. Lizing operatsiyalarini bojxona orqali tartibga solish qanday amalga oshiriladi?
5. O‘zbekistonda lizing to‘lovlari qanday amalga oshiriladi?

10-bob. LIZING OPERATSIYALARI ISHTIROKCHILARI UCHUN KAFOLATLAR

10.1. LIZING KELISHUVLARI ISHTIROKCHILARI O'RTASIDA TAVAKKALCHILIKLARNI TAQSIMLASH MEXANIZMI

Bozor qonunlaridan samarali foydalanish, bozor tizimida takomillashish, uning afzalliklaridan foydalanish uchun hozirgi paytda ratsional faoliyatning o'zigina yetarli emas, an'anaviy shakllarni yaxshilash va tahlil qilishning yangi uslubiyatini ishlab chiqish, marketing rejasiga tavakkalchilik ulushini kamaytirish imkonini beruvchi zaxiralarni kiritish zarur.

Tavakkalchilik deganda, odatda, kompaniya o'z resurslarining bir qismini yo'qotishi, daromadlarni to'liq olmasligi yoki xo'jalik faoliyati davomida qo'shimcha xarajatlarning paydo bo'lishi nazarda tutiladi. Lizing sohasi jarayonlar dinamikasi va kapitallar aylanishi tezligining yuqoriligi, bozor konyunkturasi va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga yuqori sezuvchanligi bilan ajralib turadi, bu esa mazkur biznes sohasida tavakkalchilik darajasi yuqoriligining asosiy sabablardan biridir. Lizing kompaniyalari o'z faoliyati davomida duch keluvchi tavakkalchiliklar, odatda, hamma uchun bir xil bo'ladi. U yoki bu tavakkalchilikka uchramaslik ehtimoli ham deyarli bir xil. Biroq tavakkalchilik holatlaridan chiqib ketish yo'llari turli kompaniyalar uchun turlichadir. Lizing kompaniyalari o'z faoliyati davomida duch keluvchi tavakkalchiliklarni ikki guruhga—ichki va tashqi tavakkalchiliklarga bo'lish mumkin.

Tashqi tavakkalchiliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- siyosiy tavakkalchiliklar, ular siyosiy vaziyatning o'zgarishi, davlatning iqtisodiy siyosati o'zgarishi natijasida yuzaga keluvchi moliyaviy yo'qotishlarni aks ettiradi;

- huquqiy tavakkalchiliklar, qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keluvchi yo'qotishlarni aks ettiradi;

– makroiqtisodiy tavakkalchiliklar, iqtisodiyotda kutilayotgan ko‘tarilish va inqirozlar, bank sohasining rivojlanish darajasi, yalpi milliy mahsulot o‘shishining pasayishi va siyosat bilan bog‘liq xo‘jalik jarayonlarida yuzaga keladi;

– soliq tavakkalchiliklari, soliq sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlaridagi noaniqlik va ziddiyatlar.

Yuqorida sanab o‘tilgan tavakkalchiliklarni boshqarish usullari–lizing oluvchi joylashgan mamlakatdagi siyosiy ahvol va soliq qonunchiligining o‘ziga xos xususiyatlari tahlili, kutilayotgan tavakkalchiliklarga proporsional ravishda tavakkalchilik mukofotlarini oshirish, investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha xalqaro kelishuvlardan iborat.

Ichki tavakkalchiliklar quyidagi turlar bilan tavsiflanadi:

– loyiha tavakkalchiliklari, asosan, muayyan loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq. Bu qatorga loyihaning moliyaviy nuqtayi nazardan nochorligi, loyihaning ekologik xavfi, lizing oluvchining sotuv tizimi mukammal emasligini kiritish mumkin. Mazkur tavakkalchilik turini faqat taklif etilayotgan lizing loyahasini chuqur tahlil qilish yordamidagina minimallashtirish mumkin;

– lizing predmeti bilan bog‘liq tavakkalchiliklar. Bular asosan mulkni qaytarmaslik xavfi, yo‘qotish xavfi, asbob-uskunalarni ikkilamchi bozorda sota olmaslik xavfi, ma‘naviy eskirishning tezlashish xavfi va marketing tavakkalchiligidir. Mulknı sug‘urtalash, ta‘minlashning samarali sxemalarini ishlab chiqish, shartnoma bekor qilinishi mumkin bo‘lmagan muddatni belgilash, tavakkalchilik mukofoti miqdorini oshirish, asbob-uskunalarning ilg‘or va progressiv turlaridan foydalanish, lizing shartnomasi muddati tugandan so‘ng lizing obyektini bozor konyunkturasini hisobga olgan holda sotish bu tavakkalchiliklarni kamaytirish usullari hisoblanadi;

– moliyaviy tavakkalchiliklar valuta kurslarining tebranishi, bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalarining lizing beruvchi stavkalaridan oshirilishi, shartnoma muddati amal qilayotgan muddat davomida lizing beruvchi o‘zining aktiv operatsiyalarini qayta moliyalashtirishga qodir bo‘lmagan paytda lizing objekti narxining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi. Bu qatorga foiz tavakkalchiligi,

lizing to'lovlarini to'lamaslik tavakkalchiligi, narx tavakkalchiligi, muvozanatlanmagan likvidlik tavakkalchiligini kiritish mumkin. Ularni moliyaviy fyucherslar oldi-sotdisi yoki «foizli svop» bitimini tuzish, lizing oluvchining moliyaviy ahvolini tahlil qilish, bitta lizing shartnomasi miqdorini chegaralash, uchinchi shaxslardan kafolat olish, to'lovni amalga oshirmaslikni sug'urtalash, har bir lizing to'lovining qat'iy summasini belgilab qo'yish, pul oqimlarini vaqti va hajmi bo'yicha belgilash, zaxira jamg'armasini yaratish va passiv operatsiyalarni diversifikatsiyalash yordamida kamaytirish mumkin.

Umuman, lizing faoliyatida yuzaga keluvchi tavakkalchiliklarni dinamik va statistik guruhga bo'lish mumkin. Tavakkalchiliklarning birinchi guruhi loyihani amalga oshirishning siyosiy va bozor sharoitlari, asosiy kapital qiymatidagi oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar qo'shimcha xarajatlar va yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Ikkinchi guruh lizing kompaniyasi layoqatsizligi tufayli daromadlarni yo'qotish, mulkka zarar yetkazish natijasida real aktivlarni yo'qotish tavakkalchiligidir.

Qoidaga ko'ra tavakkalchiliklarning barcha turlari o'zaro bog'liq bo'lib, lizing kompaniyalari faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu holat tavakkalchiliklarni optimallashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi hamda muayyan tavakkalchiliklar tarkibini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan har bir lizing operatsiyasini amalga oshirishdan avval loyiha tavakkalchiliklari har tomonlama tahlil qilinishi zarur. Mazkur tahlilning maqsadi loyihada ishtirok etishning maqsadga muvofiqligi uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni oldindan ko'ra bilishdan iborat. Har bir muayyan holatda lizing beruvchi o'z zimmasiga oluvchi tavakkalchilik darajasini aniqlashi lozim.

Loyiha tavakkalchiligini tahlil qilish jarayoni quyidagi vazifalarni hal qilish yo'li bilan bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

– muayyan tavakkalchilik turiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash;

– aniqlangan omillarni tahlil qilish;

– muayyan tavakkalchilik turini moliyaviy jihatdan ikkita yondashuv–loyihani tugatish va moliyaviy vositalarni kiritish samaradorligi yondashuviga asoslangan holda baholash;

- yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan tavakkalchilik darajasini belgilash;
- operatsiyalarni belgilangan tavakkalchiliklar darajasi bo‘yicha tahlil qilish;
- ijobiy qaror qabul qilinganda tavakkalchilikni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Qoidaga ko‘ra lizing kompaniyalari lizing bitimlari bo‘yicha barcha tavakkalchiliklarni qoplashga majbur bo‘ladilar. Agar ular muayyan lizing oluvchi bilan tavakkalchiliklarni obyektiv aniqlay olsalar, bu holda ular lizing shartnomasi bo‘yicha mos keluvchi tavakkalchilik mukofotini ham aniqroq belgilashlari mumkin bo‘ladi. Buning uchun lizing kompaniyalari tavakkalchiliklarni to‘g‘ri baholashi va ularni boshqara olishi zarur.

Hozirgi kunda mamlakatimizda lizing kompaniyalari tomonidan qo‘llanuvchi an’anaviy himoyalani sh yo‘llari quyidagilardan iborat:

1. Avans yoki garovdan foydalanish. Shuni qayd etish joizki, avans yoki garovdan foydalanish mijozlarning ishonchliligi va kredit layoqatini aniqlashning samarali tizimi hamda to‘lov amalga oshirilmagan taqdirda asbob-uskunalarini tezlik bilan qaytarib olish mexanizmi mavjud bo‘lmagan hollarda muhim ahamiyat kasb etadi. Lizing beruvchi va lizing oluvchi o‘rtasida ishonch ortib borgan sari avans yoki garovning mavjud bo‘lishiga talab ham kamayib borishi mumkin. To‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash uchun jarimalar qo‘llanadi, masalan, to‘lov muddati kechikkan har bir kun uchun 0,5–0,15% miqdorida penya.

2. Lizing kompaniyasi mijozi o‘z hisob raqamini muasss bankda yuritishini talab qilish hisobiga tavakkalchilik darajasini kamaytirish mumkin. Aksari hollarda bunday yo‘l banklar asosiy aksiyador bo‘lgan lizing kompaniyalarida qo‘llaniladi. Bu holda to‘lov amalga oshirilmaganda bank qarzdor mijozning hisob raqamini osongina «muzlatib» qo‘yishi mumkin.

3. Tavakkalchilik darajasini kuzatish va nazorat qilish yo‘li bilan ham kamaytirish mumkin. Lizing kompaniyalari nizom jamg‘armalarining katta qismiga egalik qiluvchi banklar lizing oluvchilarning arizalari bankning kredit bo‘limi tomonidan ko‘rib chiqilishini talab qiladilar. Mos keluvchi tahlil o‘tkazilgandan so‘ng

bank har bir muayyan holatda ma'qul bo'lgan qaror–kredit berish yoki lizing bitimini tuzish bo'yicha o'z tavsiyalarini beradi.

4. Lizing kompaniyalari bitimni davlat kafolatlaridan foydalanish yo'li bilan muhofaza qilishga harakat qiladilar. Masalan, agar mintaqa ma'muriyati mintaqadagi muayyan zavod quvvatini kengaytirishga katta e'tibor qaratadigan bo'lsa, u lizing oluvchi o'zining shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan taqdirda to'lanishi lozim bo'lgan lizing to'lovlarini kafolatlashi mumkin. Biroq bunday kafolatlar doim ham berilavermaydi, chunki ma'muriyat ko'pincha o'zining bevosita vazifalarini bajarish uchun mablag'lar tahchilligini boshidan kechiradi.

5. Lizing faoliyatini sug'urtalash lizing kompaniyalari tavakkalchiligini kamaytirsada, sug'urta kompaniyalarining barqaror va unchalik ishonchli emasligi sababli muammolarga boy bo'ladi. Ijaraga berilgan mulkning eng yaxshi sug'urtasini faqat lizing kompaniyasining o'zigina ta'minlay oladi.

10.2. LIZING JARAYONIDA TURLI TAVAKKALCHILIKLARNI SUG'URTALASH

Lizing munosabatlarining murakkab iqtisodiy-huquqiy tabiati lizing obyektini transportirovka qilish, uni o'rnatish, ishga tushirish, mulkiy va moliyaviy tavakkalchiliklarni sug'urtalash yo'li bilan lizing operatsiyalarining kompleks sug'urta muhofazasini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga asosan mulk sug'urtasi shartnomasi bo'yicha bir tomon (sug'urtachi) ma'lum bir haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada ko'zda tutilgan vaziyat (sug'urta holati) yuz berganda ikkinchi tomonga (sug'urtalanuvchiga) yoki shartnoma uning foydasiga tuzilgan uchinchi shaxsga (foyda oluvchiga) sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoki sug'urtachining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan miqdorda (sug'urta miqdori) qoplash majburiyatini oladi.

Lizing bitimida mulk shartnomasi bo'yicha quyidagi mulkiy manfaatlar sug'urta qilinishi mumkin:

– lizing obyektini yo'qotish, shikastlanish va yetishmovchilik tavakkalchiligi;

- boshqa shaxslarning solig‘i, hayoti yoki mulkiga zarar yetkazish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik tavakkalchiligi;
- shartnomani buzganlik uchun tavakkalchilik;
- kutilgan daromadni olmaslik tavakkalchiligi–tadbirkorlik tavakkalchiligi, jumladan, lizing to‘lovlari to‘lamaslik tavakkalchiligi;
- sug‘urtachining sug‘urtalovchi oldidagi majburiyatlarini bajarish tavakkalchiligi.

Amaldagi qonunchilikka asosan sug‘urta shartnomasini imzolashda muayyan shart belgilanadi. Sug‘urta shartnomasi faqat sug‘urtalanuvchining sug‘urta kompaniyasi belgilagan shaklda 2 nusxada tuzilgan hamda sug‘urta kompaniyasi va sug‘urtalanuvchi tomonidan imzolanuvchi yozma arizasi asosidagina tuziladi. Ariza yozish bilan bir paytda sug‘urtalovchi sug‘urtalanuvchiga lizing shartnomasi nusxasini, lizing to‘lovlari amalga oshirish jadvali va lizing shartnomasiga tegishli boshqa hujjatlarni taqdim etadi. Sug‘urtalovchi taqdim etilgan hujjatlar asosida sug‘urta miqdori va ta‘rif stavkasidan kelib chiqqan holda sug‘urta to‘lovlari miqdorini belgilaydi, zarur hollarda sug‘urta shartnomasida maxsus shartlarni belgilash ko‘zda tutiladi. Sug‘urta shartnomasining bir nusxasi sug‘urtalovchida qoladi, ikkinchi nusxasi belgilangan sug‘urta to‘lovlari va ularni to‘lash muddati ko‘rsatilgan xat bilan sug‘urtalanuvchiga yuboriladi. Hisoblangan sug‘urta to‘lovlari sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urtalovchidan javob olgandan so‘ng 10 kun ichida bir vaqtning o‘zida sug‘urta to‘lovlarida ko‘rsatilgan pul miqdorini sug‘urtalovchining hisob raqamiga o‘tkazish yo‘li bilan to‘lanadi. Sug‘urta shartnomasi sug‘urta to‘lovlari sug‘urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgan kundan boshlab kuchga kiradi. Sug‘urta shartnomasini tuzgan sug‘urtalanuvchiga sug‘urtalovchining hisob raqamiga sug‘urta to‘lovlari kelib tushgandan so‘ng 5 kun ichida sug‘urta polisi beriladi. Sug‘urta polisining ikkinchi nusxasi sug‘urtalovchida qoladi.

Sug‘urta shartnomasi quyidagi sabablarga ko‘ra muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:

– mulkni muddatidan oldin sotib olish hollarida lizing shartnomasi muddatidan avval bekor qilingan holda shu vaqtdan boshlab. Bunda sugʻurtalovchi sugʻurtalanuvchiga muddati sugʻurta muddati tugamagan davr uchun sugʻurta badallarini 10% miqdorida xarajatlarni chiqarib tashlagan holda qaytarib beradi.

– bankrotlik holati tan olinishi natijasida sugʻurta puli talab qilingan paytdan lizing oluvchi bankrot deb eʼlon qilinganishi sababli. Bunda lizing shartnomasi boʻyicha sugʻurta himoyasi sugʻurtalanuvchi tomonidan ariza berilguncha va lizing oluvchining bankrotga uchrashi natijasida yetkazilgan barcha zararlarga nisbatan amal qilishi lozim.

– lizingga berilgan mulk jismonan yoʻq boʻlib ketganda (halokatga uchraganda).

– sugʻurtalovchi yoki sugʻurtalanuvchining talabiga binoan. Bu holda tomonlar bir-birini sugʻurta shartnomasining amal qilish muddati bekor qilishdan kamida 30 kun oldin xabardor qilishi lozim. Agar shartnoma sugʻurtalovchining talabiga asosan sugʻurtalanuvchining sugʻurta qoidalarini bajarmasligi sababli bekor qilinsa, sugʻurtalovchi sugʻurtalanuvchiga muddati sugʻurta muddati tugamagan davr uchun sugʻurta badallarining 10% miqdorida xarajatlarni chiqarib tashlagan holda qaytarib beradi. Agar shartnoma sugʻurtalanuvchining talabiga asosan sugʻurtalovchining sugʻurta qoidalarini bajarmasligi sababli bekor qilinsa, u holda sugʻurtalovchi sugʻurtalanuvchiga barcha sugʻurta badallarini toʻlaligicha qaytaradi.

Sugʻurta holati quyidagi vaziyatlarda oʻringa ega boʻladi:

– navbatdagi lizing toʻlovlarini amalga oshirish olti oydan ortiq kechiksa;

– lizing oluvchi nochor (bankrot) deb eʼlon qilinsa;

– lizing oluvchi sugʻurtalovchini toʻlov majburiyatlarini bajara olmasligi toʻgʻrisida xabardor qilsa.

Sugʻurta holati yuz berganda sugʻurtalanuvchi quyidagilarni bajarishi lozim:

1. Besh kun ichida sugʻurtalovchiga toʻlov amalga oshirilmagan shartnomani ilova qilgan holda ariza berish yoʻli bilan uni xabardor qilish. Bunda sugʻurtalovchining lizing toʻlovlarini amalga oshir-

maganlik to'g'risidagi arizasi sug'urtalanuvchining qayd etish kitobida qayd etiladi.

2. Sug'urtalanuvchining talabiga asosan sug'urtalovchiga yetkazilgan zarar miqdori va sabablarini tahlil qilish uchun unga barcha ma'lumotlarni yozma ravishda yetkazib berish.

3. Sug'urtalanuvchining lizing oluvchiga regressiv talab huquqini amalga oshirishni, lizing oluvchi bankrotga uchraganda esa qarzdorning mulkidan o'z ulushini olishni ta'minlash.

4. Ariza berilgandan so'ng 10 kun ichida sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi va lizing oluvchi lizing to'lovlari amalga oshirilmaganligi haqida dalolatnoma tuzadilar. Bu dalolatnoma asosida sug'urtalanuvchiga sug'urta puli to'langandan so'ng sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga lizing oluvchiga to'langan sug'urta puli miqdorida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqini beradi. Sug'urta puli to'langan birinchi kundan boshlab sug'urtalanuvchi lizing oluvchidan to'lov kechikkan har bir kun uchun to'langan sug'urta pulining bir foizi miqdorida jarima oladi. Sug'urta puli to'langandan so'ng sug'urtalanuvchi o'zi uchun abandon (lizing mulkiga egalik huquqining sug'urtalanuvchiga o'tish) huquqi belgilanishini talab qilishi mumkin. Bunda egalik qilish huquqi mulkni sotib olish uchun sug'urtalovchiga to'langan ulushiga teng bo'ladi.

Respublikamizda amal qilayotgan qonunchilikda qayta sug'urtalanish mexanizmi ko'zda tutilgan, ya'ni sug'urta kompaniyasi o'z majburiyatlarini yirik sug'urta kompaniyalarida qayta sug'urtalash huquqiga ega bo'ladi. Bunda sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi sug'urta shartnomalari bo'yicha barcha o'zaro munosabatlarni qayta sug'urtalanishga qaror qilgan kompaniya o'z zimmasiga oladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Lizing kompaniyalari faoliyatida duch keluvchi qanday tavakkalchiliklar bor?
2. Lizingda sug'urta qanday ahamiyatga ega?
3. Lizing jarayonida qanday tavakkalchiliklar sug'urtalalanadi?
4. Sug'urta shartnomasining mohiyati nimalardan iborat?
5. Sug'urta holati nima?

11-bob. LIZING TO‘LOVLARI HISOB-KITABI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

11.1. LIZING TO‘LOVLARI TARKIBI

Lizing oluvchi va lizing beruvchi o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy aloqalarning asosi lizing to‘lovlaridan iborat bo‘lib, ular ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, sotish va egalik huquqini berish munosabatlarini aks ettiradi. Iqtisodiy jihatdan lizing vositalariga egalik qilish hamda bitim maqsadini amalga oshiruvchi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish huquqi lizing obyeksi uchun pul to‘langandan so‘nggina yuzaga kelishi mumkin.

Lizing to‘lovlarining iqtisodiy jihatdan asoslangan tarkibi va hajmi lizing bitimlarini tashkil etishning markaziy, eng muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Lizing uchun to‘lov bu mulk egasi va ijarachining lizing obyektidan foydalanish jarayonida yaratilgan daromadni taqsimlash bo‘yicha iqtisodiy munosabatlar shaklidir. U lizing obyeksi qiymatini qoplash, kapital jamg‘arish va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalarini bajaradi.

Umuman, lizing to‘lovlari mulkka egalik huquqini amalga oshirishning iqtisodiy shakllaridan biridir. Asbob-uskunalar yoki boshqa obyektlarni lizingga berishda mulk egasi uning qiymatini kapitalga belgilangan foiz qo‘shgan holda qaytarib olish huquqiga ega bo‘ladi.

Mulkning holati va qiymati, amortizatsiya muddati va me‘yorlari, ssuda foizlari, soliq imtiyozlari va faoliyat turi lizing to‘lovlarini belgilashning obyektiv asosi hisoblanadi. Lizing to‘lovlarida uchta asosiy tarkibiy qismni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- iqtisodiy elementlar bo‘yicha to‘lovlar tarkibi;

- to‘lovlar darajasi yoki hajmi;
- hisob-kitoblar usuli.

Ijaraga berilgan vositalarning mos keluvchi qo‘shimcha mablag‘lar bilan qaytarilishi lizing to‘lovlari aniqlashning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Lizing to‘lovlari hajmini belgilab beruvchi uslubiy asos bo‘lib lizing oluvchi tomonidan yaratilgan yalpi daromadni taqsimlash mexanizmi xizmat qiladi. U foyda me‘yori o‘rtacha bo‘lganda lizing obyektiga egasi va ijarachi manfaatlarining bir-biriga mos kelishini ta‘minlashi mumkin. Lizing to‘lovlarining haqiqiy hajmi tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida belgilanadi.

Lizing to‘lovlarini ularni amalga oshirish shakli va uslubiga asosan turlarga ajratish mumkin.

Lizing to‘lovlarini amalga oshirishning turli usullari mavjud bo‘lib, ularga asosan quyidagi to‘lov turlarini sanab o‘tishimiz mumkin:

- chiziqli to‘lov, proporsiya bo‘yicha teng ulushlar bilan to‘lanadi;

- progressiv (o‘sib boruvchi) to‘lov, asosan, lizingning dastlabki bosqichida foydalanuvchi lizing to‘lovlarini kichik qismlar bilan amalga oshirishi oson bo‘lgan, keyinchalik esa asbob-uskunalarining bo‘shashi va mahsulot ishlab chiqarish sur‘atlarining o‘sishi bilan to‘lov miqdorini oshirish mumkin bo‘lgan, moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lmagan lizing oluvchilar tomonidan amalga oshiriladi;

- degressiv (kamayib boruvchi) to‘lov, lizingning dastlabki bosqichida foydalanuvchi lizing to‘lovlarining asosiy qismini to‘lashni afzal ko‘rgan, moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lgan lizing oluvchi tomonidan foydalaniladi;

- mavsumiy to‘lov–to‘lov imkoniyatlari hosilni yig‘ib olgandan so‘ng amalga oshirish yengilliklar yaratuvchi qishloq xo‘jaligida va ishlab chiqarish jarayoni mavsumiy xarakterga ega bo‘lgan qayta ishlash tarmoqlarida qo‘llanadi.

To‘lash shakllari bo‘yicha lizing to‘lovlari pulli, kompensatsion, ya‘ni lizing oluvchining mahsulotlari yoki xizmatlari orqali va aralash to‘lovlarga bo‘linadi. Kompensatsion va aralash to‘lovlarda

lizing oluvchining mahsulot va xizmatlarni narxlari qonuniy o'rnatilgan qoidalar asosida belgilanadi.

Shartnomada quyidagi to'lov usullarini qo'llash mumkin: umumiy summasi belgilangan usuli va avans usuli. Avans usulida lizing oluvchi to'laydigan avans miqdori shartnomada belgilanadi va lizing to'lovlari umumiy summasidan qolgan to'lovlarning (avans ayrilgan holda) teng qismlarida to'lanadi. Umumiy summasi belgilangan usulda lizing muddati davomida ikki tomon kelishilgan holda to'lovlarni umumiy summasi teng miqdorda (har oy, kvartal, yarim yil, yilda) to'lanadi.

Lizing shartnomasini tuzishda tomonlar muayyan sharoitlarda bitimning barcha ishtirokchilari talablariga javob beruvchi eng ma'qul variantni tanlashlari mumkin.

11.2. LIZING TO'LOVLARI BO'YICHA HISOB-KITOBLAR

Lizing to'lovlari hajmini hisoblash lizing turi, to'lovlar shakli va usuli, shuningdek, iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda, ya'ni barqaror rivojlanish va inflatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Odatda, lizing to'lovlari hisob-kitob qilinganda qat'iy belgilangan umumiy to'lov summasi bo'yicha to'lovlardan foydalaniladi. Bu holda lizing to'lovi o'z ichiga amortizatsiya chegirmalari, qarzga olingan vositalar uchun to'lovlar, lizing kompaniyasi marjasi, bitim bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar va lizing beruvchining lizing obyektini sotib olish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarini kiritadi.

Hozirgi kunda lizing kompaniyalari amaliyotida amortizatsiya chegirmalari o'rniga lizing kompaniyalari vositalarini qaytarish summasi (lizing obyektini qiymati) foydalaniladi. Avans to'lovli lizingni hisoblashda lizing kompaniyasi marjasi lizing obyektining qoldiq qiymatidan hisoblanadi. Lizing to'lovi (plata) bu lizing muddati davomida to'lanuvchi barcha lizing to'lovlari va lizing oluvchi mulkni sotib olganda to'lashi lozim bo'lgan summa yig'indisidir. Qoidaga ko'ra moliyaviy, qaytuvchi lizingda u umumiy lizing to'lovlari tarkibiga kiritiladi. Quyida O'zbekiston Respub-

likasi Markaziy Banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan (1997-yil 29-martdagi 11-sonli bayonnoma) «O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi»-da o‘z aksini topgan lizing to‘lovlarini hisoblash ko‘rsatilgan.

Lizing to‘lovlariga kiritiluvchi amortizatsiya chegirmalari hajmi:

$$A = S * N / 100\% * T, \quad (11.2.1)$$

bu yerda: S –lizing obyektining balans qiymati; N –to‘liq qayta tiklash uchun yillik amortizatsiya chegirmalari me‘yori; T –lizing muddati (yillarda).

Lizing kompaniyaning vositalar (mablag‘)ni jalb qilganlik uchun haq to‘lash:

$$Pkr = Kr * Skr / 100\%, \quad (11.2.2)$$

bu yerda: Pkr –jalb etilgan mablag‘lar uchun haq to‘lash; Kr –kredit summasi; Skr –kreditdan foydalanish stavkasi.

Lizing kompaniyasi marjasi:

$$Pko = Kr * Sko / 100\% \quad (11.2.3)$$

bu yerda: Pko – lizing kompaniyasi marjasi; Sko – lizing kompaniyasi stavkasi.

Lizing beruvchining qo‘shimcha xizmatlari o‘z ichiga lizing beruvchining bitim bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish hamda lizing obyektini sotib olish bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni oladi.

Lizing shartnomasi bo‘yicha jami lizing to‘lovlari summasi (LP):

$$LP = A + Pkr + Pko + Pu. \quad (11.2.4)$$

QQS–qo‘shilgan qiymat solig‘i O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustdagi «Lizing tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» Farmoniga asosan (lizing kompaniyalari lizing muddati davomida QQSdan ozod qilinadi) jami lizing to‘lovlari summasiga kiritilmaydi.

Har choraklik– $LV = LP / 4$.

Har oylik– $LV = LP / 12$,

bu yerda: LV –davriy lizing to‘lovi.

Yuqorida ko'rsatilgan hisob-kitob uslubi bilan bir qatorda respublikamiz lizing kompaniyalari mutaxassislari o'z faoliyatida oddiy bank kreditlari bo'yicha hisob-kitoblarga o'xshash bo'lgan boshqacha yondashuvdan ham foydalanadilar. Lizing to'lovlari to'lov vaqti bo'yicha hisoblanadi hamda o'z ichiga lizing kompaniyasi marjasi, marjaga hisoblanuvchi QQS va lizing obyekt qiymatining qaytimini oladi.

Lizing obyekt qiymatining qaytimi uning qoldiq qiymati qaytuvini va unga nisbatan hisoblangan amortizatsiyani o'z ichiga oladi.

Lizing to'lovlariga kiritiluvchi amortizatsiya chegirmalari hajmi:

$$A = (S * N * D) / 12, \quad (11.2.5)$$

bu yerda: A – lizing obyektiga hisoblangan amortizatsiya, S – lizing obyektining balans qiymati, N – lizing obyektini to'liq qayta tiklash uchun amortizatsiya chegirmalari me'yori, D – ketma-ket lizing to'lovlari o'rtasidagi davr, oylarda.

Lizing obyektining qoldiq qiymati (V) lizing obyektining balans qiymati (S) va to'plangan amortizatsiya summasi ($A * N$) o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Lizing obyektining qoldiq qiymatini taqsimlash lizing operatsiyasi ishtirokchilari – lizing beruvchi va lizing oluvchining kelishuvi asosida amalga oshiriladi.

Lizing kompaniyasi marjasi:

$$Mn = Sko * (A - A * (n - 1) - Vi), \quad (11.2.6)$$

bu yerda: Mn – n -lizing to'lovida lizing kompaniyasi marjasi; Sko – lizing kompaniyasi marjasi.

Lizing kompaniyasi marjasiga hisoblanuvchi qo'shilgan qiymat solig'i (agar kompaniya QQSdan ozod qilinmagan bo'lsa):

$$Nn = Sn * Mn, \quad (11.2.7)$$

bu yerda: Sn – QQS stavkasi; Nn – n -lizing to'lovidagi marjaga QQS.

Jami n -lizing to'lovi:

$$LPn = A + Mn + Nn + Vn, \quad (11.2.8)$$

bu yerda: LPn – n -lizing to'lovi.

Shu tariqa, lizing shartnomasi bo'yicha jami lizing to'lovlari quyidagiga teng bo'ladi: $LP = LPn$.

Lizing to'lovlari summasini hisoblashda boshqa usullari ham qo'llaniladi. Masalan, lizing to'lovining miqdorini mulk qiymati va koeffitsiyentlar orqali aniqlasa bo'ladi.

$$Lp = Bs * a_1 * a_2 * \dots * a_n, \quad (11.2.9)$$

bu yerda: $a_1, 2, \dots, n$ – lizing bitimi shartlarini bog'liqligini ta'minlaydigan koeffitsiyentlar.

Mulkning qoldiq qiymatini hisobga olgan holda lizing to'lovlarining koeffitsiyenti quyidagi tenglama asosida aniqlandi:

$$a_1 = \frac{1}{1 + Bos \cdot (1 + Sko/m)^N}, \quad (11.2.10)$$

bu yerda: Bos – mulkning balans qiymatidan qoldiq qiymati, %.

Agar avans to'lansa, bunda lizing to'lovlari miqdorini koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$a_2 = 1/(1 + Sko/m), \quad (11.2.11)$$

Birinchi to'lovini lizing oluvchi keyinroq to'laydigan bo'lsa, lizing to'lovlari miqdori quyidagi koeffitsiyent orqali hisoblanadi:

$$a_3 = 1/(1 - Sko/m)^{N-t}. \quad (11.2.12)$$

Yuqorida ko'rsatilgan usulni misolda ko'rib chiqamiz. Masalan, Lizing mulkini qiymati (B_s) 1000 ming sum, shartnoma muddati (T) 5-yil, foizli stavkasi (Sko) 15%, lizing to'lovlari har kvartalda amalga oshiriladi va 71,96 ming so'mga teng:

$$L_p = (1000 * 0,5/4) [1 - 1/(1 + 0,15/4)^{20}] = 71,96 \text{ ming so'm.}$$

Lizing oluvchi tanlagan qoldiq qiymati 3% ni tashkil etib, 70,94 ming so'mga teng.

$$L_p = 71,96 [1/(1 + 0,03)] * [1/(1 + 0,15/4)^{20}] = 71,96 * 0,98584 = 70,94 \text{ ming so'm.}$$

Agar lizing shartnomasida avans ko'rsatilgan bo'lsa, to'lovga quyidagi koeffitsiyent kiritiladi: $a_2 = 1/(1 + 0,15/4) = 0,9639$.

Umuman olganda, lizing to'lovi 68,38 ming so'mni ($70,94 * 0,9639$) tashkil etadi (11.2.1, 11.2.2-jadvallar).

Lizing to'lovlarni o'zgar olmaydigan variant

Yillar	Mulkni qoldiq qiymati (Bos-gr. 5)	Lizing to'lovlari (LP)	Foizlar (gr.2* 0,15/4)	Mulkni qoplash qiymati (gr.3-4)
I chorak	1000,0	68,38	–	68,38
II chorak	931,62	68,38	34,94	33,44
III chorak	898,18	68,38	33,66	34,72
IV chorak	863,46	68,38	32,16	36,22
Jami:				
1-yil		273,52	100,76	172,76
2-yil		273,52	115,50	158,02
3-yil		273,52	90,43	183,09
4-yil		273,52	61,38	212,14
5-yil		273,52	27,73	245,79
qoldiq qiymati	28,46	29,53	1,07	28,20
5-yildagi jami		1397,13	397,13	1000,00

Boshlang'ich davrida lizing to'lovlari oshirilgan varianti

Yillar	Mulkning qoldiq qiymati (Bos –gr.5)	Lizing to'lovlari (LP)	Shu jumladan	
			foizlar (gr.2* 0,15/4)	mulkni qoplash qiymati (gr.3-4)
I chorak	1000,0	127,80	–	127,87
II chorak	872,13	63,90	32,20	31,70
III chorak	840,06	63,90	31,53	32,37
IV chorak	808,06	63,90	30,32	33,58
Jami:				
1-yil		319,51	94,56	225,92
2-yil		255,61	108,22	147,39
3-yil		255,61	83,71	171,62
4-yil		255,61		197,87
5-yil		255,61	26,36	228,26
qoldiq qiymati	29,74	30,85	1,11	29,34
5-yildagi jami		1372,80	372,80	1000,00

Lizing to'lovlarini hisoblashda boshqa variantini ham qo'llash mumkin:

$$a_1 = (0,15/4) / [1 - 1(1 + 0,15/4)^{20+1}] = 0,0696448;$$

$$a_2 = 1/[1 + 0,03 * 1(1 + 0,15/4)^{20+1}] = 0,986342;$$

$$a_3 = 1/[1 + (2 * 0,15/4)] = 0,930232;$$

$$Lp = 1000 - 0,986342 * 0,930232 * 0,0696448 = 63,90 \text{ ming so'm.}$$

Agar lizing shartnomasi asosida lizing oluvchining birinchi yarim yildagi to'lovi ko'chirtirilsa, bunda lizing beruvchining foizi ko'tariladi va to'lovlari 86,8 ming so'mga oshadi (11.2.3-jadval).

11.2.3-jadval

Lizing to'lovlarning ko'chirtirilgan varianti

Yillar	Mulkn qoldik qiymati (Bos –gr.5)	Lizing to'lovlari (LP)	Shu jumladan	
			Foizlar (gr.2 + 0,15/4)	Mulkn qoplash qiymati (gr.3–4)
I chorak	1000,0	–	–	–
II chorak	1037,50	–	–	–
III chorak	1076,40	76,36	40,36	36,00
IV chorak	1040,40	76,36	39,01	37,35
chorak	1003,05	76,36	37,61	38,75
chorak	964,30	76,36	36,16	40,20
Jami:				
1–yil		305,44	153,15	152,30
2–yil		305,44	128,99	176,45
3–yil		305,44	101,00	204,44
4–yil		305,44	68,56	236,88
5–yil		305,44	30,44	274,46
qoldiq qiymati	31,89	33,08	1,19	31,89
5-yildagi jami		1560,28	483,88	1076,40

Lizing to'lovlari diskontlash orqali aniqlanadi: $a = (1 + 0,15/4)^{20} = 1,0764$. Umumiy lizing to'lovi: $LP = 1000 * 1,0764 = 1976,40$ ming so'mga teng bo'lib, lizing to'lovi $LP = 1000 * 0,07196 * 0,98584 * 1,0764 = 76,36$ ming so'mni tashkil etadi.

Lizing mulk qiymatini teng qismida qoplansa, korxonaga 5-yil muddatida 1000 000 soʻmni, amortizatsiya meʼyori–20%, avans toʻlovi 100 ming soʻm, foizli kredit stavkasi 20%, lizing beruvchining foizi–5% boʻlganda, lizing toʻlovlari 1 542 000 soʻmga teng boʻladi (11.2.4, 11.2.5-jadvallar).

11.2.4-jadval

Lizing muddati davomida mulkning qiymati

Mulk qiymati ming soʻm	Yillar				
	1	2	3	4	5
Yil boshiga (O_{sp})	1000	800	600	400	200
Yil oxiriga (O_{sk})	800	600	400	200	100
oʻrtacha yillik (Bs)	900	700	500	300	

11.2.5-jadval

Lizing toʻlovlarining aniqlanishi

Yillar	Amortizatsiya (AO)	Kredit toʻlovlari (Pk) ($B_s * 2\%$)	Komission toʻlovlari (Sko) ($B_{ss} * 5\%$)	Tushum (V) (gr. 3+gr. 4)	Lizing toʻlovlari (LP) (gr.2+gr.3+gr.4+gr.5+gr.6)
1-yil	200	180=900×0,2	45=900×0,05	225=180+45	470=200+180+45+45
2-yil	200	140=700×0,2	35=700×0,05	175=140+35	410=200+140+35+35
3-yil	200	100=500×0,2	25=500×0,05	125=100+25	340=200+100+25+15
4-yil	200	60=300×0,2	15=300×0,05	75=60+15	284=200+60+15+9
5-yil	200	20=100×0,2	5=100×0,05	25=20+5	230=200+20+5+5
Jami	1000	500		625	1734

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Lizing toʻlovi nima?
2. Lizing toʻlovlarining iqtisodiy mohiyati nimalardan iborat?
3. Lizing toʻlovlarini amalga oshirish tartibi qanday?
4. Lizing toʻlovlarini hisob-kitob uslubiyoti qanday?
5. Oʻzbekistonda lizing toʻlovlari qanday aniqlanadi?

12-bob. LIZING KELISHUVLARINING IQTISODIY-HUQUQIY TAYYORGARLIGI VA ULARNI ASOSLASH

12.1. LIZING OPERATSIYALARINING TASHKILiy JIHATLARI

Lizing bitimi samaraliligini asoslashda amalga oshirish tadrijiyligining to'g'ri hisob-kitobi va lizing operatsiyalar turli bosqichi o'zaro bog'liqligini hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Lizing bo'yicha bitta bitimni amalga oshirish, odatda, o'zidan keyin boshqasi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, shuni unutmash kerakki, lizing operatsiyasi qatnashchilari turli bosqichlarda birga harakat qiladilar. Amalda lizing operatsiyalari quyidagi masalalarni qamrab oluvchi jiddiy marketing tadqiqotlarini tayyorlash va o'tkazish operatsiyalaridan boshlanadi:

- lizing obyektlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini o'rganish;
- texnologiya va uskunalarining yaxshi variantlari haqida ma'lumotlar majmuyini shakllantirish;
- chet el yetakchi lizing kompaniyalari va ilg'or texnika hamda texnologiya yetkazib beruvchilar bilan aloqa o'rnatish;
- lizing xizmatini reklama qilish va ichki hamda tashqi bozorlarda lizing uskunasi u yoki bu turiga bo'lgan talabni o'rganish;
- aniq lizing oluvchilardan lizing mulkiga tushgan talabnomalarni yig'ish va oldindan ko'rib chiqish.

Keyingi muhim bosqich quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- lizing bo'yicha biznes-reja loyihasini ishlab chiqish va uning tahlili;
- lizing loyihalarini moliyalashtirishning manbalarini shakllantirish;
- lizing oluvchilarning kreditga layoqatini va lizing to'lovlar qaytarilishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar belgilash.

Lizing operatsiyalarning muhim bosqichlari, quyidagilar hisoblanadi:

- lizing shartnomasini lizing oluvchi bilan rasmiylashtirish;

– lizing loyihasining barcha qatnashchilari bilan bosh bitimni ishlab chiqish;

– lizing loyihasini amalga oshirish bilan bog‘liq, tavakkalchiliklarni sug‘urtalash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish.

Lizing bitimi ishga tushirilgan bosqich eng mehnat talab va mas‘ul hisoblanadi, ya‘ni:

– lizing obyektini lizing oluvchiga yetkazib berish;

– lizing uskunasi yig‘ish va ishga tushirishni yo‘lga qo‘yish ishlari;

– lizing mulkidan amalda foydalanishni tashkil etish.

Lizing operatsiyasining yakunlovchi bosqichi lizing bitimini amalga oshirish monitoringini o‘z ichiga oladi.

Uslubiy jihatdan lizing operatsiyalarini amalga oshirishning yuqorida qayd etilgan bosqichlari har birining farqi va funksiyasini tushunmay turib, lizing munosabatlari sifatiga zarar yetkazmagan holda, ularni amalga oshirish muddatlarini minimallashtirishga erishish muhimdir.

Lizing jarayonida, har qanday lizing turida, asosiysi bo‘lib, aniq lizing oluvchilar bilan maqsadli iqtisodiy ishlarni olib borish hisoblanadi, bu ish lizing bitimini mulkka talabnomalar yig‘ishdan tortib, to lizing to‘lovlari o‘z vaqida to‘lanishini ta‘minlash va nazorat qilishgacha bo‘lgan barcha bosqichni, lizing obyektidan to‘g‘ri foydalanishdan, to lizing shartnomasining butkul yakunlanishigacha o‘z ichiga oladi.

12.2. LIZING SHARTNOMASINI BEKOR QILISH VA LIZING MULKINI QAYTARIB OLISH

Fuqarolik kodeksida ko‘rsatilishicha, tomonlarning o‘zlari o‘zaro kelishgan holda shartnomani (jumladan, lizing shartnomasini) uning muddati tugamasidan avval bekor qilishlari mumkin. Biroq, ko‘p hollarda tomonlardan biri shartnoma shartini buzgani sababli uning qatnashchilari bir qarorga kela olmaydilar va ikkinchi tomon shartnomani muddatidan avval bekor qilishni so‘rab, sudga murojaat etadi. Mazkur holatda qonunchilikda shunday shartlar belgilab qo‘yilganki, ularning buzilishi sud tomonidan shartnomaning bekor qilinishi uchun asos bo‘ladi.

Masalan, fuqarolik kodeksida yozilishicha, yollash shartnomasi (lizing shartnomasi uning bir koʻrinishi hisoblanadi), agar lizing oluvchi, aytaylik, mulkdan foydalanish boʻyicha shartlarni buzsa, mulkni yomon ahvolga keltirib qoʻysa yoki shartnomada belgilangan muddat davomida mulkdan foydalanganligi uchun haqni qatorasiga ikki marotabadan ortiq toʻlamasa, sud tomonidan bekor qilinishi mumkin. Ikkinchi tomondan, lizing shartnomasi, shuningdek, agar lizing beruvchi mulkni foydalanish uchun lizing oluvchiga yetkazib bermasa yoki oʻtkazilgan mulk nuqsonlarga ega boʻlsa va bu nuqsonlar mulkddan foydalanishga toʻsqinlik qilsa hamda bu narsa shartnoma tuzilayotganda lizing beruvchi tomonidan shartlashib qoʻyilmagan boʻlsa yoxud sharoit taqozosiga koʻra lizing oluvchi javobgar hisoblanmaydigan mulk foydalanish uchun yaroqsiz holatda boʻlib chiqsa, sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Shuningdek, taʼkidlab oʻtish lozimki, shartnoma qatnashchilari bir tomonlama tartibda toʻliq yoxud qisman lizing shartnomasi boʻyicha majburiyatlarni bajarishdan voz kechishlari mumkin, shundan keyin shartnoma sud muhokamasiz ham bekor qilingan hisoblanadi. Aytaylik, masalan, lizing beruvchi lizing oluvchi tomonidan lizing toʻlovlarini bir marotaba kiritmagan, u qayta qurish va tugatish jarayonida boʻlgan, lizing beruvchining mulki hibsga olingan va hokazo holatlarda ham lizing oluvchi shartnomani bajarmaslikka haqlidir.

Oʻz navbatida, lizing oluvchi, shuningdek, lizing beruvchi uni lizing obyektiga garovga qoʻyilgani yoki lizing obyektiga mulkchilik huquqini boshqa shaxsga oʻtkazgani haqida ogohlantirmagan va hokazo holatlarda ham shartnomani bajarishni rad etishi mumkin. Biroq taraflardan birida shartnomani bir tomonlama bajarishdan voz kechish huquqi kelib chiqishi uchun bunday imkoniyat shartnomaning oʻzida koʻzda tutilgan boʻlishi zarur.

Agar shartnoma bekor qilinganidan keyin qandaydir sababga koʻra lizing oluvchi lizing obyektini qaytarmasa, u holda lizing beruvchidan uni talab qilib olish huquqi paydo boʻladi.

«Lizing obyektini talab qilib olish» nima degani? Bu masalani koʻrib chiqishga oʻtar ekanmiz, shuni taʼkidlash lozimki, lizing – bu moliya-xoʻjalik munosabatlarining yagona koʻrinishidirki, bunda

mulkka egalik huquqi lizing beruvchida saqlanib qoladi, biroq tasarruf qilish va foydalanish huquqidan ajraladi. Shunday qilib, lizing oluvchi lizing beruvchining mulkidan foydalanadi va buning uchun unga lizing to'lovlarini to'lab boradi. «Lizing to'g'risida»gi qonunning 15-moddasiga muvofiq lizing obyektiga egalik huquqi lizing oluvchi tomonidan barcha lizing to'lovlari to'langunga qadar lizing beruvchiga tegishli bo'ladi. Mazkur qonunning 23-moddasida ko'zda tutilishicha, lizing beruvchi qonunchilikda belgilab qo'yilgan tartibda ushbu lizing obyektini talab qilib olish huquqiga egadir.

Lizing beruvchining lizing oluvchi shartnomaning jiddiy shartlarini bajarmagan taqdirda o'zining mulkini undan talab qilib olish huquqi lizing beruvchining lizing bitimiga kirishida asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Kredit muassasalari garov ko'rinishida kafolat taqdim etishini talab qilganlari singari, lizing beruvchi ham uskunasi ga egalik huquqini o'zida saqlab qolgani holda, lizing oluvchi tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmay qolish xavf-xataridan o'zini kafolatlaydi.

Biroq lizing obyektini talab qilib olish huquqi, agar lizing beruvchi lizing oluvchi tomonidan shartnomaning jiddiy shartlari buzilgan bo'lsa, mulkni o'z tasarrufiga zudlik bilan qaytarib olish imkoni bo'lmagan taqdirda, qattiq kamsitiladi. Masalan, shunday vaziyat ham kelib chiqishi mumkinki, bunda cho'zilib ketgan sud muhokamasiga jalb etilgan lizing beruvchi o'zining mulkini nopok foydalanuvchidan qisqa muddat ichida qaytarib ololmaydi, shu davr mobaynida lizing obyektiga tegishli ravishda o'z qiymatini yo'qotadi, lizing beruvchi esa lizing to'lovlari to'lanmaganidan zarar ko'radi.

12.3. O'ZBEKISTONDA LIZING MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARINING TASHKIL TOPISHI

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng respublika va uning xalqi manfaatlariga mos keladigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini o'tkazish imkoniyati tug'ildi. Bu siyosatning ustuvor yo'nalishi bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishdan iborat.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz rahbari I. Karimov o'z chiqishlarida bozor munosabatlarining asosini tashkil etadigan kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga mutanosib ravishda bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini, ya'ni sug'urta, auditorlik, konsalting tashkilotlari qatorida, lizing kompaniyalarini tuzish zaruratini e'tirof etish bilan birga, ushbu infratuzilmalarga ega bo'lmasdan bozor mexanizmlari to'liq ishlay olmasligini alohida qayd etgan.

Lizing bozor infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, mamlakatimiz uchun nisbatan yangi moliyaviy dastakni o'zida mujassam etadi. 90-yillarning birinchi yarmida bozor islohotlari natijasida bank, kredit muassasalari va korxonalar ilgari iqtisodiyotimizda qo'llanilmagan ko'pgana moliyaviy dastaklardan foydalana boshladilar. Ayni shu yillarda lizing tuzilmalarini faol tashkil etish, iqtisodiyotning ushbu sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, lizing munosabatlarining huquqiy asoslarini shakllantirish boshlandi. Xususan, 1995-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismi, 1996-yil 29-avgustda esa ushbu kodeksning ikkinchi qismi tasdiqlandi. Fuqarolik kodeksining 34-bobidagi oltinchi band lizingga, ya'ni moliya ijarasiga bag'ishlangan bo'lib, unda lizingning ta'rifi berilgan, jami 13 ta modddadan iborat bo'lgan bu bandda lizing shartnomasi, obykti, subyekti, lizing to'lovlari, tomonlarning majburiyatlari, javobgarliklari, huquqlari va qator boshqa masalalarni qamrab olgan.

Ayni shu davrda «O'zbeklizing interneshnl» AJ (1995-y.), Osiyo-Yevropa trast kompaniyasi (OYTK) (1996-y.), «Baraka» universal lizing kompaniyasi OAJ (1996-y.), «O'zkeysagrolizing» (1997-y.), «O'zavializing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi (1997-y.) kabi hozirgi kunda ham samarali faoliyat yuritayotgan milliy va qo'shma korxonalar tashkil etildi. Bu lizing tuzilmalarni shakllantirishda chet el tajribasidan foydalanildi. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi esa lizing kompaniyalari tomonidan mavjud uskunalarni texnik qayta qurollantirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish borasidagi ko'plab misollarga boy. Bu tajribadan samarali foydalanish hamda endigina shakllanayotgan lizing xizmatlari

bozorining to'laqonli amal qilishini tashkillashtirish maqsadida lizing faoliyatiga ixtisoslashgan me'yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish zaruriyati tug'ildi. 1997-yilda Respublika Vazirlar Mahkamasining «O'zkeysagrolizing» o'zbek-amerika kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi 111-sonli qaroriga binoan O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi va uning sho'ba korxonasi «Baraka» universal lizing kompaniyasiga bir oy muddatda «Lizing to'g'risida»gi vaqtinchalik nizom ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish tavsiya etildi. Tayyorlangan hujjat, lizing asosida moliyalashtirishning shartnoma munosabatlarining qulay sharoitlari va prinsipial asoslarini qamrab olgan edi. Biroq mamlakat hukumati lizing bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yanada mujassamlashtirish hamda u lizing munosabatlarining barcha jihatlarini qamrab olishi lozimligidan kelib chiqib, vaqtinchalik nizom o'rniga «Lizing to'g'risida» qonun ishlab chiqish zarurligi haqida xulosaga keladi.

1999-yil 14-aprelda Oliy Majlisning qarori bilan O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonuni kuchga kirdi. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjat lizing bo'yicha Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan birinchi maxsus davlat hujjati bo'lib, unda lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va shartlari, unda ishtirok etadigan subyektlarning huquq va majburiyatlari, lizing obyektining ta'rifi va lizing faoliyatini belgilovchi me'yorlar o'zining aniq aksini topdi. Mamlakatda lizing munosabatlarining rivojlanishi hamda respublika tijorat banklarining moliyaviy xizmat turini ko'plab ko'rsatishga jalb qilish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1997-yil 29-martda tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risida»gi qoidalari muhim rol o'ynadi. Xususan, bu hujjat tijorat banklarining lizing bozorida faoliyat yuritish me'yorlarini aniqlab, bank mijozlari bo'lgan kichik va o'rta biznes subyektlariga banklar tomonidan lizing xizmatlarini bajarish uchun huquqiy asoslarni yaratdi.

Ularning lizing xizmatlari qator xususiyatlarga ega bo'lib, avvalo, deyarli barcha banklar lizing loyihalarini o'zlari uchun past rentabellik bilan amalga oshirdilar. Bu hol mamlakatning o'rta va uzoq muddatli kreditlar uchun mavjud, ammo lizing

operatsiyalariga nisbatan qo'llanilmaydigan soliq imtiyozlari bilan bog'liq edi. Tijorat banklari mijozlarni lizing loyihalarini kreditlash stavkasi bo'yicha moliyalashtirishgan. 2002-yil 28-avgustdagi «Lizing tizimini rivojaltirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni hamda Markaziy bankning «Tijorat banklarining moliyaviy lizing operatsiyalarini olib borish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilgan tuzatish va qo'shimchalar banklar uchun lizing operatsiyalarini faol amalga oshirishga shart-sharoit yaratib berdi.

12.4. LIZING SHARTNOMALARINI ASOSLASH VA TUZISH BOSQICHLARI

Lizing munosabatlarini tashkil etish, uskuna va texnika sotib olish ustuvor yo'nalishlarning shakllanishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu uskuna va texnikadan foydalanish, uni ta'mirlash yoki unga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq lizing xizmati sohalarini rivojlantirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Jahon tajribasiga ko'ra lizing jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda har bir lizing shartnomasining mazmuni va amalga oshirilishidagi o'ziga xosliklar mufassal o'rganilgandan so'ng yuridik bitim (lizing shartnomasi) tuzish bo'yicha tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Shundan so'ng quyidagilar rasmiylashtiriladi:

- lizing beruvchi bo'lajak lizing oluvchidan oladigan talabnoma;
- lizing oluvchining to'lovga qobilligi to'g'risidagi xulosa;
- kredit shartnoma.

Lizing jarayonining ikkinchi bosqichida ikki yoki uch tomonlama shartnomada lizing bitimidagi barcha munozarali shartlar yuridik jihatdan asoslanadi. Shuningdek, quyidagilar rasmiylashtiriladi:

- lizingga olinadigan uskuna(mulk)ning oldi-sotdi bitimi;
- uni foydalanishga olganlik dalolatnomasi;
- lizing shartnomasi;
- lizingga berilayotgan uskuna, texnika (lizing mulki)ga texnik xizmat ko'rsatish haqidagi bitim.

Lizing jarayonining uchinchi bosqichi ancha mas'uliyatli hisoblanadi va lizing mulkidan foydalanish davrini qamrab oladi. Unda barcha lizing operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisob-kitobi va hisobot olib borish, lizing beruvchiga lizing to'lovlarini berishni amalga oshirish, lizing muddati o'tgach lizing mulkidan kelgusida foydalanish masalasini rasmiylashtirish ko'zda tutiladi. Lizing shartnomasi ishtirok etuvchi tomonlarning munosabatlari aks etadigan asosiy hujjat hisoblanadi. U lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida tuziladi va unda lizing mulki ishlab chiqarishda foydalanish uchun berilishi ko'rsatiladi. Lizing shartnomasi bitim obykti foydalanishga berilgani va ko'rsatilgan muddat mobaynida ishlashi sifatida lizing mulki qabul qilingani to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan vaqtdan kuchga kiradi. Mulkning qabul qilinganligi to'g'risidagi dalolatnoma lizing oluvchi tomonidan rasmiylashtiriladi, lizing shartnomasini unda qatnashuvchi barcha tomonlar imzolaydi, ya'ni lizing beruvchi, lizing oluvchi, yetkazib beruvchi–lizing mulkini ishlab chiqaruvchi. Lizing mulki foydalanishga olinganligi to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganach, lizing beruvchi lizing oluvchi oldida mas'uliyatga ega bo'lmaydi, chunki u olinadigan lizing mulkidan mustaqil ravishda foydalanadi.

Lizing mulkidan foydalanish jarayonida yuzaga chiqadigan va sinish, yo'qolish, muddatidan oldin ishdan chiqish, buzilish va shikastlanish bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni, yetkazilgan zarardan qat'i nazar, lizing oluvchi o'z zimmasiga oladi.

Lizing biznesi barqaror rivojlanishi uchun bizning mamlakatimizda lizing bitimi qatnashchilarining tavakkalchiligini to'g'ri baholash va minimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Lizingdan manfaatdor tayinli mijozlarning lizing beruvchini izlashi lizing bitimi tuzish bo'yicha tashkiliy ishlarning umumiy maqsadi hisoblanadi. Amalda lizing bitimi tuzish tashabbusi, odatda, tayinli lizing oluvchi tomonidan bo'ladi. U zarur mulkka ega bo'lgan yetkazib beruvchini mustaqil tanlaydi yoki lizing kompaniyasiga yoki tijorat bankiga yetkazib beruvchini topishda yordam berishni so'rab murojaat qiladi. Bunday holda uskuna turi va lizing kompaniyasi tavsiya etganlardan birini tanlash huquqini lizing oluvchi o'zida saqlaydi. Tomonlararo

o'zaro munosabatning barchasi keyinchalik tavsiya-ariza asosida ko'riladi, u lizing beruvchiga lizing oluvchi tomonidan beriladi. Ariza ixtiyoriy shaklda tuziladi, lekin unda zarur uskunaning texnikaviy tavsifi, uning iqtisodiy ko'rsatkichlari, yetkazib beruvchining nomi va rekvizitlari ko'rsatilishi shart. Ariza bilan bir paytda tayinli lizing oluvchi lizing beruvchiga yuridik tasdiqlangan o'z ustavi va investitsiya loyihasini amalga oshirish biznes-rejasi nusxasini taqdim etadi. Ayni shu bosqichda lizing kompaniyalar biznes-rejasini baholashda ular taklif etgan loyihalar saralanadi. Lizing kompaniyalari qabul qilgan murojaatnomalar, ko'rib chiqilgan loyihalar va amalga oshirilgan shartnomalarning nisbatini 100:50:5 ga qiyoslash mumkin. Lizing oluvchilar loyihalarning rad etilishiga ko'pincha to'g'ri tayyorlangan va o'z vaqtida taqdim etilgan biznes-reja mavjud emasligi sabab bo'ladi.

Lizing oluvchi to'lov majburiyatlarini bajarmagan taqdirda lizing beruvchi o'z ehtiyojini ko'zlab, mijozni to'lovga qobilligi nuqtayi nazaridan iqtisodiy faoliyatini baholashni o'tkazadi. Bundan tashqari, lizing beruvchi lizing loyihasini mulkni qayta lizingga berish ehtimoli borligini yoki lizing oluvchining aybi bilan lizing shartnomasi muddatidan ilgari bekor qilinishiga to'g'ri kelganda uni sotishni tahlil etish talab etiladi. Lizing oluvchining to'lovga qobilligini baholash bank mijozdarining kreditga qobilligini tahlil qilishi uchun qabul qilingan umumiy asoslarda amalga oshirilishi mumkin. Biroq lizing operatsiyasi mumtoz talqinda uzoq muddatli tavsifga ega ekanligi tufayli lizing beruvchi faqat lizing oluvchining joriy moliyaviy ahvoligina emas, balki lizing bitimi muddatiga mos keluvchi istiqboldagi davr ichida barcha to'lov majburiyatlarini bajarishga qanchalik qobilligi bilan ham qiziqishi kerak.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Lizing jarayoni nimalardan iborat?
2. Lizing bitimi nima?
3. Lizing shartnomasini tuzish tartibi qanday?
4. Lizing shartnomasining qanday asosiy shartlari mavjud?
5. O'zbekistonda lizing shartnomasi qanday amalga oshiriladi?

13-BOB. LIZING OPERATSIYALARI BO‘YICHA MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR

13.1. LIZING OPERATSIYALARI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALAR

Jahon iqtisodiyotida lizing gurkirab rivojlangan davr 20-asrning 60–70-yillari bo‘ldi, bu bozor munosabatlarining, ayniqsa, moliya sohasining yanada rivojlanishini taqozo etgan zamonaviy texnologiyalar jadal sur‘atlar bilan o‘sganligi bilan aloqador edi. Lizing munosabatlari paydo bo‘lish tarixining sharxiga xulosa qilib, uni qarzga olish asosida yuzaga kelgan yaxlit iqtisodiy va huquqiy tizim sifatida qabul qilish mumkin. Lizingning rivojlanish tarixi shuni ko‘rsatadiki, lizingning paydo bo‘lishiga obyektiv sabablar imkon berdi va tegishli shart-sharoitlar bir tomondan lizing mulkiga talabni oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan unga ehtiyojni shakllantirdi, uchinchi tomondan bo‘sh turgan moliyaviy resurslarni lizing munosabatlarini rivojlantirish uchun jalb etishning oshishiga olib keldi, mazkur barcha hollarda lizing munosabatlari faqat lizing munosabatida qatnashuvchi tomonlar o‘zaro manfaati bir-biriga mos kelgan hollardagina amalga oshdi.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida turli darajada bo‘lsa ham amortizatsiya ajratmalari tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan soliq imtiyozlari mavjud. Ular muayyan sohaning rivojlanishini rag‘batlantirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni yoki umumiy investitsiyani jonlantirish uchun foydalaniladi. Germaniyada amortizatsiyaning uslub va me‘yorlari – puxta ishlab chiqilgan qonunchilikning predmetidir. Federal moliya vazirligi va yer bo‘yicha moliya vazirligi asosiy vositalarning har xil turlari bo‘yicha amortizatsiyaning me‘yor va uslublari aniqlangan rasmiy ma‘qullangan jadvallarni (90 dan ziyod) e‘lon qiladilar.

Boshlang‘ich sifatida bir tekis ajratmalarning chiziqli usuli foydalaniladi. Ishlab chiqarish bino va inshootlar uchun yillik

amortizatsiya ajratmalarining ruxsat etilgan me'yori 4 foiz (ya'ni ularning xizmat muddati 25-yil deb olinadi), ishlab chiqarish mashinalari va uskunalar—10 foiz (xizmat muddati 10-yil), kompyuterlar—20 foiz, avtotransport vositalari—20–25 foiz va hokazo. Lekin bir vaqtning o'zida Germaniya qonunchiligi kompaniyalarga ushbu vositalarga jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llash huquqini beradi.

Eng ko'p qo'llaniladigan uslub—bu asosiy vositalarning birinchi yillari uchun chiziqli uslubga nisbatan keskin ko'tarilgan va so'nggi yillar uchun keskin pasaytirilgan (taxmin qilingan xizmat muddati o'zgarmagan holda) yo'l qo'yilgan uslubidan foydalaniladi. Demak, ishlab chiqarish bino va inshootlar uchun yillik amortizatsiya me'yorlari inshoot xizmat muddatining dastlabki 4 yil uchun—10 foiz, keyingi 3 yil uchun—5 foiz va so'nggi 18 yil uchun—2,5 foiz belgilanadi. Ishlab chiqarish mashinalari va uskunalar xizmat muddatining dastlabki bir necha yil uchun yillik amortizatsiya me'yorlarini 3 barabar oshirilishiga ruxsat beriladi.

1986-yilda qabul qilingan «Davlat soliq siyosati to'g'risida»gi Qonun ilgari ruxsat qilingan soliq imtiyozlarni qo'llanishini toraytirgan bo'lsada, katta maqsadli yo'naltirilganlikni berdi. Amortizatsiya muddati asosan asosiy vositalarning passiv qismiga (bino va inshootlar) uzaytirildi. Lekin shunga qaramasdan, ularning aktiv qismi uchun amortizatsiya ajratmalari yanada tezlashtirildi—amortizatsiya muddati 5 yil bo'lganda, dastlabki 2 yil ichida uskuna qiymatining 64 foizi miqdorida ajratma hisoblash ruxsat etilgan.

Shvetsiyada amortizatsiyaga olib borish tizimi qiymati ancha bo'lmagan va xizmat muddati 3 yilgacha bo'lgan uskunalarni ularni sotib olgan yilida xarajatga olib borishga yo'l qo'yiladi, umuman mashina va uskunalar bo'yicha—4–5 yil ichida.

Fransiyada ishlab chiqarish va qayta ishlash sohada foydalaniladigan, energiya saqlaydigan, ekologik, informatsion uskunalar va hokazolarga jadallashtirilgan amortizatsiya qo'llash imkoniyati mavjud. Masalan, kompyuterni 1-yilda amortizatsiyalash mumkin. Uskunaning xizmat muddati 4-yilgacha bo'lgan jadallashtirilgan amortizatsiya koeffitsiyenti 1,5, xizmat muddati 5–6 yil bo'lganda—2; 6 yildan oshsa—2–2,5 ga teng.

Jadallashtirilgan amortizatsiya usuli nafaqat barcha rivojlangan mamlakatlarda, balki turli darajada rivojlanayotgan mamlakatlarda ham ishlatiladi. Jadallashtirilgan amortizatsiyaning umumiy xususiyati–texnik qayta qurollashda investitsiyalarni ragʻbatlantirish uchun ushbu usullardan intensiv foydalanishidir.

Rossiyada amortizatsiyaning asosiy meʼyorlariga quyidagi koeffitsiyentlarni qoʻllashga ruxsat etiladi: agressiv muhit va/yoki yuqori smenali sharoitda foydalaniladigan asosiy vositalar uchun–2 gacha, qishloq mahsulotlari yetishtiruvchi hamda kichik biznes subyektlari tomonidan foydalanilganlari uchun–2 gacha; lizing obyekti sifatidagi asosiy vositalarga–3 gacha.

Jadallashtirilgan amortizatsiya mexanizmini qoʻllash bilan birga kichik biznes subyektlari xizmat muddati 3 yildan yuqori boʻlgan asosiy fondlar boshlangʻich qiymatining 50 foizgacha qoʻshimcha amortizatsiya ajratmalar qilishi mumkin.

Xuddi shunday Ukrainada ham jadallashtirilgan amortizatsiyani qoʻllash bilan birga kichik korxonalariga foydalanishning dastlabki yili xizmat muddati 3 yildan yuqori boʻlgan asosiy fondlar boshlangʻich qiymatining 20 foizgacha qoʻshimcha amortizatsiya ajratmalar qilishi ruxsat etilgan.

13.2. OʻZBEKISTONDA LIZING XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Mamlakatimizda lizing operatsiyalari 1993-yilning boshlarida, Sobiq ittifoq tarqab ketgach yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz sharoitlarida respublikamizdagi moliyaviy imkoniyatlar cheklangan va iqtisodiy sharoitlar ishlab chiqarishning rivojlanishiga xizmat qilmay qoʻygan vaqtda boshlangan.

Oʻzbekiston iqtisodiy tiklanishni ragʻbatlantirish uchun iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kapital investitsiyalariga muhtoj edi. Bunday qiyin vaziyatlarda xoʻjalik faoliyatining respublikamiz uchun yangi boʻlgan shakllari, xususan, lizing shakllari ishlab chiqila boshlandi. Bu bexosdan emas edi, albatta. Lizing zarur kapital qoʻyilmalarini jalb etishning potentsial samarali usulidir.

Tijorat va kooperativ banklar tarmogʻining rivojlanishi ham lizingning shakllanishiga katta taʼsir koʻrsatdi. Shu vaqtdan boshlab Oʻzbekistonda lizing faoliyatiga boʻlgan qiziqish oʻsa boshladi. Lizing kompaniyalari soni oʻsib, ularning faoliyat sohasi kengayib bormoqda. 1999-yilning aprelida lizing operatsiyalari asosida investitsiyalashni amalga oshirish tartibi, huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy asoslarini belgilab bergan lizing va lizing faoliyati toʻgʻrisidagi qonun tasdiqlandi. Bu qonunga asosan lizing kompaniyalari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha Hukumat Dasturi ishlab chiqildi. Undan tashqari, Oʻzbekiston 1988-yildagi xalqaro lizing toʻgʻrisidagi Ottava Konvensiyasiga qoʻshilgan, shuningdek, respublika lizing kompaniyalarining «Lizevrop» Yevropa lizing kompaniyalari assotsiatsiyasi bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish toʻgʻrisida kelishuvlar imzolangan.

Bugungi kunda Oʻzbekistonning lizing bozorini «Oʻzavializing», «Oʻzazinginterneyshnl AJ», «Oʻzkeysagrolizing», «Baraka» ULK, Osiyo-Yevropa trust kompaniyasi va boshqalar namoyon etadilar (13.3.1-jadval). Bu kompaniyalarning barchasi oʻz faoliyatini boshlagandan beri biznesning turli yoʻnalishlari boʻyicha turli xil lizing xizmatlarini koʻrsatib kelmoqda. Eng koʻp tarqalgan lizing turlari bu moliyaviy, qaytuvchi va boʻlinma usulidir.

«Oʻzbekiston havo yoʻllari» milliy aviakompaniyasi lizing operatsiyalarini amalga oshirishning ilk tashabbuskorlaridan boʻldi. Aviakompaniya xalqaro avializing yordamida oʻz texnika parkini yangilash va barcha texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlarini oʻstirishga erishdi. Bugungi kunda u «Boing-767», «A-310» va «RJ-85» kabi 80 dan ortiq eng yangi zamonaviy laynerlarga ega. Mazkur samolyotlardan lizing asosida foydalanilib, ularni qoldiq qiymati boʻyicha sotib olish 48 million AQSh dollarini tejash imkonini beradi. MDH va Oʻzbekiston aviabozorining marketing tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, oʻrta muddatli istiqbolda samolyotlarga boʻlgan ehtiyoj oʻsib boradi. Buni ekspluatatsiya qilinayotgan texnikalarning maʼnaviy jihatdan eskirganligi va oʻz vaqtida yangilanmaganligi, mavjud samolyotlardan foydalanish muddati oxiriga yaqinlab qolganligi bilan izohlash mumkin. Samolyotlar lizingiga boʻlgan talabning oʻsib borishi lizing kompaniyasini yaratishni asoslab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi lizing kompaniyalari tavsifnomasi

Kompaniya nomi	Kompaniyaning mulkchilik shakli	Kompaniyaning faoliyat turi	Manzilgohi	Lizing turi
1. «O‘zavializing»	Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati	Samolyotlar lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy operativ
2. «O‘zlizinginterneyshnl»	Yopiq tudagi aksiyadorlik jamiyati	Asbob-uskunalar lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
3. «Baraka»	Davlat	Harakatlanuvchan va ko‘chmas mulk lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy qaytuvchi, bo‘linma
4. «O‘zkeysagro-lizing»	Qo‘shma korxonalar	Qishloq xo‘jaligi texnikasi lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
5. «OYETK»	Sho‘ba korxonalar	Asbob-uskunalar lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
6. «O‘zqishloq xo‘jalik mashlizing»	Aksiyadorlik jamiyati	Qishloq xo‘jaligi texnikasi lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
7. Biznes lizing	Xususiy	Asbob-uskunalar lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
8. Qurilish lizing	Xususiy	Qurilish texnikasi lizingi	Toshkent sh.	moliyaviy
9. «Ischan»	Xususiy	Asbob-uskunalar lizingi	Samarqand sh.	moliyaviy
10. «Samarqand» xo‘jalik hisobidagi lizing markazi	MCHJ	Asbob-uskunalar lizingi	Samarqand sh.	moliyaviy
11. «Samriza»	Xususiy	Harakatlanuvchan mulk lizingi	Samarqand sh.	moliyaviy
12. KPF lizing	Jamoaviy	Harakatlanuvchan mulk lizingi	Xorazm sh.	moliyaviy
13. «Progress»	Xususiy	Ko‘char mulk lizingi	Samarqand sh.	moliyaviy

M a n b a: Lizing kompaniyalarining hisobot ma’lumotlari.

1997-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan «O‘zavializing» aksiyadorlik lizing kompaniyasiga asos solindi. Kompaniyaning asosiy faoliyat turlariga avia-bozor marketingi va moliyaviy lizing sxemasida keyinchalik sotib olishni ko‘zda tutuvchi operativ lizingni amalga oshirishni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, lizing o‘z buyurtmachilarga quyidagi xizmatlar tizimi majmuasini taklif qiladi:

- aviataxnika texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash;
- ishonchlilikni ta‘minlash;
- havo kemalarini sug‘urtalash;
- uchuvchi va texnik xodimlarni tayyorlash;
- lizing oluvchiga berilgan samolyotlardan lizing shartnomasi amal qilayotgan muddatda to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilish.

Kichik va o‘rta biznes namoyondalarining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish, bozorni yuqori sifatli xalq iste‘mol tovarlari va ishlab chiqarish-texnik yo‘nalishdagi mahsulotlar bilan to‘ldirish, tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarni to‘liq qondirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 5-yanvardagi 6-sonli qarori bilan «O‘zbeklizing-interneyshnl AJ» xalqaro kompaniyasi tuzildi. Kompaniya yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati bo‘lib, uning ta‘sischilari aksiyadorlik kapitali 15% bo‘lgan Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, aksiyadorlik kapitali 35% bo‘lgan MEYBANK (Malayziya) va O‘zbekiston Respublikasi TIF Milliy Banki hisoblanadi. Nizom jamg‘armasi 4 mln. AQSh dollariga teng. Bundan tashqari, har bir ta‘sischi kompaniyaga 7-yil muddatga 5 mln. AQSh dollari miqdorida kredit beradi, bu jami 20 000 000 AQSh dollarini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan quyidagilar lizing kompaniyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- zamonaviy texnologik asbob-uskunalarni sotib olish va ulardan foydalanishni uzoq muddatli moliyalashtirish;
- tovarlarning eksport salohiyatini oshirish va import o‘rni bosuvchi tovarlarni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston iqtiso-

diyotining ustuvor tarmoqlariga lizing doirasida ilg'or texnologiyalarni jalb qilish;

- kichik va o'rta tadbirkorlikning rivojlanishi, xalq iste'mol tovarlari va xizmatlar ishlab chiqarishni o'stirish uchun keng lizing xizmatlari doirasini taqdim etish;

- respublikada lizing operatsiyalarini amalga oshirish uslubiyati va lizing operatsiyalari bozorini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi Kengashi rahbariyati topshirig'iga binoan kompaniya o'zining asosiy faoliyat yo'nalishlarini quyidagicha belgilagan:

- ishlab chiqarish vositalarini respublika iqtisodiyotining ustivor tarmoqlariga yetkazib berish bo'yicha lizing operatsiyalarini amalga oshirish vositasida uzoq va qisqa muddatli moliyalashtirishni amalga oshirish;

- ilg'or texnologik jarayonlar va asbob-uskunalarini izlab topish va harakatlantirish, shuningdek, O'zbekiston sharoitlarida ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlili;

- kichik va o'rta biznes subyektlarini import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar bilan lizing sharoitlarida ta'minlash;

- lizing operatsiyalari amalga oshirish va ixtisoslashgan lizing bo'linmalarini tashkil etishda banklarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;

- ko'p kanalli moliyalashtirishni ko'zda tutuvchi lizing loyihalarini banklar bilan birgalikda amalga oshirish;

- lizing loyihalarini investitsiyalash uchun kredit va qarz mablag'larini jalb qilish.

O'z faoliyatini boshlagandan beri kompaniya mutaxassislari tomonidan umumiy qiymati 15271 mln. so'm bo'lgan 69 ta lizing loyihasi moliyalashtirilgan. Sutni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan eng yirik loyiha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 10-oktabrdagi 434-sonli qaroriga asosan 1999-yil aprelining oxirlarida 23,6 mln so'm miqdorida moliyalashtirilgan. Bu

loyiha davlat miqyosida ko'rib chiqilgan, chunki ta'minotchi Isroilning «Marav Technologies food» kompaniyasi bo'lib, hisob-kitob xorijiy valutada amalga oshirilgan. Mazkur loyiha lizingning taqsimlangan turini ko'zda tutadi, ya'ni moliyalashtirish biznes-fond hamda dehqon va fermer xo'jaliklari assotsiatsiyasining kreditlari va ulush ishtiroki hisobiga amalga oshiriladi. «Barka» ULKning nizom kapitalida Biznes-fondning ulush ishtirokida olingan mablag'lar avans to'lovlari, «Iftrik» (Isroil) sug'urta agentligi sug'urta mukofoti, investitsiya davrida Isroil banklariga kredit bo'yicha foizlar, shuningdek, konvertatsiya va akkreditiv ochish uchun xarajatlarga yo'naltiriladi.

Lizing jarayonlarini amalga oshirishda, shuningdek, marketing tadqiqotlari tufayli kompaniyalar tomonidan bir qonuniyat aniqlandi. Unga ko'ra mamlakatimizdagi lizing oluvchilar lizing sharoitlarida mahalliy xomashyo bilan ishlovchi minitexnologiya va asbob-uskunalarni (go'sht, sut, meva, sabzavot, terini qayta ishlash va hokazo), shuningdek, ishlab chiqarilgan avtomobillarni lizingga olishga moyillik bildiradilar. Lizing xizmatlari ko'rsatishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- barcha mulkchilik shaklidagi korxonalar «Baraka» ULKning mijozlari bo'lishi mumkin;

- lizing xizmatlariga ariza berishda mutaxassislar tomonidan potensial lizing oluvchining moliyaviy ahvoli, uning mazkur faoliyat sohasidagi tajribasi, ko'rib chiqish uchun topshirilgan loyihaning istiqbolliligi hisobga olinadi;

- lizing xizmatlari 5-yilgacha bo'lgan muddatga beriladi;

- asbob-uskunalarni moliyalashtirish miqdori 100 mingdan 20 mln. so'mgacha bo'lishi mumkin;

- foiz stavkasi yiliga 30–40% ini tashkil etadi.

Loyihalarni ko'rib chiqishda mutaxassislar mahalliy xomashyoni qayta ishlash, ularni tayyor raqobatbardosh mahsulotga aylantirish, faoliyati import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan rentabelli yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning paydo bo'lishi, zamonaviy kommunikatsiya

tizimlari va ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi, iste'mol bozorini birlamchi zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirishga oid loyihalarni afzal ko'radilar.

Lizingni rivojlantirish maqsadida 1999-yilning mayida «Layfz Baraka» sho'ba korxonasi tuzildi. «Layfz Baraka» sho'ba korxonasining nizom jamg'armasi «Baraka» ULK mablag'lari hisobiga shakllantirilib, 12 mln. so'mni tashkil etdi. Umuman, lizing operatsiyalarini amalga oshirish natijasida «Baraka» ULK lizing oluvchi korxonalarda qo'shimcha ish joylarining paydo bo'lishi, bozorning yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirilishi, respublikamizga yangi texnologiyalarni jalb qilish hamda kichik biznesni rivojlantirishga katta yordam ko'rsatdi.

Lizing operatsiyalarini tashkil etish sohasida birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun kompaniya mamlakatning 17 ta tijorat banklari hamda tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar respublika Palatasi bilan bosh kelishuvni imzoladi. Shuningdek, Butun Ukraina lizing assotsiatsiyasi va Latviya lizing beruvchilar milliy assotsiatsiyasi bilan aloqalar yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, «Baraka» ULK O'zbekistonda lizingni rivojlantirish jamg'armasi va lizing kompaniyalari assotsiatsiyasini yaratishda ishtirok etadi.

Qishloq xo'jaligini zamonaviy, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish uchun, jumladan, yetakchi xorijiy kompaniyalar ishtirokida zarur sharoitlarni yaratish, yetkazib berilayotgan traktor va hosilni yig'uvchi mashinalar uchun hisob-kitob mexanizmini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-dekabrda 486-sonli qaroriga asosan «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi tuzildi. Lizing kompaniyasining nizom jamg'armasi 10000000 ming so'mga teng.

«O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK ta'rischilari quyidagilardir: «O'zqishloqxo'jalikmash-xolding» – 100,0 mln. so'm;

– «O'zqishloqxo'jalikta'minotta'mirlash» DKK – 50,0 mln. so'm;

– «O'zsanoatmashimpeks» – 50,0 mln. so'm;

– boshqa aksiyadorlar – 2%.

Har bir aksiyador kompaniya boshqarish organlarida ishtirok etish, dividend ko‘rinishida foydaning bir qismini olish, shuningdek, kompaniyaning xo‘jalik-moliyaviy faoliyati natijalari to‘g‘risidagi to‘liq va ishonchli ma‘lumotlarni olish huquqiga ega. Erkin savdoga chiqarilgan, joylashtirilmagan aksiyalar nizom jamg‘armasining 33% ini tashkil etadi. Kompaniya respublikamizdagi mashina-traktor parklari va xo‘jalik korxonalariga qishloq xo‘jaligi texnikalarini 7 yil muddatga lizing asosida quyidagi shartlarda yetkazib berishga ixtisoslashadi:

– traktor va hosilni yig‘ish mashinalari qiymatining 15% i hududiy mashina-traktor parklari, muqobil mashina-traktor parklari, qishloq xo‘jaligi shirkatlari va fermer xo‘jaliklari tomonidan o‘z mablag‘lari hisobiga avans shaklida to‘lanadi;

– traktor va hosilni yig‘ish mashinalari qiymatining 85% i «O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan unga qarz asosida O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi qoshidagi qishloqni qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta‘minlashni rag‘batlantirish davlat jamg‘armasi tomonidan beriluvchi mablag‘lar hisobiga to‘lanadi;

– texnika lizing oluvchilarga lizingga olinayotgan texnikalarni butun lizing muddatiga sug‘urta polisi mavjud bo‘lgan holdagina beriladi;

– lizing kompaniyasi daromadlarining (marjasining) imtiyozli stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasining 50% idan ortmasligi lozim.

Respublika mintaqalarida lizing kompaniyalari o‘tkazayotgan marketing tadqiqotlari potensial lizing oluvchilarning texnikaga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi. Arizalarga asosan lizingga beriluvchi texnikalarga ehtiyoj hajmi haqiqiy ehtiyojdan 9 baravar ko‘pdir. Bularning barchasi lizing xizmatlari hajmini va mos ravishda kompaniya daromadlarini oshirishga turtki bo‘ladi.

Shu tariqa, lizing biznesining O‘zbekistonda hali «juda yosh»ligiga qaramay, lizing xizmatlari bozorini to‘liq shakllangan

deb hisoblash mumkin. Respublikamizda lizing xizmatlari bozori-ning asosiy segmentlari quyidagilar hisoblanadi: aviatsiya sanoati, tibbiyot va dorishunoslik, oziq-ovqat sanoati, qurilish, qishloq xo'jaligi, avtotransport, xizmat ko'rsatish sohasi va yengil sanoat.

Erishilgan natija va tajribalar kompaniyalar uchun o'zlarining faol va mahsuldor faoliyatini davom ettirishga turtki vazifasini bajaradi. Kompaniyalar vakolatxonalarining respublikamiz barcha mintaqalarida tashkil etishlari davom ettirilmoqda. Bundan tashqari, lizing kompaniyalari mutaxassislari O'zbekistonda lizingni rivojlantirish jamg'armasi va lizing kompaniyalari assotsiatsiyasini tuzishda ishtirok etish niyatidalar. Bularning barchasi lizing kompaniyalari O'zbekiston moliya bozorida o'z o'rnini topib, samarali loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirayotganligi, dinamik rivojlanib, O'zbekiston uchun yangi lizing shakllarini joriy qilishga imkon yaratadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi lizing bozori haqida tushuncha bering.
2. Lizing bozori nima?
3. Lizing operatsiyalari bo'yicha qanday xalqaro tajribalar mavjud?
4. O'zbekiston Respublikasidagi qaysi lizing kompaniyalarini bilasiz?
5. Respublikamizda lizing xizmatlari bozorining asosiy segmentlari qaysilar?

IZOHLI LUG'AT

Bankrot–qarzlik, nochorlik, tadbirkorning o'z qarz majburiyatlari bo'yicha mablag'i bo'lmaganligi uchun to'lashdan bosh tortishi.

Barqarorlik–narsa va hodisalarga xos muayyanlikni ifodalaydi.

Biznes–ingilizcha so'z bo'lib, foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi.

Davlat budjeti–davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

Daromad solig'i–fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).

Daromad solig'i stavkalari–aholi daromadlaridan tabaqalashtirilgan holda olinadigan soliqlarning foizlardagi darajalari.

Defitsit–budjet xarajatlarining daromadlardan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

Diversifikatsiya–(lotinchadan diversus–har xil va facere–qilmoq, bajar-moq)–ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohaslarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

Divident–aksioner jamiyati sof foydasining bir qismi, aksionerlarga daromadlar naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.

Jahon banki–1944-yilda Xalqaro valuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'z faoliyatini 1946-yil 25-iyundan boshlagan.

Jahon bozori konyunkturasi–jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi–mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtirok etish, jahon bozorida o'z o'rni va mavqei saqlab qolish va kengaytira olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish layoqati bo'lib, quyidagilar orqali belgilanadi: mamlakatdagi ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari miqdori, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, mutlaq va nisbiy ustunliklarning mavjudligi.

Investitsion kreditlar–ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

Investitsion loyiha dasturi–O'zbekiston respublikasida qabul qilingan qonunchilik andozalariga muvofiq ishlab chiqilgan zaruriy hujjatlarni hisobga olgan holda kapital qo'yilmalar hajmi va amalga oshirish muddatining maqsadga

muvofiqligini asoslovchi va shuningdek, investitsiyalarni (biznes reja) amalga oshirish bo'yicha amaliy faoliyatning dasturidir

Investitsion siyosat–savdo menenjmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo'lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo'llarini tiklashni nazarda tutadi.

Investitsion soliq krediti–investorga soliq majburiyati bo'yicha soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati.

Investitsion hamkorlik–xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.

Investitsiya–bu iqtisodiy samara (foйда, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.

Investitsiya dasturi–ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur.

Investitsiya kompleksi–investitsiya faoliyatini ta'minlovchi tashkilotlar, korxonalar va firmalar majmuasi.

Investitsiya muhiti–investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmuyi.

Investitsiya faoliyati–investitsiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat. Investitsiya kompleksi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.

Infratuzilma–tovar ishlab chiqarish shartlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo'llar, aloqa, transport, maorif, sog'liqni saqlash.

Iste'mol–ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholining iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

Iste'mol krediti–markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosati vositasi (instrumenti). U banklar tomonidan berilishi mumkin bo'lgan ichki kreditning maksimal miqdori rasmiy ravishda belgilanishini taqozo etadi.

Iste'mol tovarlari–inson ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan iste'mol buyumlarining tovar shakli; pulga sotib olib, iste'mol qilinadigan moddiy mahsulotlar va har xil xizmatlar.

Ish bilan band bo'lgan jami aholi–ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi.

Ish haqi–joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan

soʻmmalar yigʻindisidan tashkil topadi va ikki qismga boʻlinadi: ish haqi va ijtimoiy sugʻurtaga ajratmalar.

Ishlab chiqarish—maʼlum davrda alohida xoʻjalik yurituvchi subyektlar, tarmoqlar va iqtisodiy sektorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mol va xizmatlar qiymati.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi—ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni taʼminlovchi tarmoqlar majmuyi boʻlib, oʻz ichiga temir va avtomobil yoʻllari, elektr, gaz va suv taʼminoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xoʻjaligi va boshqalarni oladi.

Ishsizlik—iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi oʻz kuchini qoʻllay olmay «ortiqcha» boʻlib, mehnat zaxirasi armiyasi boʻlib qolish hodisasi.

Kapital qurilish—yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, obyektlar, vositalarni mukammal taʼmirlash, shu jumladan, loyiha-qidiruv ishlarini bajarish.

Kapital qoʻyilmalar—quvvatlarni takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qurishga qaratilgan resurslar va jami ijtimoiy mehnatning qiymatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya. Davlat tomonidan (davlat buyurtmasi), turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar, banklar hamda xususiy shaxslar tomonidan ajratiladigan pul mablagʻlari kapital qoʻyilmalarning manbalari boʻlishi mumkin. Kapital qoʻyilmalar yangi korxonalar qurishga yoki amaldagi korxonalarni qayta taʼmirlashga yoʻnaltirilishi mumkin.

Kapital xarajatlar—asosiy kapitalga kiritiladigan mablagʻlar va zaxiralarning oʻsishi.

Kasanachilik—yirik sanoat korxonalari bilan tuzilgan shartnoma asosida uy sharoitida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish.

Kichik biznes subyektlari—korxonalar koʻlami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablagʻlari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi subyektlar.

Konyunktura—bu bozorda maʼlum bir vaqtda yuzaga kelgan iqtisodiy holatdir (asosan, talab hamda taklif nisbati va u bilan bogʻliq boʻlgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Kooperatsiya aloqalari—turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida maʼlum mahsulotni tayyorlash boʻyicha uzoq muddatli aloqalarni oʻrnatish.

Korxonalariga preferensiya berish—milliy iqtisodiyotda faoliyat koʻrsatuvchi korxonalarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarishga chet eldan olib kiradigan xomashyo va materiallar, yarim-tayyor mahsulotlar, shuningdek, asbob-uskunalar olib kirishda boj toʻlovlari va boshqa jarayonlar boʻyicha yengilliklar (imtiyozlar) berilishi.

Korxonaning innovatsion salohiyati—korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish

maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovatsion salohiyati tashkilotning ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarning (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me'yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi.

Kredit–jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'larlarini bir joyga jamlab, ularni ma'lum bir tamoyillar asosida berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmuyi.

Modernizatsiya–(grekchadan moderne–yangicha)–obyektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya tizimi–moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Moliyaviy institutlar–belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

Moliyaviy manbalar–iqtisodiyotning turli darajasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi moliyaviy mablag'larning kelib chiqish manbalari. Masalan, moliyaviy manbalar aholi va korxonalarining manbalari, davlat budjeti mablag'lari, qarzga olingan mablag'lar, xorijiy investorlarning mablag'lari va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Narx (baho)–tovar qiymatining puldagi ifodasi (shakli).

Preferensiya–iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxonalar va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Proteksionizm–davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman ta'qiqlanadi.

Pul-kredit siyosati–bu davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmuyi.

Pul–hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

Rekonstruksiya (qayta tiklash) – faoliyat yuritayotgan korxonani manaviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirish. Qayta tiklashda eski sexlar o'rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

Rentabellik–korxonalar faoliyatining foydalik darajasi. Uning uch xil ko'rsatkichi mavjud: korxonalar aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko'rsatkichlarning balansdagi (sof) foyda

ko'rsatkichini korxonalar aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

Saldo—muayyan vaqt davomida moliyaviy tushumlar va sarflar, eksport va import qiymati (savdo balansi saldosi), xorijiy to'lovlar va tushumlar (to'lov balansi saldosi) o'rtasidagi farq.

Samarali iqtisodiy siyosat—davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o'zaro uyg'unlashtirilgan chora-tadbirlari majmuyi.

Sektor—institutsion birliklar yig'indisi bo'lib, ularning maqsadi, moliyalashtirish manbalari va funksiyalari bir xil bo'ladi, natijada ularning iqtisodiy huquqi ham o'xshashib ketadi.

Soliq imtiyozlari—soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Soliq stavkasi—soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliq me'yorini ifodalaydi.

Soliq yuki—soliq to'lovchining muayyan davrda budjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisini ifodalaydi.

Soliq yukini yengillashtirish—soliqlarning foiz stavkalarini kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

Soliqlar—bular majburiy, qaytarilmaydigan to'lovlar. Ular davlat organlari tomonidan ishlab chiqarish birliklaridan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganlari uchun olinadi.

Tannarx—mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun ketgan barcha xarajatlarning qiymati.

Yalpi ichki mahsulot—mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2012–yil 19-yanvar.
2. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.–Prezident Islom Karimovning 2010-yilning asosiy yakunlari va 2011-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2011-yil 22-yanvar.
3. Asosiy vazifamiz–Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.–Prezident Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2010-yil 30-yanvar.
4. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish–ustuvor maqsadimizdir.–Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2010-yil 28-yanvar.
5. O'zbekiston Konstitutsiyasi–biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam po'ydevordir.–Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2009-yil 6-dekabr.
6. *Karimov I.A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009. –56 b.
7. *Karimov I.A.* Eng asosiy mezon–hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: O'zbekiston, 2009. –24 b.
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Chet ellik investitsiyalari to'g'risida. 1998-yil 30-aprel.
9. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya choralari to'g'risida. 1998-yil 30-aprel.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida. 2010-yil 27-yanvar.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida. 2009-yil 28-oktyabr.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2008-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risida. 2009-yil 13-fevral.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2009-yil 20-yanvar, PQ–1041-son.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. //Soliqlar va bojxona xabarlari, 2003-yil 16–may.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida. 2008-yil 28-noyabr, PF–4058-son.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2005-yil 11-aprel.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibni tasdiqlash to‘g‘risida. 2008-yil 19–noyabr, F–4010-son.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2008-yil 18-noyabr, PF–4053-son.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
20. O‘zbekiston–iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo‘lida. (Bekmurodov A.Sh., G‘afurov U.V.) -T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b. (elektron versiyasi bilan).
21. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari (o‘zbek va rus tillarida). Ilmiy-ommabop qo‘llanma. (Bekmurodov A.Sh., Gimranova O.B., Shamshieva N.N.) -T.: Iqtisodiyot, 2009. – 92 b. (elektron versiyasi bilan).
22. O‘zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo‘lida. Ekspres-prospekt. (Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G‘afurov U.V. va Ne‘matov I.U.)–T.: Iqtisodiyot, 2009. –5 b. (elektron versiyasi bilan).

23. *Боди, Зви, Кейн, Алекс, Маркус, Алан.* Принципы инвестиций, 4-е издание.: Пер. с англ. «Вильямс», 2008. – 984 с .
24. *Дамодаран А.* Инвестиционная оценка: Инструменты и методы оценки любых активов: Пер. с англ.–4-е изд. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 1340 с.
25. Инвестиции: Учебник /А.Ю. Андрианов, С.В. Валдайцев, П.В. Воробьев и др. –2-е изд., перераб. и доп.–М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008.–584 с.
26. *Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж.* Инвестиции: Пер. с англ.–М. ИНФРА-М, 2007. –1028 с.
27. Внешнеэкономическая деятельность: Учебник. /Б.М. Смитиенко, В.К. Поспелов, С.В. Карпова и др.; под ред. Б.М. Смитиенко, В.К. Поспелова. –4-е изд., перераб. и доп.–М.: Академия, 2007.–304 с.
28. *Расулов Н.Н.* Стимулирование привлечения иностранных инвестиции в экономику Узбекистана.–Т.: ФАН, 2003. –165 с.
29. *Bekturodov A.Sh., Qorieva Y.K., Nematov I.U.* Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma.–Т.: Iqtisodiyot, 2011.–196 b..
30. *Дегтярёв О.И.* Внешнеэкономическая деятельность: Учебное пособие. / Дегтярёва О.И., Полянова Т.Н., Саркисов С.В. –М.: Дело, 2005.–325 с.
31. *Диденко Н. И.* Основы внешнеэкономической деятельности в РФ. 2-е изд. –СПб.: Питер, 2004.–286 с.
32. «Qo‘shma korxonalarni tashkil etishga investitsiyalarni kiritishning ustuvor yo‘nalishlari va vazifalari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.–Т.: TDIU, 2008.
33. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining tegishli yillar bo‘yicha statistik to‘plamlari
34. www.mfer.uz–O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo Vazirligining rasmiy sayti
35. www.uzinfoinvest.uz–«O‘zaxborotinvest» agentligining rasmiy sayti.

Mundarija

KIRISH.....	3
1-bob. INVESTITSIYA, UNING MOHIYATI, IQTISODIY MAZMUNI VA TURLARI.....	5
1.1. Investitsiya tushunchasi, uning mazmuni va iqtisodiy mohiyati.....	5
1.2. Investitsion faoliyat va uni tashkil etish asoslari.....	8
1.3. Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi.....	10
1.4. Investitsiya turlari, ularning o'ziga xos jihatlari.....	12
2-bob. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	20
2.1. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning mohiyati.....	20
2.2. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish shakllari va uni tartibga solishning jahon tajribasi.....	22
2.3. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlari.....	26
2.4. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun imtiyozlar.....	29
2.5. To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish.....	39
3-bob. INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA USULLARI.....	48
3.1. Investitsion loyiha tushunchasi va ularni ishlab chiqish.....	48
3.2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari.....	55
3.3. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini jalb qilishda xalqaro kapitallar migratsiyasining ahamiyati.....	60
4-bob. INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH ASOSLARI.....	65
4.1. Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samarasini aniqlash.....	65
4.2. Investitsion loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash usullari.....	69
4.3. Investitsion loyihalarni baholash muammolari.....	74
5-bob. KORXONA ASOSIY FONDLARIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH.....	78
5.1. Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxonada faoliyatidagi o'rni.....	78
5.2. Korxonalarda asosiy fondlarning eskirishi, ularni baholash va ta'mirlash.....	80

5.3. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'llari.....	83
5.4. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati	84
6-bob. INVESTITSİYALARNI LOYIHAVIY MOLİYALASHTIRISH	86
6.1. Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati	86
6.2. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirishda investitsiyalarning o'rni	88
6.3. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishda investitsiya siyosatining o'rni.....	90
6.4. O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi doirasida investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish	93
7-bob. INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA TAVAKKALCHILIKLAR VA ULARNI BAHOLASH.....	101
7.1. Investitsiyalarni sug'urtalash	101
7.2. O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlarni qo'llash masalalari	104
8-bob. LIZINGNING MOHIYATI VA LIZING OPERATSIYALARI TURLARI.....	107
8.1. Lizing tushunchasi va uning yuzaga kelishi	107
8.2. Lizingning mohiyati.....	110
8.3. Lizing munosabatlarini shakllantirish jarayoni	111
8.4. Lizing operatsiyalari turlari va shakllari	116
9-bob. LIZING OPERATSIYALARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH.....	120
9.1. Lizingning iqtisodiy mazmuni va ta'rifi.....	120
9.2. Lizing to'lovlari mohiyati	126
9.3. Lizing operatsiyalarini soliqqa tortish tartibi.....	128
9.4. Lizing operatsiyalarini bojxona orqali tartibga solish	135
10-bob. LIZING OPERATSIYALARI ISHTIROKCHILARI UCHUN KAFOLATLAR	137
10.1. Lizing kelishuvlari ishtirokchilari o'rtasida tavakkalchiliklarni taqsimlash mexanizmi	137
10.2. Lizing jarayonida turli tavakkalchiliklarni sug'urtalash.....	141
11-bob. LIZING TO'LOVLARI HISOB-KITOBİ VA ULARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI.....	145
11.1. Lizing to'lovlari tarkibi.....	145
11.2. Lizing to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar	147

12-bob. LIZING KELISHUVLARINING IQTISODIY-HUQUQIY TAYYORGARLIGI VA ULARNI ASOSLASH	154
12.1. Lizing operatsiyalarining tashkiliy jihatlari.....	154
12.2. Lizing shartnomasini bekor qilish va lizing mulkini qaytarib olish.....	155
12.3. O‘zbekistonda lizing munosabatlarini rivojlantirishning huquqiy va iqtisodiy asoslarining tashkil topishi	157
12.4. Lizing shartnomalarini asoslash va tuzish bosqichlari.....	160
13-bob. LIZING OPERATSIYALARI BO‘YICHA MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR	163
13.1. Lizing operatsiyalari bo‘yicha xalqaro tajribalar	163
13.2. O‘zbekistonda lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari	165
IZOHLI LUG‘AT	174
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	179

Axmedov I.A., Nematov I.U., Salimov A.A., Muhitdinov H.T.

INVESTITSIYA VA LIZING ASOSLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

2-nashr

«Vneshinvestprom» MChJ

Toshkent – 2013

Muharrir *N. G‘oipov*

Badiiy muharrir *Sh. Xodjaye*v

Musahhih *U. Axmadova*

Texnik muharrir *F. Abdurasulova*

Kompyuterda sahifalovchi *S. Akramov*

«VORIS-NASHRIYOT», Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 30.

Nashriyot litsenzyasi AI №195. 28.08.2011.

Original-maket «Voris-nashriyot» nashriyotida tayyorlandi va bosishga ruxsat etildi 23.09.2013. Bichimi 60×84¹/₁₆. Shartli b.t. 11,5. Adadi 908 nusxa.

Buyurtma №

«Vneshinvestprom» MChJ, 100020. Toshkent, Langar ko‘chasi, 78.